

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

No'monova Zebuniso Usmonjon qizi

**Turli tizimdagi tillarda idiomalarning semantik-grammatik va stilistik
tadqiqi (ingliz,o'zbek va rus tillari misolida)**

**5A111401-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) mutaxassisligi bo'yicha magistr
darajasini**

olish uchun yozilgan

dissertatsiyasi

Ilmiy rahbar:

dotsent M.A.Abduvaliyev

Andijon - 2018

Mundarija

Kirish.....	3-11
I BOB. Dunyo tilshunosligida idiomalarning tadqiq etilishining nazariy asoslari.....	12
I.1. Xorijda idiomalarning tadqiq etilishi, tarixi va usullari	12-15
I.2. O'zbek tilshunosligida idiomalar tadqiqi	15-18
I.3. Idiomalar rus tilshunoslarining tadqiqot obekti sifatida	18-31
II BOB. Ingliz, o'zbek va rus tilshunosligida idiomalarning grammatik, semantik, stilistik tahlili va ularning tildan-tilga o'girish masalalari.....	32
II.1. Turli tizimdagi tillarda idiomalarning grammatik o'xshash va farqli jihatlari tadqiqi.....	32-44
II.2. Turli tizimdagi tillarda idiomalarning semantik-stilistik o'xshash va farqli jihatlari tadqiqi.....	44-66
II.3. Idiomalarning tillararo korrespondensiyasi masalalari.....	67-83
III BOB. Idiomalar tasnifi hamda ularni o'qitishning zamonaviy texnologiyalari	84
III.1. Idiomatik sinonimya.....	84-87
III.2. Idiomatik omonimya	87-89
III.3. Idiomatik antonimya	89-95
III.4. Idiomalar o'qitishning zamonaviy texnologiyalari	95-103
Xulosa	104-106
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	107-111

Kirish

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni hamda "Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturi" ni amalga oshirish doirasida chet tillarini o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, mamlaktning jahon hamjamiyatida yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning 2012-yil 10-dekbrdagi PQ 1875-sonli qaroriga muvofiq chet tillarni o'qitish va o'rganish tizimini, tubdan isloh qilish, yuksak ma'naviyatli intellectual rivojlangan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning ijodiy va tanqidiy fikrlash malakalariga ega yosh mutaxassislarni tarbiyalash borasida kompleks chora-tadbirlar belgilab berildiki, ular sirasiga sof lingvistik va metodik ilmiy-tadqiqotlarni sifat jihatidan yangi pog'onalarga olib chiqish fan va ishlab chiqarish integrasiyasini ta'minlash kabi qator dolzarb vazifalar kiradi.¹

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitish sifatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi 610-sonli qaroriga binoan alohida-alohida uzluksiz ta'limning barcha turlari uchun tavsiya etilgan talablar asosida chet tillari tizimini yo'lga qo'yish masalasi dolzarblik kasb etmoqda.²

Chet tillarni o'rganish hamda o'rgatishga berilgan bunday katta e'tibor ingliz tili sohasida yangidan-yangi tadqiqotlarni ochilishiga sabab bo'lmoqda.

Shu nuqtai nazardan, insonlar o'rtasidagi muloqatning eng muhim vositasi, xabarni boshqalarga yetkazuvchi qurol bu tildir. Shu bilan birga, tilda milliy madaniyatning o'ziga xos oynasi bo'lgan, uni saqlovchi, avloddan avlodga yetkazuvchi birliklar bo'lgan frazeologik iboralarni qiyosiy tadqiq etish ham

¹ Karimov I.A. "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori. "Xalq so'zi" gazetasining 2012 yil 14 - dekabr 240 - soni.

² Mirziyayev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" " T "O'zbekiston" 2017 B 17

muhim ahamiyat kasb etadi. Frazologik birliklar har qanday tilning lug'at boyligining muhim ajralmas qismi sifatida til egasi bo'lgan xalq yoki millatning hayot tarzi, urf-odatlar, qadriyatlar, orzu-umidlari, qayg'ularini aks ettiradi. Frazologik iboralar obrazlilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi o'ziga xos murakkab til va nutq birliklari bo'lib, ular badiiy, siyosiy va publisistik matnlarning ifodaviy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladilar.

"Ilm-fan salohiyati bu – xalqning, Vatanning ulkan boyligi, kelajak poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 - sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 16-fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ 2909-sonli qarori va boshqa me'yoriy xujjatlar O'zbekistonda ilm-fanni, shuningdek, tilshunoslikni rivojlanishiga sabab bo'lmoqda.³

"Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga respublikamiz miqyosida katta ahamiyat berilmoqda. Butun jahon hamjamiyatlaridan o'ziga xos o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilish ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir".

Ko'zga ko'ringan Amerika tilshunos olimlari R.Lada hamda Ch.Frizlarning fikricha, ona tilidan xorijiy so'z ma'nolarini va grammatik hodisalarini ochib berish vositasidan til materiallarining izchilligini ta'minlash usuli sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.⁴

Xorijiy til materiallarini ona tiliga, ona tili materiallarini esa xorijiy tilga tarjima qilish jarayonida tafakkur qobiliyati o'sadi, bir vaqtning o'zida aql,

³ Mirziyayev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" "T "O'zbekiston" 2017 B 17

⁴ Ларин Б.А. Очерки по фразеологии // Очерки по лексикологии, фразеологии и стилистике: Уч. зап. /ЛГУ. — Л., 1956. — № 198. — 201-202 стр

tafakkur, hayol, xotira va soʻz bilish qobiliyati rivojlantiriladi, chunki aytilgan fikrni chuqur tushunishgina emas, balki oʻsha fikrni oʻz ona tilida mukammal va toʻgʻri ifodalay bilish koʻnikmalari ham talab etiladi. Bunga esa faqat ikkala – oʻzbek va xorijiy til materiallarini lingvo-tipologik jihatdan chuqur tahlil qilish orqaligina erishish mumkin. Shuning uchun ham ushbu lingvotipologik uslub umumiy tilshunoslikda bebaho vosita hisoblanadi. Chunki juda koʻp til materiallarini oʻrganilayotgan til ichidagi hodisalarni ona tili ichidagi til hodisalariga taqqoslab solishtirish orqali oʻrganish foydali ilmiy natijalar beradi. Masalan, ingliz tilida mavjud boʻlgan predloglarning ishlatilishini, gaplarda soʻz tartibi qoidalarini, leksik-semantik hodisalarni turli tizimdagi tillarda oʻrganish yoki tillar va ularning yaruslararo lingvistik kategoriyalarning ifodalanish usullarini muqoyasa qilish kabi masalalarni tadqiq qilish maʼqul boʻladi. Bunday lingvistik yondashish natijasida xorijiy til materiallarigina emas, balki ona tili materiali ham ongli ravishda oʻrganiladi hamda bilim chuqurlashtiriladi. Agar fikrning aniq berilishi, shartligi koʻzda tutilgan boʻlsa, tarjima oʻrniga bir tilli matnlardan, yaʼni perifraza ishlatish matnlaridan foydalanish maqsadga muvofiq boʻladi. Bir fikrni turli vositalar yordamida ifodalay olish qobiliyati bilim darajasini koʻrsatadi. Muhim fikrning boshqa soʻzlar bilan ifodalanishi perifraza boʻlib, uni mukammal oʻrganib olishdan avval yoki uning toʻgʻri ekanligini tekshirib koʻrish uchun ham nazariy, ham amaliy tarjimadan foydalanish tavsiya etiladi. Fikr yoki mazmuni aniq berilishi shart boʻlgan hollarda, yaʼni turli shartnomalarni xorijiy firmalar bilan tuzishda, ular bilan axborot almashishda, aniq fanlarga oid materiallarni oʻrganish jarayonida ikki tilli matnlarning, yaʼni tarjima matnlarining ahamiyati beqiyosdir, chunki har qanday sinonim yoki perifrazaning ham kutilgan maʼnoni berishdagi aniqlik darajasida oʻziga xos kamchiligi boʻladi, u fikrni aniq bera olmasligi ham mumkin.

Ushbu tadqiqot ingliz tilidagi frazeologik iboralar kategoriyasining tillar va yaruslararo ifodalanish usullarini yoritishga bagʻishlanadi hamda iboralarning leksik-semantik xususiyatlari yordamida ifoda etilishi, ularning kelib chiqish yoʻllarini oʻrganish va bunga tarixiy jihatdan yondashishni, turli tizimdagi tillar

adabiyoti matnlarining kichik intervallari orqali o'rganish jarayonini o'z ichiga oladi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Ushbu tadqiqot ishining mavzusi o'tmishda ham, bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Buning sababi shundaki, frazeologiyaning alohida fan sifatida shakllanishi qariyb ikki asrni o'z ichiga oladi. Tilshunoslik sohasida frazeologiyani alohida o'rganilish uchun ilk qadamni shvetsar-fransuz tilshunosi Sharl Balli qo'ygan bo'lsa, keyinchalik rus tilshunoslari B.A.Larrin, A.V.Kunin, V.V.Vinogradov, N.N.Amosovalar tomonidan bu sohaga chuqur va atroflicha yondashilgan. Tadqiqot ishining dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ingliz frazeologiyasi tarkibiga kiruvchi idiomalarining semantik xususiyatlari, ular orasidagi turli ma'no munosabatlari, ularning nutq jarayonida qo'llanilishi, funksiyalari kabilar til o'rganuvchilar uchun qiyinchilik tug'dirmoqda. So'zlashuvda idiomalarning semantik tahlilini berish va ularning uslubiy-funksional xususiyatlarini tavsiflash bugungi kun muammolaridan biri sifatida qo'yilishining sababi tilshunoslikning va til sohasining rivojlanishi, yangi ma'lumotlarning to'planib muhokama etilishi kutilayotgani, bundan tashqari, aynan shu soha yuzasidan olib borilgan ishlarning umumlashtirish va kamchiliklarini bayon qilishdadir. Bundan tashqari, ingliz tilida frazeologik iboralarni o'zbek maktablarida o'quvchilarga o'rgatishning lingvodidaktik masalalari bo'yicha olib borilgan ishlar salmog'i ham ozchilikni tashkil etadi. Ushbu tadqiqot ishi orqali shu kabi muammolarni yechishga harakat qilinadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Ingliz, o'zbek va rus tillarida idiomalarning paydo bo'lish yo'llarining o'xshash va noo'xshash jihatlarini aniqlash va qiyosiy-tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilib chiqish hisoblandi. Idiomalarning semantik-funksional xususiyatlarini o'rganish va ularni semantik-struktur jihatdan talqin qilishdir.

Tadqiqot ishining yuqorida ta'kidlangan maqsadidan kelib chiqqan holda izlanish vazifalarini quyidagicha belgiladik:

- 1) tilshunoslikda frazeologik iboralarni etimologik tahlil qilish va tavsiflash;
- 2) ingliz, o'zbek va rus tillarida frazeologik iboralarni qiyosiy-tarixiy jihatdan tahlil qilish;
- 3) ingliz, o'zbek va rus tillarida frazeologik iboralarni semantik-funksional xususiyatlarini o'rganish va ularni semantik-struktur jihatdan talqin qilish;
- 3) ingliz tilidagi frazeologik iboralarni o'zbek, rus tillariga tarjima qilishdagi muammolar va qiyinchiliklarni tahlil etish;
- 4) ingliz, o'zbek va rus tillarida frazeologik iboralarni o'qitishning zamonaviy, samarador pedagogik texnologiyasini yaratish va amaliyotda qo'llash kabi tavsiyalar berish.

Tadqiqotning predmeti. Qiyoslanayotgan tillardagi frazeologik iboralarni semantik-gramatik xarakteri, etimologiyasi, til va nutq birligi ma'nolari va tarjima masalalaridan iborat. Ingliz, o'zbek va rus tillaridagi frazeologik iboralardir.

Tadqiqot materiallari sifatida antik, qadimgi, o'rta asr va hozirgi zamon ingliz va o'zbek yozuvchilarning asarlar matnlari, ingliz va o'zbek gazetalari va jurnallaridagi maqolalar matnlaridan, so'zlashuv jarayonida uchraydigan mavzuga xos dialogik va monologik nutqqa xos frazeologik iboralar, internet saytlardan keltirilgan frazeologik namunalar hamda A.V.Kuninning ingliz tili frazeologik birliklari lug'ati, J.Sefringning frazeologik lug'atlari va A.Rahimovning idiomalar lug'atlaridan foydalaniladi.

Tadqiqotning metodlari kompleks xarakterga ega. Semantik metod orqali frazeologik iboralarning semantik ma'nolari tahlil qilindi, frazeologik iboralarning stilistik xususiyatlarini aniqlash va tavsiflashda stilistik metoddan foydalanildi. Bundan tashqari qiyosiy-tarixiy, qiyosiy tipologik va statistik metodlardan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot metodining asosiy salmog'ini tipologik, semantik va tarjima metodlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning falsafiy va ijtimoiy asarlari, O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev asarlari, O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta'lim-tarbiyaviy ishlar to'g'risidagi hujjatlar hamda tilshunoslikning umumiy va xususiy nazariyasi, tilshunoslikning frazeologik qatlami bo'yicha A.V.Kunin, N.N.Amosova, J. Seifring, I.V.Arnold, akademik V.V.Vinogradov, L.P.Smit olib borilgan tadqiqotlar xizmat qilgan, shuningdek o'zbek tilshunos olimlardan professor O'.Q.Yusupov E.M.Umarxo'jayev, S.R.Rahimov, dotsentlar I.S.Soliyev, Sh.Rahmatullayev, A.Abduvaliyev va boshqalarning ilmiy ishlari, asarlari xizmat qildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi frazeologiya masalalari shu kungacha juda ko'plab tilshunos olimlarning diqqat e'tiborida bo'lgan. Ingliz tilshunosligida, umuman jahon tilshunosligida idiomalarining semantik, pragmatik talqiniga nisbattan kam e'tibor qaratilgan. Tilshunos olimlarning frazeologiya sohasida qilgan tadqiqotlarining aksariyati frazeologik iboralarning semantik- struktur va qiyosiy tipologik tahliliga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida idiomalarning uslubiy xususiyatlariga ham murojaat qilindi ularning omonimligi, sinonimligi, zid ma'noliligi va polisemiyasi tahlili ham berildi. Idiomalarning funksional xususiyatlari tahlil qilinib, ularning badiiy talqinda ifodalanishi yoritib berildi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ingliz tilidagi frazeologik iboralarning paydo bo'lish yo'llari va ularning o'zbek tilidagi muqobillarini aniqlash, ularning pragmatik va funksional xususiyatlariga oid qonun - qoidalar, ular borasidagi nazariy xulosalar leksikalogiya, tarjima nazariyasi, lug'atshunoslik borasidagi ilmiy fikrlarni boyitishga xizmat qiladi. Xorijiy tillar fakultetlari talabalariga maxsus kurslar o'tishida foydalanish mumkin.

Tadqiqotning amaliy qiymati. Dissertatsiyaning natijalari ilmiy va amaliy tilshunoslik, "Umumiy tilshunoslik", stilistika, leksikalogiya, "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Nazariy grammatika", "Amaliy grammatika" kabi fanlarni o'qitishda, tarjimaning amaliy va nazariy masalalarini o'rganishda, shu

bilan birga idiomalarning til va nutqda faol qo'llashda, o'rganish jarayonlarida qo'llanilish mumkinligi va bu muhim ahamiyat kasb etishi ishning amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Mazkur ish kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlarning alifbo tartibidagi ro'yxatidan iborat.

Dissertatsiyaning *kirish* qismida O'zbekistonda ta'lim sohasi xususan chet tillarini o'rganishga bo'lgan e'tabor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani, shuningdek ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar va unga davlatimiz rahbari tomonidan berilayotgan alohida e'tibori xususida so'z yuritiladi. Ushbu qismda mavzuning dolzarbligi, ob'ekti, maqsad va vazifalari, nazariy va amaliy ahamiyati, izlanish metodlari va boshqa xususiyatlari haqida so'z boradi.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "Dunyo tilshunosligida idiomalarning tadqiq etilishining nazariy asoslari" deb nomlanib, unda chet el olimlari va o'zbek tilshunoslarining idioma tadqiqi bo'yicha qarashlarining o'xshash va noo'xshash tomonlari, yutuqlari va kamchiliklari tahlil qilinadi.

Ishning ikkinchi bobi "Ingliz, o'zbek va rus tilshunosligida idiomalarning grammatik, semantik, stilistik tahlili va ularning tildan-tilga o'girish masalalari" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, bu bobda ingliz, o'zbek va rus tillaridagi iboralarning ma'noviy, struktur, konnotativ tomonlari va tarjima qilish masalalari tadqiq etiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "Idiomalar tasnifi hamda ularni o'qitishning zamonaviy texnologiyalari" mavzusiga bag'ishlangan. Bu bobda ingliz tilidagi idiomalarning omonimligi, sinonimligi, antonimligi va paronimligi atroflicha o'rganiladi. Bob so'nggida idiomalarning o'qitish texnologiyalari borasida zarur uslubiy tavsiyalar, texnologiyalar havola etiladi. Idiomalarni o'rganishda yuqori darajada samaradorlikka erishishga yordam beruvchi mashqlar tizimi amaliyotda qo'llash uchun tavsiya etiladi.

Ishning xulosa qismida mavzu tadqiqi natijasida erishilgan natijalar umumlashtiriladi.

Ishning so`nggida dissertatsiya mavzusi bilan bog`liq va uni yoritilishida foydalanilgan ilmiy, badiiy adabiyotlar, gazeta va jurnallar, lug`atlar ro`yxati va internet manbalari berildi.

I BOB

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA IDIOMALARNING TADQIQ ETILISHINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Xorijda idiomalarning tadqiq etilishi, tarixi va usullari

Frazeologiya tilshunoslikning alohida bir bo'limi bo'lib, unda ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalar, iboralar o'rganiladi. "Frazeologiya". termini grekcha "pharsis" fraza, ifoda "logos" ta'limot degan ma'nolarni anglatib, uning tadqiqot doirasiga faqat ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalar kiritiladi. Tilning lug'at tarkibini nafaqat boshqa so'zlar, balki barqaror so'z birikmalari ham tashkil qiladi. Barqaror so'z birikmalari boshqa so'zlar bilan ibora tushunchasi vositasi vazifasida xizmat qiladi. Barqaror so'z birikmalari o'zida tobe munosabatda birikkan so'zlarni namoyon etadi.⁵

Dastlab idioma tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Idiomalar (turg'un birikmalar va iboralar) ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi birikmalardir.⁶ Ular har qanday tilning nodir xazinasini va o'ziga xos lug'aviy fondi hisoblanadi. Idiomalar asrlar mobaynida avloddan-avlodga o'tib, meros sifatida saqlanadi. Ular har bir millatning dunyoqarashini, ruhiyatini, tarixini, madaniyatini, urf-odatlarini, mentalitetini ko'rsatib turuvchi mezonlardan biridir. Idiomalar har bir tilning estetik jozibasi, badiiy qudratini ko'rsatuvchi, nutqning emotsional-ekspressivligini oshiruvchi birlik bo'lib, nutqimizning ko'rki hisoblanadi.

Idiomalar so'zlashuv jarayonida yaratilmaydi, lekin nutqda allaqachon qotib qolgan va ma'lum mazmunda ishlatilayotgan bo'ladi. Idiomalarning mazmunan to'liq tarkibi gapning mustaqil bo'lagini anglatmaydi, lekin barqaror

⁵ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс+, 2005. – 466с.

⁶ Nurmonov A, Sobirov A, Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: Ilm ziyo, 2010. - B.83.

birikma bir butunlikda gapning bir bo`lagini barpo etadi, maqol bundan mustasno, chunki uning tuzilishi butun boshli gap bilan teng bo`lishi mumkin.

Turg'un birikmalar tilning frazeologik birikmalari deb ham yuritiladi. Frazeologik birikmalar ikki yoki undan ko`p so`zlardan tashkil topadi, u bir tushunchani ifodalashi va bir so`zga ekvivalent bo`lishi mumkin, odatda u bir so`zli sinonimik ekvivalentga ega bo`ladi, sintaktik jihatdan gapning bir bo`lagini barpo etadi. Tuzilishiga ko`ra frazeologik birikmalar ulkan xilma-xillikni o`zida namoyon etadi. Frazeologik birikmalarning tarkibi o`rtasidagi semantik bog`lanishlar turlicha bo`lishi mumkin: bunday birliklar tarkibiga kiruvchi so`z o`zining ma`no mustaqilligini yuqori yoki past darajada saqlab qoladi.

XX asrning 60-80 yillariga kelib chet el adabiyotida, jumladan ingliz adabiyotida ham frazeologiya sohasiga bo`lgan qiziqish tez sur`atlar bilan o`sdi. G`arb hamda Amerika tilshunosligida shu vaqtga qadar frazeologiyaga bag`ishlangan alohida asar yo`q edi. Umuman "frazeologiya" termini ilk marotaba Sharl Balli tomonidan "Precis de stylistique" asarida qo`llanilgan. Frazeologiya sohasining ilk tadqiqotchisi, shubhasiz, shvetsar-fransuz tilshunosi Sharl Balli hisoblanadi. U o`zining "Stilistika ocherki"(1905) va "Fransuz stilistikasi"(1909) nomli asarlarida so`z birikmalari, frazeologizmlarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritgan.

Ingliz va amerikaliklar lug`atlarga boy ekanligi bilan faxrlansa bo`ladi, lekin umumiy tilshunoslikdagi ishlarda qayd etilgan qisqa ilovalardan tashqari hali yechimini topmagan nafaqat yechimini topmagan, balki hali o`ylab ko`rilmagan eng muhim nazariy muammolar qolmoqda edi.

Bularning orasida L.Graffga to`xtaladigan bo`lsak, u haqiqatan, frazeologik idiomalar va uslubiy jihatdan erkin bog`langan so`zlar orasidagi farqni lingvistik tahlil qilib bergan. Graff o`z ishlarida "ifoda" yoki "ifoda birliklari" atamalarini qo`llagan va uni birlik va uning qismlaridagi ma`noni buzmasdan so`zlarning o`rnini almashtirib bo`lmaydigan so`zlardan tashkil

topgan namunaviy birlik sifatida aniqlagan. Uning yondashuvi kontekstual tahlillar va diaxronik kuzatuvlarni birlashtirgan. Bir ifodaning tarkibiy qismlari boshqa biri bilan shunchalik ko'p marotaba fonetik va semantik bog'lanishlarda qo'llanilganki, ular hatto murakkab birlik sifatida ajratib qo'yilgan. Graff o'sha birlikni erkin konstruksiyadan qanday qilib sodda so'zga o'zgarishiga juda qiziqib qolgan edi. Graff o'z qarashlarini quyidagi munosabatlar bilan isbotlashga urungan:

"He left him a fortune", "He left him at home" va "He left him in the lurch" gaplarini qiyoslab, birinchi ikkita gapdagi fe'l va to'ldiruvchi munosabati bog'lanmaganligini ta'kidlab o'tgan. Agar biz *"He gave him a fortune"* yoki *"He saw at home"* deganimizda yo agar biz buni boshqa katta matnlardagi ko'p gaplarda qo'llaganimizda, *"fortune"* va *"at home"* so'zlari orqali ifodalangan ma'nolar deyarli o'zgartirilmagan bo'lar edi. Uchinchi gapda esa, boshqalaridan farqli o'laroq, ma'no *"lurch"* so'ziga tobe bog'langan va boshqa hech qaysi fe'l bilan almashtirib bo'lmaydigan *"leave"* fe'li bilan bog'langanligi ahamiyatlidir. Graffning ilovalaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, *"to leave in the lurch"* ning barcha qismlari bir-biriga bog'liq ekanligi anglashiladi.

Bu nazariya yozilganiga 75 yildan ko'proq vaqt bo'ldi. Graff hozirgi kunda ishlatilayotgan *"breakfast"* so'zi ham *"to break fast"* turg'un birikmasidan ajratib olinganligini aytadi, ya'ni *"break"* "ovqatdan saqlanmoq" ma'nosini anglatuvchi *"fast"* so'zi bilan birikkanda faqat shu so'z bilan muayyan ma'noli fe'l hisoblanadi. Shu sababli, *"And knight and squire had broken their fast"* (W.Scott) deyish o'rinli bo'lgan.

Haqiqatan ham, bu so'z emas edi, lekin so'z birikmasi otning sintaktik munosabati va fe'lning tuslanish munosabati orqali yaqqol holda ko'rsatilgan. Graff bu muammoga munosabatini o'zining umumiy tilshunoslik qo'llanmasida qisqacha to'xtalib o'tgan.

Yana bir muhim, yechimini topmagan muammo klassifikatsiya muammosi edi. Batafsil guruhlashlar L.P.Smit va U.Ballarnning ingliz tilidagi iboralar kitobida berilgan. O`sha davrda mualliflarning o`zlari ham bu guruhlashlarni frazeologik birikmalar klassifikatsiyasi sifatida qabul qilinishini tasdiqlashmagan edi. Ular shunchaki turg`un birikmalarni to`plashgan, ularni tushuntirishgan, ularning qiziq jihatlarining ba`zilarini, ya`ni alliteratsiya, qofiya, tazod va shu kabilarni yoritishgan va ifodalilikni aniqlashtiruvchi mehanizmlarini talqin etishgan. Ular ingliz tilidagi frazeologik birikmalarining etimologiyasi va kelib chiqishiga ham qiziqib ko`rishgan va ularni dengiz hayotidan, qishloq xo`jaligidan, ovchilikdan, sport turlaridan va boshqalardan olingan so`z birikmalariga ko`ra tartibga solganlar. Tilning resurslarga boyligi ingliz tilini o`qitish va o`rganishga qiziquvchilar uchun kundalik so`z birikmalarining juda qimmatli amaliy qo`llanmasini hosil qiladi.⁷

1.2. O'zbek tilshunosligida idiomalar nazariyalari

Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlarning tobe grammatik munosabatidan hosil bo'lgan sintaktik qurilma so'z birikmasi hisoblanishi deyarli barcha sintaksisga doir adabiyotlarda ta'kidlanadi. Birikma tarkibidagi grammatik va mazmuniy yetakchi komponent hokim hisoblanadi. Birikmaning substantSIONal tavsifi ana shu hokim so'zga qarab belgilanadi. Tobe qism bilan hokim qism bir butunlikni hosil qilib, obektiv borliqdagi narsa, voqea-hodisa, harakat-holatlarni nomlash uchun xizmat qiladi. Demak, bunday birliklarning vazifasi nomlashdan iboratdir.⁸

Odatda, so'z birikmalari hokim so'zning voqelanishi to'ldirish asosida nutqiy jarayonda hosil qilinadi. Lekin, ayrim birikmalar borki, ular barqarorlashib, tarkibiy qismlari yaxlitlanib qoladi va bu yaxlitlangan birlik nutqqa tayyor holda olib kiriladi. Shunga ko'ra birikmalar erkin va turg'un birikmalarga bo'linadi.

⁷ Bally, Ch. *Precis de stylistique*. - Geneve, 1905.-320 p.

⁸ Лингвистический энциклопедический словарь. М.:СЭ,1990. С.469.

Tarkibidagi mustaqil so'zlar o'z leksik ma'nosini va sintaktik aloqasini saqlagan va har bir so'zlovchi tomonidan nutq jarayonida muayyan bir tilning sintaktik qoliplari asosida yangitdan yaratilgan birliklar erkin birikma, tarkibidagi so'zlarning bog'lanishi yaxlitlangan va nutqqa so'zlovchi tomonidan tayyor holda olib kiriluvchi birikmalar turg'un birikmalar hisoblanadi.

Idiomatik birlikni kundalik hayotimizda juda ham ko'p qo'llaymiz. Har bir davlatda qadimgi davrlardan odamlarning suhbatlari jarayonida qo'llanilib, zanjir tarzida avlodlardan avlodga o'tib boruvchi va shu bilan birga aynan bir davlatning o'ziga hos madaniyati, narsalarga nisbatan bo'lgan qarashlar va fikrlash doirasiga asoslangan holda idiomatik birliklar vujudga keladi. Tilshunoslik dunyosida idiomalar juda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, badiiy asarlar, muloqot jarayonida frazeologik birliklarsiz tasavvur qilish qiyin. Ammo, bunday birliklarni o'rganish jarayonida idiomatik birliklarning ko'pligi va ularning ma'nosini tushunish bo'yicha o'ziga xos qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Bunday iboralarni o'rganish yoki tahlil qilish jarayonida faqatgina gramatik va so'z boyligi orqali iboralarning ma'nosini to'liq tushunib yetish qiyindir. O'rganilayotgan chet tili bo'yicha bilimi kuchli bo'lgan o'quvchi va talabalar uchun ham iboralarning ma'nosini tushunib yetishi oson hisoblanmaydi.

O'zbek tilining boy lingvistik imkoniyatlarini ko'rsatuvchi vositalardan biri frazeologizmlardir. Sh.Rahmatullayev asos solgan o'zbek frazeologizmshunosligi keyingi yillarda katta yutuqlarga erishdi. Turli hajmdagi ilmiy maqolalar, risolalar, nomzodlik dissertasiyalari bilan bir qatorda A.E.Mamatovning «Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik-frazeologik norma muammolari» (1991), B.Yo'ldoshevning «Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional uslubiy xususiyatlari» (1994), A.Mamatovning «O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari» (2000) nomli doktorlik ishlari muvaffaqiyatli himoya qilindi. Sh.Rahmatullayev tomonidan 1978 yilda yaratilgan «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati» esa hozirgacha muhim qo'llanma sifatida foydalanib kelinmoqda. Ushbu

dissertatsiyamizning asosiy qismining I bobida idiomatik birliklar to'g'risida umumiy tushuncha ya'ni mavzuga doir izohlar va tushunchalar ustida izlanib va shunga qadar tilshunoslik olamida dunyoga tanilgan olimlar tomonidan olib borilgan uzoq yillik tadqiqotlar mahsuli sifatida vujudga kelgan iboralarning tasniflarinishi to'g'risida so'z yuritiladi. Shuningdek, frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida mulohaza qilinadi. Yuqoridagilarni aniqlash maqsadida o'zbek va ingliz tilidagi bir necha ilmiy lug'atlar, ilmiy ishlar va maqolalari o'rganib chiqish orqali bu tillarda idiomatik birliklar to'g'risidagi tushunchalar va izohlarning ko'pligi va xilma-xilligi aniqlandi.

Professor M.I.Umarxo'jayev frazeologik sistemaning markaz va periferiyasiga ko'proq e'tibor bergan. Leksik hamda frazeologik sistemaning markaziy va periferik elementlarini aniqlash maqsadida biz ularning ahamiyatli belgilariga asosiy e'tiborni qaratdik. Bu boradagi dastlabki tezisimiz – frazeologik sathda frazeologik sistemaning markaziy hamda periferik elementlari mavjudligidir.

Markaziy va periferik elementlarni aniqlashda turli mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir, masalan, elementlarning integratsiya darajasi, tildagi funksional vazifasi hamda qo'llanish chastotasi va boshqalar. Shu bilan birga, bizning nazarimizda, birinchidan frazeologik sistemaning markaziy va periferik qismlarini ajratishda asosiy kriteriy frazeologizmni tashkil etuvchi komponentlarning integratsiya darajasi bo'lsa, ikkinchidan, komponentllar leksik ma'nolarning qay darajada yo'qoolish darajasiga bog'liqdir.

Birinchi mezon orqali frazeologik iboraning shakllanishida ishtirok etgan so'zlarning "so'zlik" hususiyati saqlanib qolganmi yoki yo'qmi degan savolga javob aniqlanadi, chunki ma'lum hollarda so'zning individualligi saqlanib qolishi kuzatiladi, ba'zan esa individual ma'no "yo'qotiladi".⁹

Yuqorida aytib o'tganimizdek, turg'un birikmalar shu kunga qadar turli mualliflar tomonidan turlicha nomlanib kelmoqda. Jumladan, "Lingvistik

⁹ М.И.Умарходжаев. Основы фразеологии. Т., 1983, с.21

ensiklopedik lug'atda"bunday birikmalarning barchasi "frazeologizm" atamasi ostida ifodalangani holda, idiomalar, maqol va matallar, qanotli so'zlar, aforizmlar kabilar uning tarkibiga kiritiladi. Ularning muhim va universal belgisi sifatida "mazmuniy transpozitsiya, turg'unlik va tayyorlik" belgilari e'tirof etiladi.¹⁰

1.3. Idiomalar rus tilshunoslarining tadqiqot obekti sifatida

Frazeologik idiomalar va barqaror jumlar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o'rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko'plab tadqiqotchilar frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma'noda tushunadilar. Uni keng ma'noda tushunilganda (L.P.Smit, V.P.Jukov, V.N.Teliya, N.M.Shanskiy) frazeologiya doirasiga maqol va matallar, folklorga xos barqaror jumlar, ba'zi muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jumalari) ham kiritiladi. Lekin bu masala, ya'ni frazeologiyani keng ma'noda tushunish masalasi hanuz munozarali bo'lib qolmoqda. Buyuk rus tilshunosi V.V.Vinogradov frazeologiya tarkibiga barqaror jumlar hamda qanotli so'zlarni kiritilishiga qarshi bo'lgan va "maqol va matallar so'z ekvivalenti bo'la olmasligi, hamda shaklan gapga teng bo'lgani uchun frazeologiyaning o'rganish obyekti bo'la olmaydi" deb aytib o'tgan.

Frazeologiyaning yoki idiomatikaning alohida fan sifatida o'rganilishi bir necha asrlarni o'z ichiga oladi. Xususan, rus tilshunosligida tadqiqotchilar XVIII asrdan boshlab frazeologik muammolarga qiziq boshlashgan. Jumladan, M.V.Lomonosov rus adabiy tili lug'atini tuzar ekan, bunda so'zlar bilan bir qatorda "xalq maqollari", "idiomatizmlar" va frazemalar ham o'z ifodasini topgan bo'lishi lozimligini alohida ta'kidlagan edi.¹¹

B.A.Larin Polivanovdan so'ng frazeologiyani alohida tilshunoslik bo'limi sifatida o'rganilishini taklif qilgan tilshunoslardan biridir. "Frazeologiya tilshunoslik bo'limi sifatida hali "yashirin rivojlanish bosqichida"...u hali alohida fan sifatida

¹⁰ Лингвистический энциклопедический словарь.С.559.

¹¹ Кунин А.В. Английская фразеология (теоретический курс). – М.: Издательство «Высшая школа», 1970. – 344 с

rivojlanib bo'lgani yo'q...ammo uni alohida fan sifatida shakllanishi hozirgi zamon tilshunosligida katta zaruratni taqozo qilmoqda. Zero bu sohaga oid muammolarni ba'zan leksikografiya, ba'zida esa stilistika yoki sintaxisda hal qilinishi hech kimga sir emas" deb ta'kidlab o'tgan.¹²

Frazeologiyani tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida buyuk rus tilshunosi V.V.Vinogradov ham ko'rib chiqqan. U rus tilida frazeologik birliklarni semantik jihatdan klassifikatsiya qilgan bo'lib, uning frazeologiyaga oid ishlari o'z davri uchun yirik qadamlardan biri edi. Ammo uning asari nashr qilingandan keyin ham frazeologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida tan olinmadi. Chunki Vinogradov frazeologiyani keng planda tahlil qilgan bo'lib, uning frazeologiyaga oid asarlarida frazeologik birliklar va oddiy so'z birikmalari orasidagi chegara belgilab berilmagan edi. Umuman V.V.Vinogradov tilda frazeologik birliklarni alohida belgilashni taklif qilmagan, frazeologik birliklarni so'zlar bilan haddan ortiq yaqinligini hisobga olgan holda, u o'zining teoriyasini so'zning grammatik tahlili doirasiga kiritgan.¹³

Shunday qilib frazeologiyaning alohida fan sifatida rivojlanishi juda ko'p bosqichlarni bosib o'tgan. Xususan, frazeologiyaning rivojlanish tarixini xronologik jihatdan uch davrga bo'lish mumkin ¹⁴

Birinchi davr XVIII asrning o'rtalaridan XX asrning 30-yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, bu davr frazeologik tadqiqotlarning yo'lga qo'yilishi M.N. Lomonosov, A.A.Potebnya, F.F. Fortunatov, A.A. Shaxmatovlarning ilmiy faoliyati bilan bog'liq.

Qayd etish o'rinliki, birinchi davrda frazeologiya leksikografiya ya'ni amaliy lug'atshunoslik obyekti bo'lib xizmat qilgan. Bu davrda ko'proq

¹² Ларин Б.А. Очерки по фразеологии // Очерки по лексикологии, фразеологии и стилистике: Уч. зап. /ЛГУ. — Л., 1956. — № 198. — 201-202

¹³ Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. — Л., 1946. — С.61.

¹⁴ Ёулдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти.- Самарқанд: СамДУ, 2007.- 108 б.

lugʻatlarda qayd ettirish, ularning maʼnolarining etimologiyasini izohlash, talqin etishga alohida eʼtibor qaratilgan edi.

Ikkinchi davr, E.D.Polivanov, V.V.Vinogradov, S.I.Abakumov, G.K.Damilov, A.I.Yefimov, A.Y.Rojanskiy kabi tilshunoslar ilmiy faoliyati bilan bogʻliq holda rivojlandi va XX asrning 30-50-yillarini oʻz ichiga oladi. Bu davrni frazeologiya mustaqil lingvistik soha sifatida shakllanish davri deb ham aytish mumkin.¹⁵

Uchinchi davr XX asrning 60-yillaridan boshlab hozirgi kungacha davom etadi. Bu davr frazeologik tadqiqotlarda turli metodlarni qoʻllanilishi frazeologiya sohasining tez surʼatlar bilan rivojlanishi va koʻplab frazeologiya mutaxassislarini yetishib chiqishi bilan xarakterlanadi.

Dunyoning mashhur rus tilshunoslari akademik F.F.Fortunatov, A.A.Shaxmatov va boshqalar idiomalarning sintaktik tahlillari uchun yoʻl ochib berishdi. Koʻplab rus olimlari muammoning nazariy aspektlariga katta qiziqish bildirishgan. Tilshunoslikning frazeologiya deb ataladigan maxsus sohasi shu mamlakatda yuzaga keldi. Rus tilidagi frazeologiyalar uchun eng muhim nazariyalar akademik V.V.Vinogradov va professor B.A.Larinlar tomonidan rivojlantirilgan edi.

Ingliz tiliga keladigan boʻlsak, rus tilshunoslarining frazeologiyaga bagʻishlagan ishlarining miqdori juda ulkan hisoblanadi, professor A.V.Kunin va professor N.N.Amosovanning toʻliq adabiyotlar roʻyxati keltirilgan doktorlik tezlari va bu turdagi lugʻatning nazariyasi haqidagi maqolalar, ilmiy asarlar bilan birga professor A.V.Kuninning ingliz tili iboralari haqidagi keng qamrovli ikki tilli lugʻatining mavjudligini aytishning oʻzi ham yetarli boʻladi deb oʻylaymiz.

¹⁵ Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка.— М.: ИИЛ, 1957. ИИЛ, — стр 53

Professor B.A.Larinning bu sohaga yondashishi diaxronik yo`nalishda edi. Uning tasnifi birikma o`z rivojlanishida bosib o`tgan uchta tadrijiy bosqichlarni aks ettirgan. Birinchi bosqichda u erkin birikma sifatida yuzaga keladi. Ikkinchi bosqich metaforik so`z birikmasining bo`linmas shaklga kelib qolishiga yaqqol sabab bo`lgan. So`z birikmasida motivatsiyaning yo`qolishi bilan iboraning yuzaga kelishi uchinchi bosqichni yuzaga keltirgan. Iboraning ma`nosi uning alohida tarkibiy qismlaridagi ma`no orqali tinglovchi tomonidan rivojlantirilmaydi, balki butunligicha tushuniladi.

Rus va boshqa Evropa tillaridagi turli adabiyotlarda ko`pincha idioma bilan maqol va matallar farq qilinmay, umuman ko`chma ma`noda ishlatiladigan jami obrazli iboralar idiomaga kiritiladi. Sababi akademik V.V.Vinogradovning ko`rsatishicha “idiom”, “idioma”, “idiomatizm” terminlari g`arbiy Evropa tillarida to`rt yuz yildan beri ishlatib kelinganiga qaramay, hozirgacha ularni hamma olimlar e`tirof etgan yagona ta`rifi yo`q. V.V.Vinogradov katta frazeologik boylikning faqat bir qismi – frazeologik chatishmalarinigina idioma deb atashni taklif qiladi. Yana boshqa tilshunos olimlarimiz esa “idioma bu – frazeologiyani yuragidir”, - degan fikrni bildirishadi. Frazeologiya sohasida ulkan yutuqlarga erishgan A. Kuninning ko`rsatishicha “idioma” termini dastlab adabiyotshunoslikka oid bo`lgan asarda ishlatilgan. Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, shunday qilib “idioma bu – muayyan tilga xos, unga o`zlashib ketgan va boshqa tilga so`zma – so`z tarjima qilib bo`lmaydigan (ba`zi hollarda mumkin) nutq oborotidir”. Ushbu keltirilgan ta`riflarga “quloq tutsak” idiomaga xos quyidagi belgilar namoyon bo`ladi:

1. U faqat ayni bir ma`lum tilgagina xos;
2. Uni bir tildan ikkinchi tilga so`zma – so`z tarjima qilib bo`lmaydi;
3. Uning ma`nosi tarkibidagi so`zlarning ma`nosidan anglashilmaydi.

Ammo tilshunos olimlarimizning frazeologiya sohasida olib brogan tadqiqotlari natijasi bunday ta`riflar haqiqatga idiomani mazmunini to`la aks

ettirolmasligini ko`rsatadi. Avvalo , bir tildan ikkinchi tilga so`zma – so`z tarjima qilib bo`lmasligini kriteriya qilib olish to`g`ri bo`lmaydi , chunki:

1. Idiomalgina emas , balki juda ko`p “oddiy” obrazli so`z va birikmalar borki, ularni ham boshqa tilga aynan tarjima qilib bo`lmaydi;
2. Umuman bir til hodisasini ta`riflashda uni boshqa bir tilga tarjima qilib bo`lish bo`lmasligigagina tayanish to`g`ri emas;
3. Idiomalarni so`zma – so`z talqin qilish ularni boshqa tilga tarjima qilgandagina emas , balki shu tilning o`ziga “tarjima” qilgandayam hech qanday ma`no bermaydi.
4. Nihoyat shunda idiomalar borki, ularni boshqa tilga so`zma – so`z tarjima qilish ham mumkin.

Ushbu fikr yuzasidan ham , ya`ni idiomalarni so`zma – so`z tarjima qilish mumkinligi haqidagi g`oyaga nisbatan boshqa olimlarimiz bildirgan fikrlarini ko`raylik.

Masalan: Ya.I.Riskier: “Rus tiliga kirgan chet el idiomatik iboralarining kal`ka usuli bilan tarjima qilinganligi ekvivalentlarga yaqqol misol bo`la oladi”.

Be.Rossel`ning fikriga ko`ra esa “neytral` idiomalar boshqa tilga osonlik bilan so`zma – so`z tarjima qilinishi mumkin ” ekan.

L.P.Yevremov ham bu borada o`z qarashlarini bayon etgan: “Har bir tilning frazeologiyasini yanada boyitish uchun frazeologik kal`kalash zaminida katta imkoniyatlar bor, lekin tarjima amaliyotida buni doimo kerakligicha hisobga olinyapti deb bo`lmasa kerak ”, leksik va frazeologik kalakalashning har xil turlarini chuqur , har tomonlama o`rganib chiqish til haqidagi fanning muxim vazifalari qatoriga kiradi; bundan tashqari, u tilga kirgan frazeologiyaning mohiyatini lingvistik xodisa sifatidama`lum xissa bo`lib qo`shiladi va ikkinchi tomondan, frazeologiyaning nazariy masalalarini belgilab olishga yordam beradi, deb aytish mumkin.

Ingliz tilida “take your change out of that ” idiomasi rus tilidagi “получайте !; Вот вам !”, “Keep under control” iborasi esa “держатъ себе в руках” iborasining ekvivalentidir. Agar yuqoridagi kabi idiomalarni so`zma –

soʻz tarjima qiladigan boʻlsak , maʼnosiz soʻz uyumi hosil boʻladi , yoki agar “maʼno” anglatsa ham uning mohiyatini ochib bera olmaydi. Bunday vaziyatlarda yuqorida misol qilib oʻtganimizdek ekvivalentlardan foydalanib oʻgiranimiz maʼquldir. Bu kabi idioma va frazeologik iboralar barcha tillarda juda koʻp sonni tashkil qiladi alkbatta.

Ingliz tilidagi “watch the birdie” (iborasi yaʼni suratga tushirish jarayonidagi) rus tiliga “смотри на птичку” tarzida tarjima qilib kirib keladi.

Bu esa soʻzma – soʻz tarjima qilish jarayonida bir tildan ikkinchi tilga turli iboralarni kirib kelishiga birgina oddiy misoldir. Oʻzbek tiliga ham rus tilidan “ barmoq orasidan qaramoq ”, “ xovonchada suv quymoq ”, “ qizil ip boʻlib oʻtmoq ”, “ Amerika ochmoq ”, “ xitoy devori ”, “ prometey olovi ” kabi oʻnlab idiomatik iboralar kirib keldi va kirib kelmoqda .

Lekin aniq tarjima qilib boʻlmaydigan iboralar juda kam sonni tashkil qiladi. Haqiqatda esa juda koʻp idiomalar borki , ular xijjalab tarjima qilinsa, chindan ham bemani soʻz uyumlari hosil boʻladi , xolos.

Masalan, ingliz tilida “as I live by bread” iborasi oʻzbek tiliga xijjalab tarjima qilinsa , “ faqat non yeb yashasam ” degan maʼno beradi , aslida esa “haqiqatda , rostini aytsam chin soʻzim ” degan maʼnolarni ifodalash uchun qoʻllaniladi .

Rus tilidagi “этот номурие пройдет iborasi esa ingliz tiliga “that cock wonʼt fight” tarzida oʻgirilgan.

Dotsent A.YA.Rojanskiy iboralarining quyidagi asosiy belgilarini koʻrsatadi.

1. Birikmaning barqarorligi

I. Idiomalar tarkibida hozir ishlamaydigan , maʼnosi koʻpchilikka maʼlum boʻlmagam, allaqachon istemoldan chiqib ketgan soʻzlarning yoxud eski grammatik shakllarning saqlanib qolganligi.

II. Juda qadimda mashhur boʻlgan afsonalarning mazmunidan kelib chiqqanligi.

III. Koʻpgina idiomalarining diniy mazmunda boʻlishi.

IV. Tarixiy voqealarni aks ettirish hamda yaxlit va ixcham shaklda bo'lishi ularning barqarorligini isbotlaydi.

2. Birikmaning majoziy ekanligi

Masalan, “oyoq uzatmoq” birikmasi kishining vafot etganini bildirar ekan, demak, bu ma'no uning tarkibidagi so'zlarning mazmunidan kelib chiqayotganligidan emas, balki shu birikmaning ko'chma ma'noda deb ishlatilayotganligidan deb bilmoq kerak. Zero, u to'g'ri ma'noda ham qo'llanilishi mumkin.

3. Birikmaning semantik butunligi

Buni shundan ham bilish mumkinki, sintaktik tahlilda ideoma bir gap bo'lagi vazifasida keladi. Idioma ma'no tomondan so'z, shaklan ko'pincha birikma bo'lib keladi.

Akademik V.V.Vinogradov iboralarni ma'nosidagi motivatsion o'zgarishlariga ko'ra ya'ni frazemadan yaxlitligicha anglashilgan ma'no bilan uning tarkibidagi leksemalar anglatadigan ma'nolar orasidagi munosabat asosida frazemalarning uch semantik turini farqlaydi:¹⁶

1. Frazeologik butunlik;
2. Frazeologik chatishma;
3. Frazeologik qo'shilma;

Ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar asosida izohlanadigan, shu leksik ma'nolar umumiy maxraji sifatida gavdalanadigan frazema-frazeologik butunlik deyiladi.¹⁷

Frazeologik butunlikda obrazlilik yuqori darajada bo'ladi. Uning komponentlari orasidagi bog'liqlik asoslangan bo'lib, metaforizatsiya yaqqol ko'zga tashlanadi. Frazeologik butunlikning boshqa iboralardan farqlovchi, o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib bular quyidagilar:

¹⁶ Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. – Л., 1946. – С.61.

¹⁷ <http://www.philology.ru>

-yuqori darajadagi obrazlilik hamda ayrim hollarda soʻz birikmalari bilan omonimlik munosabatiga kirishishi;

-alohida komponentlarning semantik butunligi;

-komponentlar tartibiga oʻzgartirishlar kiritila olinmasligi;

-boshqa iboralar hamda alohida soʻzlar bilan sinonimik munosabatga kirisha olishi;

Maʼnosi tarkibidagi leksemalarga xos maʼnolar asosida izohlanmaydigan, leksemaning leksik maʼnolari hisobga olinmaydigan frazema-frazeologik chatishma deyiladi. Masalan: to show white feather (qoʻrmoq); Kilkenny cats (ashaddiy dushmanlar); at six and sevens (chalkash holatda); to set one's cap at smb (kimnidir maftun qilishga urinmoq);

Frazeologik chatishmaning boshqa frazeologik birliklardan farqli jihatlari quyidagilarda namoyon boʻladi:

- baʼzan tarkibida arxaizmlarning qoʻllanilishi;

- sintaktik jihatdan yaxlitligi;

- komponentlari tarkibining turgʻunligi;

-komponentlar leksik maʼnolarining umuman ahamiyatini yoʻqotganligi;

V.V.Vinogradov tahliliga asosan iboralarning uchinchi turi boʻlmish frazeologik qoʻshilmalar ham turgʻun koʻchma maʼnoga asoslangan birlik boʻlib, boshqa iboralardan asosiy farqi tarkibidagi komponentlardan biri, oʻz lugʻaviy maʼnosida qoʻllanilishidir.

Masalan: break a promise (vaʼdani buzmoq); pay attention (eʼtibor bermoq); to be good at smth (biror sohada iqtidorli boʻlmoq); keep a promise (vaʼdasida turmoq).

Frazeologik birikma tarkibiga o'zgartirishlar kiritilishi mumkinligi sababli erkin birikmalarga yaqin turadi. Ammo shu o'rinda faqat frazeologik birikmalar uchun xarakterli jihatlarni sanab o'tish joiz:

-tarkibida turli semantik-struktur o'zgartirishlar kiritila olinishi;

-komponentlardan biri albatta erkin holatda ishlatilishi;

-ba'zan tarkibida aniqlovchinig ishlatilishi

-komponentlar tartibining o'zgartirila olinishi¹⁸.

Ba'zi frazeologiyani keng ma'noda o'rganilishi tarafdorlari FB larning to'rtinchi turini ham farqlab ko'rsatadilar va unga so'zlashuv birliklari hamda qanotli so'zlarni ham kiritadilar. Bu turga maqollar, matallar hamda mashur tilshunoslar va olimlarning afforizmlari ham kiritiladi.

Masalan: East or West home is best; Marriages are made in heaven; Still waters run deep kabilar.

I.B.Arnold ingliz frazeologik birliklarini uch turini farqlagan: set-expressions, semi fixed combinations, free phrases deb ajratilgan birliklar Vinogradov klassifikatsiyasiga to'la mos keladi. Lekin shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, ingliz tili frazeologik fondining asosiy qismini frazeologik butunliklar tashkil qiladi.

Buyuk rus akademigi A.V. Kunin frazeologik iboralarni yasashiga ko'ra ikki turga ajratadi ¹⁹:

1. Erkin birikmalar asosida yasaladigan frazeologik iboralar.

2. Frazeologik iboralar asosida yasaladigan frazeologik iboralar.

¹⁸ Черная А.И., Некоторые особенности формирования семантических фразеологических единиц – сб. науч.тр. – Воронеж, изд-во Воронежского гос. университета, 1983г. – С. 185-190

¹⁹ Кунин А.В. Основные понятия фразеологии как лингвистической дисциплины и создание англо-русского фразеологического словаря: автореф. дис. д-ра филол. наук – М., 1964. –38 с.

Hozirgi zamon ingliz tilida keng tarqalgan frazeologik iboralarning aksariyati erkin birikmalar asosida yasalgan bo'lib, ularni o'zini ham bir necha sinflarga ajratish mumkin:

- a) terminologik so'z birikmalarining ma'nolarini o'zgartirish asosida yasaladigan frazeologik iboralar. Masalan kosmik texnik vositalarga nisbattan ishlatiladigan quyidagi so'z birikmalarining ma'nolari ko'chishi asosida quyidagi frazemalar yasalgan: launched pad-start maydonchasi, ko'chma ma'noda boshlang'ich punkt, link up-kosmik kemalarni tutashtirmoq, frazeologik ma'noda tanishmoq;
- b) erkin so'z birikmalari ma'nosini o'zgartirish asosida yasalgan frazeologik iboralar: granny farm-qariyalar uyi, Trojan horse-kompyuter programmasiga zarar yetkazish uchun yasalgan kompyuter programmasi;
- c) alliteratsiya asosida yasalgan frazeologik iboralar: sad sack- falokat oyoq ostida, culture vulture-san'at shaydosi; fudge and nudge-noaniq, mujmal;
- d) undov so'zlar ta'sirchanligini oshirish vositasida yasalgan frazeologik iboralar: My aunt! Hear! Hear!
- e) so'z birikmalarini buzib talaffuz qilish vositasida yasalgan frazeologik iboralar: odds and ends birikmasi "odd ends" asosida yasalgan;
- f) frazeologik iboralar ma'lum bir so'z birikmasi yoki gapni turli xil holatlarda qo'llash natijasida ham paydo bo'ladi. Masalan "that cock won't fight" erkin birlik sifatida xo'roz urishtirish musobaqalari paytida qo'llanilishi mumkin, ammo u metaforik ma'noda ham turg'un birlik sifatida ishlatiladi.

Frazeologik iboralar yasallashining ikkinchi usuli bo'lmish turg'un birikmalarining o'zidan yangi frazeologik iboralar hosil qilish quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

- a) konversiya usulida: to vote with one's feet(fe'l), vote one's feet(ot);
- b) grammatik shaklni o'zgartirish vositasida: make hay while the sun shines-to make a while the sun is shining
- c) analogiya vositasida: curiosity killed the cat-care killed the cat

- d) kontrast vositasida ya'ni ma'lum bir frazeologik iboralarga zid ma'noli yangi birlik hosil bo'lishi natijasida: thin cat-kambag'al odam, fat cat-boyvachcha;
- e) maqol va matallarning qisqartirish vositasida- "You can't make a silk purse out of a sow's ear" – "to make a sow's ear"
- f) boshqa tillardan frazeologik iboralarning kirib kelishi vositasida ham yangi frazeologik iboralar yasaladi: "living space" (Nemis tili), "to take the bull by the horns" (lotin tili) ²⁰.

Akademik V.V.Vinogradov iboralarni sinxronik usulda tasniflagan. U ilk bor shvetsariyalik tilshunos professor Charlz Belli tomonidan ilgari surilgan bir qancha g'oyalarni rivojlantirgan va materialning tamomila leksikologik munosabatiga kuchli turtki berdi. Uning rus tili frazeologiyasi haqidagi maqolalari Rossiya va chet eldagi juda ko'p tilshunoslarga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Biz unga frazeologik birikmalarni tasniflanishiga ko'ra va aniq semantik xususiyatlari bilan ularni leksik komplekslar sifatida mukammal aniqlagandeb qaraymiz. Uning tasnifi birlikning motivatsiyasiga asoslangan bo'lib, ya'ni butun birlikning ma'nosi bilan uning qismlarining o'rtasidagi mavjud aloqadorlik nazarda tutiladi.²¹ Motivatsiya darajasi iboraning semantik yaxlitligi, bo'linmasligi va o'zgarmasligi bilan aloqadorlikda bo'ladi, ya'ni komponentlarning tartibi yoki shaklning o'zgarishi va butun bir ifodaning bir so'z bilan o'rin almashish ehtimolliklari bilan. Motivatsiya va shunga o'xshash boshqa xususiyatlar inobatga olingan holda frazeologik birikmalarning uch turi taklif etilgan: erkin birikmalar, turg'un birikmalar va frazeologik chatishmalar. Frazeologik birikmalarning yuqoridagi sanab o'tilgan turlaridan biri hisoblangan turg'un birikmalar yoki iboralarni tadqiq qilishni rejalashtirganmiz.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Ma'lumki frazeologik iboralar nutqga mazmun, mohiyat, asoslilik, obrazlilik hamda yorqinlik bag'ishlaydi. Iboralar ning bu xususiyatlari hech qanday badiiy tasvir nazarda tutilmaydigan so'zlashuv uslubida ham aniq

²⁰ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс+, 2005. – 466с.

²¹ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс+, 2005. – 466с.

saqlanib qoladi. Faqat badiiy talqinda iboralarning ta'sirchanlik xususiyati yanada yorqinroq namoyon bo'lib, yozuvchi qo'lida iboralar qahramonining madaniyati, ma'naviyati, intellektual salohiyatini yaqqol ifodalay oladigan asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi.

Frazeologiya sohasi tilshunoslik bo'limlari ichida nisbattan yosh soha hisoblanib, o'tgan asrning 60-yillaridagina tilshunoslar e'tiborini qozongan. Uni alohida tilshunoslik bo'limi sifatida dastlab rus tilshunoslari E.D.Polivanov va B.A.Larrin lar tadqiq etgan bo'lsa, keyinchlik V.V.Vinogradov, A.V.Kunin, Smirnitskiy kabi tilshunoslar undagi turli ichki muammolarni yoritish bilan shug'ullanishgan. Umuman frazeologiya sohasining ilk tadqiqotchisi fransuzshvetsar olimi Sharl Balli hisoblanadi.

Frazeologiyaning alohida fan sifatida rivojlanisini tarixiy jihatdan uch bosqichga bo'lish mumkin:

-XVIII asrning o'rtalaridan XX asrning 30-yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, bu davr frazeologik tadqiqotlarning yo'lga qo'yilishi M.N.Lomonosov, A.A.Potebnya, F.F.Fortunatov, A.A.Shaxmatovlarning ilmiy faoliyati bilan bog'liq;

-XX asrning 30-50-yillari E.D. Polivanov, V.V.Vinogradov, S.I.Abakumov, G.K. Damilov, A.I Yefimov, A Y. Rojanskiy kabi tilshunoooslar ijod qilgan davr;

-XX asrning 60-yillaridan boshlab hozirgi kungacha davom etadi. Bu davr frazeologik tadqiqotlarda turli metodlarni qo'llanilishi, frazeologiya sohasining tez sur'atlar bilan rivojlanishi va ko'plab frazeologiya mutaxasislarini yetishib chiqishi bilan xarakterlanadi.²²

Hozirgi zamon tilshunosligi nuqtai nazaridan frazeologiya alohida fan sifatida tan olingan bo'lsada u bevosita leksikologiya, grammatika, stilistika,

²² Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М.: ИИЛ, 1956. – 260 с.

fonetika, til tarixi, falsafa fanlari tarixi, mantiq hamda mamlakatshunoslik fanlari bilan aloqadorlikda rivojlanib bormoqda.

Tilda tayyor holda saqlanadigan birlik sifatida iboralar har doim aniq ma'no, domiy tarkib hamda strukturaga ega birliklardir. Tilning idiomatik fondi haqida gap ketganda tilshunoslar ularning an'anaviyligi, turg'unligi son hamda sifat jihatidan o'zgarmas birliklar ekanligini alohida ta'kidlab o'tadilar. Tilning frazeologik fondining asosiy qismini tashkil qiluvchi so'zlashuv idiomalar esa, tilda o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Idiomalar nutqni jonli-rang-barang bo'lishini ta'minlab, unga o'ziga xos ekspressivlik yuklaydi.

II BOB

INGLIZ O'ZBEK VA RUS TILSHUNOSLIGIDA IDIOMALARNING GRAMMATIK, SEMANTIK, STILISTIK TAHLILI BA ULARNING TILDAN-TILGA O'GIRISH MASALALARI.

2.1. Turli tizimdagi tillarda idiomalarning grammatik o'xshash va farqli jihatlari tadqiqi

Frazemalarda hozirgi o'zbek tilidagi sintaktik bog'lanishlarning deyarli barcha turlari o'z aksini topgan.

I. Frazemalarning ko'p qismi birikmaga teng qurilishli. Erkin birikmalarda bo'lganidek sintaktik qurilishi birikmaga teng frazemalarda ham tobe a'zo leksemashakl bilan, hokim a'zo esa leksema bilan ifodalanadi, frazema bir butun holda turg'un birikmaga teng bo'ladi. Masalan, *ko'z(i)ni och-* frazemasining leksik-grammatik tarkibi va sintaktik qurilishini quyidagicha yozib ko'rsatish mumkin:

$\{[ko'z + (S) + (N) + Kt] \times [och-]\} -$.

Bu frazemani, masalan, payt hollovchisi vazifasida ishlatish uchun unga bo'lishli shakl yasovchisi, *-gan* sifatdash shakli yasovchisi, *-lari* nisbatlovchisi, (*-dan*) keyin ko'makchisi qo'shiladi: *Bo'taboy aka k o ' z i m n i o c h g a n l a r i d a n keyin .. astoydil o'qidim* (Abdulla Qahhor).

Demak, birikmaga teng qurilishli ayrim frazemalar lisoniy birlik sifatida qismga teng bo'lib, biror sintaktik bo'lak vazifasida kela oladigan darajada grammatik shakllanganidan keyin butunga, birikmashaklga aylanadi.

2. Birikmaga teng qurilishli ayrim frazemalar lisoniy birlik sifatidayoq birikmashaklga teng bo'ladi. Masalan, *katta ko'cha* frazemasini asli "sifatlovchi X sifatlanmish" qolipida tuzilgan birikmaga teng, lekin bu frazema faqat birlik, bosh kelishik shaklida-gina ishlatiladi, bunday grammatik tabiat ushbu frazemaga lisoniy birlik sifatida mansub: *Chidasang - shu, chidamasang - katta ko'cha!*

(Oybek) kabi. Xuddi shunday tuzilishli erkin birikma esa *katta ko‘chani, katta ko‘chalarga* kabi ot birikmaga xos turli grammatik shakllarda ishlatilaveradi. *Ana–mana deguncha, kampir shaftoli yeguncha* frazemasi ham shu shaklida-gina ishlatiladi. Demak, birikmaga teng qurilishli ayrim frazemalarga bir butun holda tashqi grammatik shakllanish lisoniy birlik sifatida xos bo‘lib, shu jihati bilan bunday frazema erkin birikmadan farqlanadi.

4. Frazemalarning bir qismi sintaktik qurilishi jihatidan gapshaklga teng bo‘lib, tarkibida ega bo‘lak mavjud bo‘ladi: *bosh(i) shishdi* kabi (Bunday frazemalarning bosh shaklini yozib ko‘rsatishda *–di* zamon yasovchisini, III shaxs nisbatlovchisini tanladik). Bu frazemaning tarkibini va sintaktik bog‘lanishini quyidagicha yozib ko‘rsatish mumkin:

[*bosh* + Sb + (N) + Kb] X [*shish* + (B) + (M/3) + Ts III]

Bunday frazemaning gapshaklga teng ekanligi tarkibida ega vazifasidagi leksemashakl qatnashayotganligi va shu leksemashakldan anglashiladigan bajaruvchining shaxs-soniga monand ravishda frazemaning oxirgi a'zosiga tuslovchi qo‘shilayotganligi bilan belgilanadi. Tuslovchidan oldin bunday tuzilishli frazemaga bo‘lishli–bo‘lishsizlik, mayl, zamon shakli yasovchisi qo‘shiladi va bu grammatik ko‘rsatkichlar frazemaga obyektiv voqelikka ko‘ra nutqning o‘zida tanlab qo‘shiladi.

Ko‘rinadiki, gapshaklga teng frazemada tuslovchining mavqei bo‘lishli–bo‘lishsizlik, mayl, zamon shakli yasovchilarining mavqeidan keskin farq qiladi (Asli gapshaklga teng qurilishli erkin bog‘lanmalarda ham shunday); frazemani tuslovchining o‘zi asosida gapshaklga teng deyish to‘g‘ri bo‘lmaydi; bo‘lishli–bo‘lishsizlik, mayl, zamon shakli yasovchilari qo‘shilganidan keyingina gapshakl yuzaga keladi. Demak, sintaktik qurilishi gapshaklga teng frazema ham asli qism holatida bo‘ladi, to‘liq grammatik shakllanganidan keyingina butunga teng bo‘ladi.

4. Tarkibida ega bo‘lagi bor ayrim frazemalar lisoniy birlik sifatida to‘liq grammatik shakllangan birikmaga teng bo‘ladi. Masalan, *tomdan tarasha tushganday* frazemasini asli "o‘rin hollovchisi X ega X kesim" qolipida tuzilgan gapshaklga teng, lekin bu frazema faqat bir shaklda *-gan + day* shakl yasovchilari qo‘shilgan holda ishlatiladi. Ushbu frazema asli gapshaklga teng tuzilishli frazemaning transformasiga teng (Sintaktik transformatsiya hodisasi bayon qilingan qismga qarang).

5. Tarkibida tobe qism bo‘lib, ergash gapshakl qatnashadigan quyidagi tur frazemalar ham birikmaga teng deb qaraladi, chunki bunday frazemaning hokim qismi leksemaga teng bo‘ladi, bunday frazema sintaktik vazifada kelish uchun grammatik ko‘rsatkichlarni nutq bosqichida oladi. Masalan, yer *tagida ilon qimirlasa, bil-* frazemasiga lisoniy birlik sifatida bo‘lishli-bo‘lishsizlik, mayl, zamon, shaxs-son ko‘rsatkichlari mansub emas, bu grammatik ko‘rsatkichlar unga nutq bosqichida qo‘shiladi: *Nusrat uni: "Ye r t a g i d a i l o n q i m i r l a s a, b i l a d i", - der, undan o‘tdan qo‘rqqanday qo‘rqardi* (Said Nazar) kabi.

Bunday hodisa ko‘chirma qisimli frazemalarda ham mavjud. Masalan, *"Og‘zing qani?" - desa, qulog‘ini ko‘rsat-* frazemasini tarkibida gapshaklga teng ko‘chirma qatnashadi, lekin frazema bir butun holda birikmaga teng bo‘lib, unga bo‘lishli-bo‘lishsizlik, mayl, zamon, shaxs-son ko‘rsatkichlari nutq bosqichida qo‘shiladi: *Uning o‘zi hech baloda yo‘q, "Og‘zing qani?" - desa, qulog‘ini ko‘rsatadigan ushoqqina bir yigit edi* (Sami Abduqahhor). Bu frazemaning sifatlovchi vazifasida keltirish uchun unga *-digan* sifat-dosh yasovchisi qo‘shilgan; bu sifat-dosh yasovchisidan oldin o‘zbek tiliga xos grammatik qonuniyatga binoan bo‘lishli shakl yasovchisi, keyin *-a* ravish-dosh yasovchisi qo‘shilgan.

6. Ayrim frazemalar tarkibidagi birinchi qism birikmashaklga, ikkinchi qism gapshaklga teng bo‘ladi. Masalan, *qushbegi bilan shovla yemay(di), tirnog‘(i) kuyadi* frazemasining birinchi qismi birikmaga teng qurilishli, lekin frazema tarkibida faqat bo‘lishsiz shaklda, *-a/-y* zamon yasovchisi bilan ishlatiladi,

tuslovchi-gina bajaruvchining shaxs–soniga qarab tanlab qo‘shiladi, odatda III shaxs tuslovchisi ishlatiladi. Bu frazemaning ikkinchi qismi gapshaklga teng qurilishli, shunga ko‘ra *–di* III shaxs tuslovchisi bilan ishlatiladi, undan oldin bo‘lishli shakl, *–a/-y* zamon shakli yasovchisi qatnashadi; bu qismdagi ega bo‘lak birlik va bosh kelishik shaklida keladi, faqat nisbatlovchi tanlab qo‘shiladi, odatda III shaxs nisbatlovchisi bilan ishlatiladi va b.

Yuqoridagi tasvirlardan ayonki, frazemaning ifoda jihatiga uning tarkibidagi leksemalargina emas, balki frazemaning doimiy tarkibiy qismi sifatida qatnashadigan morfemalar ham mansub bo‘ladi, chunki bunday morfemalar, o‘rni bilan tuslovchi ham frazemaning ichki grammatik qurilishiga mansub bo‘ladi. Frazemani nutqda ishlatish munosabati bilan qo‘shiladigan morfemalargina uning ifoda jihatiga mansub bo‘lmaydi.

Allofrazemalar

Turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lish fonemaga (allofonemalar) leksemaga (alloleksemalar), morfemaga (allomorfemalar) xos ekanligi qo‘llanmaning oldingi bo‘limlarida tasvirlandi. Turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lish frazemalarda boshqa lisoniy birliklardagidan ko‘ra ko‘p (frazemalarning deyarli yarmiga xos); chunki frazema murakkab qurilishli bo‘lib, turli–tuman o‘zgarishlar uning tarkibidagi leksemalarda ham, morfemalarda ham yuz beradi.

Miyaning til xotirasi qismidagi ramzda frazema qanday allofrazemalarga ega ekanligi haqida axborat bo‘ladi, allofrazemalar ana shu axborat asosida tuzilib, nutqqa ma’lum bir grammatik shakllangan holda kiritiladi.

Allofrazema deb qaraluvchi birliklar asosida ayni bir obraz yotadi, allofrazemalardan ayni bir lug‘aviy ma’no anglashiladi; allofrazemalar tufayli frazemaga xos yaxlitlik yo‘qolmaydi, balki shu yaxlitlik saqlangan holatda voqe bo‘ladi. Allofrazemalarning ikki turi ajratiladi: leksik allofrazemalar, Grammatik allofrazemalar. Uchinchi tur - leksik allofrazema bilan grammatik

allofrazemaning birgalikda namoyon bo'lishiga teng bo'lib, leksik–grammatik allofrazema deb yuritiladi.

Leksik allofrazemalar frazema tarkibidagi leksik birlikni o'zgartirish natijasida yuzaga keladi; bunda leksik birlik almashtiriladi, qo'shiladi, tashlanadi.

1. Allofrazemalar leksik birlikni almashtirish bilan yuzaga keladi:

1) asosan leksemalar, odatda bir turkum leksemalari almashtiriladi:

a) ko'pincha ot leksemalar almashadi:

ko'ngil - yurak: ko'ngil(i) // yurag(i) g'ash tortdi;

zarar - ziyon: zarar// ziyon yetkaz-,

bet - yuz: bet(i) // yuz(i) chidamadi,

chehra - yuz: ochiq chehra // yuz bilan kabi;

b) sifat leksemalar almashadi:

chog' - xush: kayf(i) chog' //xush kabi;

d) fe'l leksemalar almashadi:

suq- - tiq- : ikki oyog'(i)ni bir etikka suq- // tiq- kabi;

e) ravish leksemalar almashadi:

avval - oldin : podadan oldin// avval chang chiqar- kabi va b.

Almashinuvchi leksemalar o'zaro sinonim yoki yaqin ma'noli bo'ladi, shunga ko'ra allofrazemalar o'zaro ma'no semasida, baho semasida farq qiladi.

2) Ba'zan alloleksemalar almashadi:

vahima – vahm : vahima // vahm bosdi,

ziyoda - ziyod : haddan ziyoda // ziyod kabi.

2. Allofrazemalar ba'zan leksik birlikni qo'shish yoki tashlash bilan yuzaga keladi. Biri ikkinchisining aksi bo'lgan bunday jarayon juda oz voqe bo'ladi. Masalan, *bir shingil - bir-ikki shingil, es(i)ni tani- - es-hush(i)ni tani-* kabi allofrazemalarda leksik birlik qo'shiladi (Sodda leksema bilan ifodalangan a'zo juft leksemaga aylantiriladi), *daryodan bir tomchi - daryodan tomchi, kalava(si)ning uchini yo'qot- - kalava(si)ni yo'qot-* kabilarda leksik birlik tashlanadi.

Grammatik allofrazemalar odatda frazemaning ichki grammatik qurilishida voqe bo'ladigan o'zgartishlar bilan yuzaga keladi. Frazemani nutqqa kiritish bilan voqe bo'ladigan grammatik o'zgarishlar, masalan fe'l frazemaning maylda, zamonda o'zgarishini aks ettiradigan o'zgarishlar allofrazemalar deyilmaydi.

Grammatik allofrazemalarda frazemaning tarkibiga mansub grammatik birliklar almashtiriladi, qo'shiladi, tashlanadi:

I. Grammatik birlikni almashtirish bilan yuzaga keladigan allofrazemalarda:

I) sinonimik almashuv voqe bo'ladi:

a) -y - -sdan : *sanamay // sanamasdan sakkiz de-*;

b) -s - -ydigan: *ko'z ilg'amas // ilg'amaydigan ;*

d) -gani - -shga: *o'tqazgani // o'tqazishga joy topolmay;*

e) -sa (ham) - -gan /da (ham) : *bosh(i)ga qilich kelsa ham //kelganda ham;*

f) -qa - bilan : *qo'yn(i)ni puch yong'oqqa // yong'oq bilan to'ldir-* kabi.

2) allomorfemalar almashadi: -day - -dek : *xamirdan qil sug'urganday // sug'urgandek* kabi ;

3) morfemaning belgili-belgisiz ishlatilishi almashadi: *xamirning uchidan patir - xamir uchidan patir* kabi ;

4) bir kelishik boshqa kelishikka almashadi: *o'z yog'(i)ga o'z(i) qovuril-* - *o'z yog'(i)da o'z(i) qovuril-* kabi ;

5) *bo'l-* yordamchisi *qil-* yordamchisiga frazemaning sintaktik qurilishi o'zgarmagan holda almashtiriladi: *jon(i)dan bezor bo'l-* - *jonidan bezor qil-*, *yer bilan yakson bo'l-* - *yer bilan yakson qil-* kabi. Bunday almashtirish natijasida o'timsiz frazema o'timli frazemaga aylanadi.

2. Allofrazemalarning grammatik qo'shish yoki tashlash bilan voqe bo'lishi ko'p emas:

1) Grammatik qo'shishda :

a) 'biroz' ma'nosini ifodalaydigan *-sh* affiksi qo'shiladi: *ko'ngl(i) bo'shadi* - *ko'ngl(i) bo'shashdi* kabi ;

b) nisbatlovchi qo'shiladi: *boshdan oyoq* - *boshidan oyoq* kabi;

d) frazemaning birikmaga teng qurilishini o'zgartirmagan holda orttirma yasovchisi qo'shiladi: *vujudga kel-* - *vujudga keltir-*, *yer tishla-* - *yer tishlat-* kabi ;

e) sintaktik qurilishini o'zgartirmagan holda sifatlovchili birikmaga teng frazemaga *ekan* affiksoidini, *-lik* substantiv shakl yasovchisini va nisbatlovchini qo'shib (tashqi transformatsiya) atributiv frazemaning substantiv allofrazemasi hosil qilinadi (*ekan* affiksoidi ko'pincha ishlatilmaydi): *qattiq qo'l-* - *qattiq qo'lligi*, *sodda dil-* - *sodda dil[ekan]lig(i)* kabi. Allofrazema tarkibidagi nisbatlovchi ushbu allofrazema bog'lanib keladigan qaratuvchi bo'lakdan (bajaruvchidan) anglashiladigan shaxs-son ma'nosiga monand holda tanlab qo'shiladi: *sodda dilligim*, *sodda dilliging* kabi.

2) Grammatik tashlashda:

a) nisbatlovchi tashlanadi: *yurag(i) betlamadi* - *yurak betlamadi* kabi;

b) orttirma yasovchisi tashlanadi: *parvoy(i)ga keltirma* – - *parvoy(i)ga kelma* – kabi.

3) Ba'zan allofrazema ayni vaqtda grammatik tashlash va almashtirish natijasida yuzaga keladi. Masalan, *ko'ngil(i)ni ovla* – frazemasida tarkibidagi nisbatlovchi tashlanishi bilan tushum kelishigi belgili holatdan belgisiz holatga almashadi:

ko'ngil ovla – kabi va b.

Allofrazemalarning o'zbek tilida keng tarqalgan alohida turi sintaktik qurilishini transformatsiyalash natijasida yuzaga keladi. Bunday transformatsiya fe'l frazemalarda ham, boshqa turkum frazemalarida ham voqe bo'ladi (Frazelogik birliklarning turkumlanishi o'z o'rnida bayon qilinadi).

I. Frazemaning sintaktik qurilishida sodir bo'ladigan transformatsiya natijasida birikmaga teng qurilish gapshaklga teng qurilishga aylanadi. Bunday transformatsiya fe'l frazemalarda yuz beradi: frazemaning o'timli fe'l leksema bilan, demak, bosh nisbatdagi fe'l leksema bilan ifodalangan a'zosiga majhul nisbat yasovchisi qo'shiladi, natijada bu a'zo tushum kelishigini boshqarish xususiyatini yo'qotadi, shuning oqibatida frazemaning ot leksemashakl bilan ifodalangan a'zosining tushum kelishigi bosh kelishikka almashadi, natijada frazema birikmaga teng holatdan gapshaklga teng holatga o'tadi; uch shaxs–sonda tuslanish yo'qolib, faqat III shaxsda ishlatiladigan bo'ladi; frazemaning bo'lishli–bo'lishsizlik, mayl, zamon shakllarida ishlatilish imkoniyati o'zicha saqlanadi: *burn(i)ni ko'tar* – - *burn(i) ko'tarildi*, *o'taka(si)ni yor* – - *o'taka(si) yorildi*, *yetti nomus(i)ni yerga buk* – - *yetti nomus(i) yerga bukildi* kabi. Bunday allofrazemalarning tarkibini va sintaktik qurilishini quyidagicha yozib ko'rsatish mumkin:

$[(\text{ot lek.} + \text{Sb} + (\text{Ns}) + \text{Kt}) \times (\text{o't-li f.l.} + \text{Na -})] -$

$(\text{ot lek.} + \text{Sb} + (\text{Ns}) + \text{Kb}) \times (\text{o't-li f.l.} + \text{Nm} + \text{B} + \text{M/3} + \text{Ts III}).$

II. Gapshaklga teng qurilishning birikmaga teng qurilishga transformatsiyalanishi bir necha ko‘rinishda amalga oshiriladi va turli natijalarga olib keladi:

1. Fe'l frazemaning o‘timsiz fe'l leksema bilan ifodalangan kesimiga orttirma yasovchisi qo‘shiladi, natijada bu fe'l leksema o‘timlilashadi, vositasiz to‘ldiruvchini boshqarish xususiyati yuzaga keladi, shunga ko‘ra frazemaning bosh kelishikdagi ot leksema bilan ifodalangan a'zosi tushum kelishigidagi leksemashaklga almashadi, frazemaning birikmaga teng allofrazemasi hosil bo‘ladi: *miya(si) achidi - miya(si)ni achit–, baho(si) oshib ketdi - baho(si)ni oshirib yubor–, bosh(lari) bir joyga qovushdi - bosh(lari)ni bir joyga qovushtir–* kabi. Bunday allofrazemalarning tarkibini va sintaktik qurilishini quyidagicha yozib ko‘rsatish mumkin:

(ot lek. + Sb + (Ns) + Kb) X (o‘-siz f.l. + B + M/3+Ts III)

[(ot lek. + Sb + (Ns) + Kt) X (o‘-siz f.l. + Ort)–]–.

Shunday transformatsiyalash bo‘lishsiz shakldagina ishlatiladigan frazemalarda ham voqe bo‘ladi: *dam(i) chiqmadi - dam(i)ni chiqarma–, yeganichgan(i) ich(i)ga tushmadi - yegan-ichgan(i)ni ich(i)ga tushirma–* kabi.

Quyidagi frazemada majhul nisbat yasovchisi qo‘shilib o‘timsizlashgan fe'l a'zoga orttirma yasovchisi qo‘shilib o‘timlilashgan va yuqoridagicha transformatsiya amalga oshirilgan: *lab–lunj(i) osildi – lab–lunj(i)ni osiltir–*. Mana bu frazemalarda fe'l a'zo tarkibidagi 'biroz' ma'nosini ifodalaydigan –sh affiksi tashlangan, shundan keyin orttirma yasovchisi qo‘shilgan: *chehra(si) yorishdi - chehra(si)ni yorit–, ko‘ngl(i) yorishdi - ko‘ngl(i)ni yorit–* kabi.

2. Fe'l frazema tarkibidagi *bo‘l–* yordamchisi *qil–* yordamchisiga almashtiriladi, o‘timsiz fe'l yordamchi o‘timli fe'l yordamchiga almashtirilishi bilan gapshaklga teng qurilish birikmaga teng qurilishga aylanadi; frazemaning bosh kelishikdagi ega a'zosi tushum kelishigidagi vositasiz to‘ldiruvchiga aylanadi; bo‘lishli–bo‘lishsizlik, mayl, zamon, shaxs–son ko‘rsatkichlari fe'l a'zo tarkibidan

(umuman, frazema tarkibidan) chiqariladi: *yurag(i) qon bo'ldi – yuragini qon qil–, baxt(i) qora bo'ldi – baxt(i)ni qora qil–, og'ir(i) yengil bo'ldi – og'irini yengil qil–* kabi.

Oxirgi allofrazemalarning tarkibini va sintaktik qurilishini quyidagicha yozib ko'rsatish mumkin:

(ot l. + Sb + (Ns) + Kb) X (sif.l. + *bo'l* + B + M/3 + Ts III)

[(ot l. + Sb + (Ns) + Kt) X (sif.l. + *qil–*)]–.

3. Sintaktik qurilishi birikmaga teng fe'l frazemaning fe'l leksema bilan ifodalangan a'zosi va tushum kelishigidagi ot leksemashakl bilan ifodalangan a'zosi o'rin almashtiriladi; bunda kesim a'zo tarkibidagi mayl, zamon, shaxs–son ko'rsatkichlari, ega a'zo tarkibidagi kelishik ko'rsatkichi tashlanadi; ayni vaqtda fe'l a'zoga *–gan* sifatlash yasovchisi, ot a'zoga nisbatlovchi qo'shiladi, vositasiz to'ldiruvchili birikma sifatlovchili birikmaga aylanadi; hosil bo'lgan allofrazema ot birikmaga teng bo'lib, kelishik ko'rsatkichi nutqda sintaktik vazifaga binoan tanlab qo'shiladi: *javob ber– - bergan javob(i)–, va'da ber– - bergan va'da(si)–* kabi. Bunday allofrazemalarning tarkibini va sintaktik qurilishini quyidagicha yozib ko'rsatish mumkin:

[(ot l. + S + [Kt]) X (o'tim. f.l.–)]–

[(o't-li f.l. + Bli + gan) X (ot l. + S + (Ns))–]]–

Mana bu misolda vositasiz to'ldiruvchili birikmaga teng qurilish avval gapshaklga teng qurilishga, keyin bu qurilish sifatlovchili birikmaga teng qurilishga aylantirilgan: *ko'z(i)ni och– - ko'z(i) ochildi - [ochilgan ko'z(i)]–*.

4. Sintaktik qurilishi gapshaklga teng ism frazemaning sifat leksemashakl bilan ifodalangan kesim a'zosi va bosh kelishikdagi ot leksemashakl bilan ifodalangan ega a'zosi o'rin almashtiriladi; kesim a'zo sifatlovchiga, ega a'zo sifatlanmishga aylanadi; bunda kesim a'zo tarkibidagi bo'lishli–bo'lishsizlik, zamon, shaxs–son ko'rsatkichlari, ega a'zo tarkibidagi nisbatlovchi va kelishik ko'rsatkichi

tashlanadi: *qo'l(i) ochiq - ochiq qo'l-*, *pehana(si) sho'r - sho'r pehana-*, *bag'ri tosh - tosh bag'ir-* kabi. Bunday allofrazemalarning tarkibini va sintaktik qurilishini quyidagicha yozib ko'rsatish mumkin:

(ot l. + Sb + (Ns) + Kb) X (sifat l. + Bli + 3 + Ts III) -

[(sif. l. + 'sifatlovchi' semasi) X (ot l.-)]-

Bunday usul bilan hosil qilingan allofrazema *-li* affiksi yoki *bilan* ko'makchisi qo'shilgan holda ishlatiladi: *chehrasi ochiq - ochiq chehra bilan* kabi.

5. Sintaktik qurilishi gapshaklga teng bo'lib, kesimi sifat, ravish, kesimlik leksemashakli bilan ifodalangan frazema oxiridagi bo'lishli-bo'lishsizlik, zamon, shaxs-son ko'rsatkichlari tashlanadi va shunday asosga *-lik* substantive shakl yasovchisi, III shaxs nisbatlovchisi qo'shiladi; kelishik shakli qanday sintaktik bo'lak vazifasida kelishiga qarab nutq bosqichida qo'shiladi: *qo'l(i) kalta// qisqa - qo'l(i) kaltaligi- // qisqaligi-*, *jahl(i) tez - jahl(i) tezligi-*, *qo'l(i) bor - qo'l(i) borligi-* kabi. Bunday transformatsiyalash natijasida asli ega bo'lakning bosh kelishik shakli belgisiz qaratqich kelishigi shakliga almashadi, gapshaklga teng qurilish qaratuvchili birikmaga aylanadi;

(ot l. + Sb + (Ns) + Kb) X (sifat l. + B + 3 + Ts III) -

[(ot l. + Sb + (Ns) + Kq:b-siz) X (sifat l. + lik + Ns III)]-

6. Fe'l frazemalarda to'ldiruvchili birikmaga teng qurilishni avval gapshaklga teng qurilishga, keyin bu qurilishni qaratuvchili birikmaga teng qurilishga aylantirish ham mavjud: *uy(i)ni buz- - uy(i) buzildi - uy(i)ning buzilgani-* kabi. Gapshaklga teng qurilishni qaratuvchili birikmaga transformatsiya qilishda ega bo'lakning bosh kelishik shakli qaratqich kelishigiga, kesim bo'lak tarkibidagi zamon yasovchisi fe'lning sifat-dosh yoki otdosh shakliga, tuslovchi nisbatlovchiga almashtiriladi. Bunday allofrazemalarning tarkibini va sintaktik qurilishini quyidagicha yozib ko'rsatish mumkin:

[(ot l. + Sb + (Ns) + Kt) X (o't-li f.l.)] - -

(ot l. + Sb + (Ns) + Kb) X (o't-li f.l. + Nm + B + M/Z + Ts III) - -

[(ot l. + Sb + (Ns) + Kq) X (o't-li f.l. + Nm + B + gan/sh + Ns III)]-.²³

I.B.Arnold iboralarini strukturasiga binoan ya'ni qaysi so'z turkumi sifatida qo'llanilishiga ko'ra klassifikatsiya qilgan tilshunoslardan hisoblanadi. U iboralarini bu jihatdan quyidagicha turlarga bo'lib ko'rsatgan²⁴:

1. Ot sifatida qo'llaniluvchi iboralar:

N + N,: *maiden name* – qizlik familiya

N's + N.: *dog's life*-og'ir hayot tarzi;

Ns' + N: *ladies' man* – xushomadgo'y kishi

N+prp+N: *the chapter of accidents*– kutilmagan omadsiz holatlar;

N + A: *knight errant* –sayyor ritsar

N + and + N: *lord and master* –turmush o'rtoq

A + N: *green room* – foye

N + subordinate clause: *ships that pass in the night* –o'tkinchi uchrashuvlar

2. Fe'l sifatida qo'llaniluvchi iboralar:

V + N.: *take advantage* -foydalanmoq

V + and + V:*pick and choose* –sinchiklab tanlash;

V + one's + N + prp:*snap one's fingers at* – tupurmoq;

V + one + N: *give one the bird* – haydamoq, bo'shatmoq.

²³ Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent "Universitet" 2006 (431-434)

²⁴ Арнольд И. В. Лексикология современного английского языка. – М.: Издательство литературы на иностранных языках, 1959. – 351 с.

V + subordinate clause: *see how the land lies –holatni oydinlashtirish*

3. Sifat kabi qo'llaniluvchi iboralar:

A+and+A,: *high and mighty – kalamdimog'*

as+A+as+N.: *as old as the hills –ming yillik tarixga ega*

4. Ravish sifatida qo'llaniluvchi iboralar:

N+N: *tooth and nail –tish tirnog'i bilan*

prp+N: *by heart - yoddan*

adv+prp+N: *once in a blue moon –yuz yilda bir*

cj+clause: *before one can say Jack Robinson – ko'z ochib yumguncha;*

5. Predlog sifatida qo'llaniluvchi iboralar:

prp+N+prp,: *in consequence of –sababli, tufaayli*

6. Undov so'z sifatida qo'llaniluvchi iboralar: *God bless you! - Olloh panohida saqlasin!*

2.2. Turli tizimdagi tillarda idiomalarning semantik-stilistik o'xshash va farqli jihatlari tadqiqi

Lisoniy birlik sifatida frazemalarga ham xuddi leksemalarda bo'lganidek nomlash vazifasi va ma'lum bir ma'noni bildirish vazifasi xos. Faqat frazeologik birliklarning ayrim turlarida nomlash vazifasi yo'q (Bular "Frazemalarning turkumlanishi" bahsida tasvirlanadi). Frazemada ikki va undan ortiq leksema o'z leksik ma'no mustaqilligini yo'qotgan holda bir umumiy ma'no markaziga bo'ysunadi, frazemadan yaxlitligicha anglashiladigan ma'noni gavdalanitirish uchun xizmat qiladi. Frazemadan anglashiladigan ma'no uning tarkibidagi leksemalardan anglashiladigan ma'nolarning oddiy (arifmetik) yig'indisi bo'lmay, umumlashma, ustama ma'no, ayni vaqtda ko'chma ma'no sifatida gavdalanadi. Masalan, *jon(i)ni jabborga ber*– frazemasida 'bor kuchini safarbar qilgani holda faoliyat ko'rsat-' ma'nosini anglatadi; bu ma'no – *jon*–, *jabbor*–, *ber*–

leksemalari anglatadigan ma'nolarning oddiy yig'indisi emas, balki ma'lum obrazga asoslanadigan umumlashma ko'chma ma'no. Leksemada bo'lganidek, frazemaning mazmun jihatida ham ikki hodisa ajratiladi:

1) lug'aviy ma'no, aniqrog'i - frazeologik ma'no, 2) baho semasi.

Frazemaning voqelikka nisbat beriladigan lug'aviy mazmuni (nimanidir anglatishi, ifodalashi) frazeologik ma'no deyiladi.

Masalan, *tuyaning kallasiday* frazemasi 'hajmi odatdagidan ancha katta, yirik' ma'nosini, *yurak-bag'r(i) qon bo'lib ketdi* frazemasi 'diltang bo'l-, ziq bo'l-' ma'nosini anglatadi: *Qovunga qarang. Har biri t u y a n i n g k a l l a s i d a y. Juda saralangan* (Oy-bek). *Y u r a k - b a g ' r i m q o n b o ' l i b k e t d i, .. ertadan beri yolg'iz o'tiribman* (Oybek).

Frazeologik ma'no tarkibini semik tahlil qilish bilan ham ideografik semalar ajratiladi. Masalan, *ta'b(i) xira* frazemasi sifatlarning ruhiy holat bildiruvchi leksik-semantik guruhiga mansub. Bu guruh sifatlarning lug'aviy ma'nosi tarkibida 'kayfiyat', his-hayajonning ijobiy-salbiyligi', 'his-hayajonning kuchli-kuchsizligi kabi ideografik semalar ajratiladi. Ana shu semalar asosida yuqoridagi frazemaning ma'nosini 'kayfiyati biroz yomon holatda' deb ta'riflash mumkin.

Frazema mazmun jihatining voqelikka munosabat bildirish belgisiga baho semasi deyiladi. Baho semasining leksemalardagi va frazemalardagi mavqei farqli. Baho semasi leksemalarning ko'pida betaraf bo'ladi, yaqqol ifodalanib turmaydi; ba'zan esa baho semasi leksemani turlicha ma'no munosabatiga kiritish, turlicha qo'llash bilan hosil qilinadi. Frazemalarning ko'pida esa baho semasi uning mazmun jihatida doimiy tarkibiy qism bo'lib qatnashadi, ba'zan frazemaning lug'aviy ma'nosini butunlay qamrab oladi. Frazemalar odatda voqelikni nomlabgina qolmay, uni baholaydi ham. Frazemalarning tilda yashashini oqlab turadigan asosiy sabablardan biri - shu. Masalan, quyidagi matnlarda ishlatilgan frazemalar ma'lum voqelikni nomlaydi (*yer-u ko'kka ishon-*

ma- - 'o'ta darajada ardoqla-'; *bosh(i)ga ko'tar-* II - 'yuksak darajada izzat-hurmat qil-'; *mukka(si)dan ket-* - 'o'zini tiya olmaslik darajasida berilib ket-'); shu bilan bir vaqtda bu voqelikka munosabatni ham ifodalaydi (Avvalgi ikki frazemada ijobiy munosabat, keying frazemada esa salbiy munosabat ifodalanadi): *I b r o h i m. Xursandmisan, xafa qilayotgani yo'qmi? G u l s a r a. Yo'q! Yer-u ko'kka ishonmaydi, boshiga ko'taradi* (Yashin). *Otang — xurofatga mukkasidan ketgan odam* (Yashin). Frazemalar nutqda asosan lisoniy ma'nosi bilan ishlatiladi. Shuning bilan birga frazemani yangicha lug'aviy mazmun bilan ishlatish ham uchraydi. Masalan, *chakag(i) ochildi* frazemasida odatda 'ko'p ma'ra - (hayvonga nisbatan), 'uzluksiz jovra-' (kishiga nisbatan) ma'nolarini anglatadi. Oybek bu frazemani juda ustalik bilan yangi bir hodisa - pulemyotning o'q uzishiga ko'chirgan. Bunday yangicha qo'llash muvaffaqiyatli chiqqan, yozuvchi 'uzluksiz o'q uz-' kabi yangicha ma'noni ifodalashga erishgan: *Pulemyotning chakagi ochilib ketdi*. Frazemani yangicha nutqiy qo'llash hamma vaqt ijobiy chiqavermaydi.

Masalan, quyidagi nutqiy qo'llash durust chiqqan, lekin kichik bir nuqson ham bor: *Sevgining naqadar pok, naqadar muqaddasligini y e t t i u x l a b, t u s h i d a k o'r m a- g a n va uni muruvvatsiz qo'lda so'lgan chechak kabi xoksor qilgan ishq jalloblari-ning noziga quloq solgan xudo to'tiqushning bolalaridek bir-biriga zor, intizor bo'lib, bir-biriga yetisholmay xor-zor bo'lib yurgan miskinlar ohiga nechuk quloq solmas ekan?* (Mirzakalon Ismoilij).

Bu matnda ishlatilgan *yetti uxlab, tush(i)da ko'rma-* frazemasida 'hech qachon ko'rma-' ma'nosini anglatadi va ko'rish mumkin bo'lgan narsalarga nisbatan ishlatiladi. Yozuvchi bu frazemani yangicha matnda, yangicha qurshovda (*sevgining pokligi, muqaddasligi* birikmashakliga bog'lab) ishlatgan. Natijada bu frazema tamoman yangi ma'noni - 'bilma-' ma'nosini anglatish uchun xizmat qildirilgan. Bu bilan frazema-ning lug'aviy ma'nosi to'g'ri taraqqiy ettirilgan. Lekin bu frazema mavhum belgi otlarini bevosita boshqarib kelishi

o‘rinli chiqmagan. Agar bu frazema to‘g‘ridan to‘g‘ri *sevgini* leksemashaklini quyidagicha boshqarib kelsa edi, muallif bu nuqsondan qutular edi:

Pok, muqaddas sevgini yetti uxlab, tushida ko‘rmagan.

Badiiy nutqda frazemani noo‘rin, noto‘g‘ri ishlatish hollari ham uchraydi. Bunday hol tilni bilmaslik, til qonuniyatlari bilan hisoblashmaslik oqibatida yuz beradi. Masalan, quyidagi matnda frazema noo‘rin ishlatilgan: *K o ‘ r i n m a y d i k o ‘ z i m- g a T o r q a f a s d a t u r g a n i m. E s g a t u s h a r b o g ‘ c h a d a e r k i n s a y r a b y u r g a n i m* (Adham Rahmat). Bu matnda ishlatilgan *ko‘z(i)ga ko‘rinma*– II frazemasini 'tatima–'ma'nosini anglatib, qadrlil, yoqimli kishi yoki narsaga qarata aytiladi; she'rdagi "tor qafas"ni bunday narsa deb bo‘lmaydi.²⁵

Tilning frazeologik sathi insoniyatning necha yillik bilim tajriba va madaniyati asosida rivojlanib, boyib boradi. Frazeologik birliklar til egasi bo‘lgan xalqning ma'naviyati, madaniyati, urf–odatlaril, kasbi, yashash sharoiti, intilishlaril, voqelikka munosabati bilan uzviy ravishda bog‘liqdir. Ma'lumki, inson dunyoni nafaqat ob'yektiv tasvirlashga balki, borliqdagi predmetlarilni xususiyatlarilni anglash, ularilni baholashga ham intiladi. Frazeologik iboralarda esa ob'yektiv bilimlar va insonning ularga nisbattan sub'yektiv munosabatlari aks etgan bo'ladi, ya'ni frazeologik iboralarda so'zlovchining nutq holatiga nisbattan shaxsiy bahosi aks etgan bo'lishi mumkin.

Yuqorida keltirilganidek, frazeologik iboralar turlicha klassifikatsiya qilinib, bu ularning ma'nosi, ma'lum bir kontekstda qanday qo'llanilishi, qaysi gap bo'lagilni ifodalab kelishi hamda ko'plab qator omillar bilan bevosita aloqador. Frazeologik iboralarilni funksional-stilistik jihatdan turkumlarga bo'lganda, ular eng avvalo ikki yirik guruhlariga ajratiladi:²⁶

²⁵ Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent "Universitet" 2006 (431-434)

²⁵ Арнольд И. В. Лексикология современного английского языка. – М.: Издательство литературы на иностранных языках, 1959. – 351 с.

²⁶ Телия В.Н. О типах и способах фразеобразования (в его коммуникативно-функциональном аспекте описания) // Проблемы русского фразеобразования. – Тула, 1973. – С. 25-32

1. Neytral frazeologizmlar;
2. Adabiy frazeologizmlar;

Neytral frazeologik iboralarga iste'moli cheklanmagan, ko'pchilik tomonidan qo'llaniladigan hamda tushunarli bo'lgan, hech qanday qo'shimcha emotsional- stilistik bo'yoqqa ega bo'lmagan frazemalar kiritiladi [51;38]²⁷. Bunday birliklar og'zaki nutqda ham yozma nutqda ham bimalol qo'llanila oladi. Masalan: take care of- g'amxo'rlik qilish; look through-ko'zdan kechirmoq; day by day-kundan kunga;

Adabiy frazeologik iboralar yuqori darajadagi kitobiyliigi, badiiy stilga xoslanganligi, bilan xarakterlanadi, hamda ularga poetik frazeologizmlar, istorizmlar, arxaizmlar, antik davr adabiyotidan kirib kelgan frazeologik iboralar, boshqa tillardan o'zlashgan frazemalar, biblizmlar, adabiyot va san'atga oid iboralar kiritiladi.

Poetik-adabiy frazeologik iboralar nazmga yuqori ruh bag'ishlaydi va emotsional ta'sirni oshiradi: the silken band-do'stlik va sevgi rishtasi; under the sad-qabr holati; to bring to mould-yer bilan yakson qilmoq; under the rose-sirli ravishda, tun qorong'usida;

Arxaik frazeologik iboralar hozirda mavjud bo'lmagan tushunchalarni ifodalab kelgan birliklar bo'lib, ba'zan badiiy asarlarda makon va zamonni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu turga ba'zi shekspirizmlar ham kiritilishi mumkin.

Masalan: lady of the manor house-feodal qasr bekasi; to shuffle off-hayotdan ko'z yummoq; germane to the matter-maqсадga yaqin;

Adabiy frazeologik iboralarga qadimgi grek yoki qadimgi lotin tili adabiyotidan kirib kelgan namunalar ham kiritiladi: the Islands of the Blessed – devonalar oroli, the Age of Reason –ratsionalizm asri, the cask of Danaides –

²⁷ Телия В.Н. О типах и способах фразеобразования (в его коммуникативно-функциональном аспекте описания) // Проблемы русского фразеобразования. – Тула, 1973. – С. 38

Daneyd bochkasi, tubsiz bochka. Bu turkunga sud, parlament, armiya bilan bog‘liq frazeologik iboralarni ham kiritamiz: the Newgate Calendar –Nyugeyt qamoqxonasi ma’lumotlar bo‘limi; to accept the Chiltern Hundreds – o‘zini ahamiyatli parlament a’zosi deb hisoblamoq;

Istorizm frazeologik iboralarga tarixiy- shaxslar nomlari, turli tarixiy qonunlar, geografik joy nomlari bilan bog‘liq birliklar kiritiladi²⁸: Bill of Rights – Bill qonunlari, a Florence nighting ale – tirishqoq hamshira va boshqalar;

Ingliz frazeologiyasida terminologik frazeologik iboralar ham salmoqli hissani tashkil qiladi va ularga Buyuk Britaniya davlat boshqaruvi, uning mintaqaviy bo‘linishi va boshqa davlat ahamiyatiga molik voqea-hodisalarni ifodalovchi terminologik birliklar kiritiladi: members above the gang way- sobiq vazirlar va parlamentning oddiy a’zolari; Lords temporal- oqsuyak janoblar;

Umumxalq tilning ma’lum bir ko‘rinishi sifatida ko‘zga tashlanuvchi va nutqiy aloqaning ma’lum turi sifatida qo‘llaniluvchi til vositalarining majmui til uslubi hisoblanadi. U tarixan shakllangan hisoblanadi. Ma’lumki tilda nutqiy aloqaning u yoki bu turiga qarab til materialini tanlash va qo‘llash tajribasi mavjud. Masalan, oilaviy suhbatda, rasmiy bayonotda, ilmiy maqolada, gazeta xabarlarida umumxalq tili asoslari turlicha tanlanadi va ishlatiladi. Natijada ular o‘zining uslubiy maqsadi va bo‘yog‘i ekspressiya va ma’no nozikliklari bilan bir-biridan farqlanadi²⁹.

So‘zlashuv uslubi maxsus tayyorgarlik ko‘rilmay shakllangan uslub sistemasidir. So‘zlashuv jarayonida suhbatdoshlar bir-birining savoliga javob berganda tayyorgarlik ko‘rmay vaziyatga qarab fikr yuritadi, bunda suhbatdoshlar aktivligi va operativligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Aktivlik va operativlik

²⁸ Телия В.Н. О типах и способах фразеобразования (в его коммуникативно-функциональном аспекте описания) // Проблемы русского фразеобразования. – Тула, 1973. – С. 43

²⁹ Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. (Адабий норманинг шаклланиш ва яшаш қонуниятлари). III қисм. Тошкент, 1999.-140 б.

natijasida til vositalarini iqtisod qilishga intiladilar va natijada so‘zlashuv frazeologik iboralari vujudga keladi.

So‘zlashuv uslubi sub’yektiv xarakterdagi uslubdir, kishi ob’yektiv borliqni turlicha baholaydi, natijada uning sub’yektiv fikrlari shakllanadi. Kishi shoshilinch tarzda tezlik bilan biror voqea-hodisa haqida xabar bermoqchi bo‘lsa, o‘z nutqini sub’yektiv qobiqqa o‘raydi. Natijada sub’yektiv fikrni ifodalovchi uslub shakllanadi³⁰.

So‘zlashuv nutqida modal-imperativ formalar ko‘p ishlatiladi. Kundalik aloqada bevosita suhbatdoshning fikriga ta’sir o‘tkazish uchun imperativ ekspressiyadan foydalaniladi. Shu sababli modal xarakterga ega imperativ frazeologik iboralar ko‘p uchraydi. Masalan:

Man alive! (Tezroq, jonliroq harakat qilinglar!), Marry come up!(Buni qarang-a!)

Shunisi xarakterliki, so‘zlashuv nutqida informativlikdan ko‘ra kommunikativlik kuchli bo‘ladi.

Frazeologiyaning tarkibiy qismida so‘zlashuv frazeologik iboralari eng ko‘p tarqalgan uslubiy tip bo‘lib, bunday frazeologik iboralar til frazeologik fondining yarmidan ko‘prog‘ini tashkil qiladi. Ular xalq og‘zaki ijodida, kundalik muloqotda keng qo‘llanilib, umuman uy-rozg‘or buyumlari, kiyim-kechak nomlari, oziq –ovqat nomlari, pul birliklari, kundalik ish-harakatlarni, shuningdek insonning emotsional- ruhiy holatlarini ifodalab keladi. So‘zlashuv frazeologizmlari oddiyligi, maishiy xarakterga egaligi, ba’zan satirik yoki hajviy uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lishi va yuqori darajadagi emotsionalligi bilan kitobiy frazeologizmlardan ajralib turadi³¹.

³⁰Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. (Адабий норманинг шаклланиши ва яшаш қонуниятлари). III қисм. Тошкент, 1999.-140 б.

³¹ Fedulenkova T. Communicational approach to stylistic differentiation of English idioms // Лингводидактика и филология: Материалы международной науч.-практ. конф. – Архангельск: Поморский гос. ун-т, 2000. – С. 84-85

Frazeologik iboralarning xarakterli jihati, komponentlarining ko'chma ma'noga asoslanishi, hamda ko'pincha ma'lum bir emotsional-uslubiy bo'yoqqa ega bo'lishidir. Shuning uchun ham frazeologik iboralarni o'rganishda ularni semantik klassifikatsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, frazeologik iboralarnig semantik strukturasi ko'p tarmoqli hodisa bo'lib, agar frazeologik iboralar komponentlarini semantik jihatdan o'zaro bog'liq holda tadqiq etadigan bo'lsak, frazeologizmlarda denotativ ma'no ham, konotativ ma'no ham mavjud bo'lishining guvohi bo'lamiz. Faqat so'zlardan farqli ravishda, frazeologik iboralarda konotativ ma'no muhim ahamiyat kasb etadi. Bizga ma'lumki, konotativlikning asosiy belgilariga baholash, emotsionallik, hamda ta'sirchanlik kabilar kiritiladi. Shuning uchun, yuqoridagi xususiyatlarning barchasi frazeologik iboralarning ham asosiy belgisi hisoblanadi.

Frazeologik birliklar so'zlashuv nutqning salmoqli qismini tashkil qilar ekan ularni semantik jihatdan klassifikatsiya qilish ya'ni turkumlarga ajratib o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki nutq momentida frazeologik iboralardan mohirona foydalanish, nutq madaniyatini oshirib, insonning intellektual qobiliyatini belgilab berishga xizmat qiladi. Bundan tashqari so'zlashuv frazeologizmlarini teran anglash, millat tarixi, urf-odatlarini chuqurroq anglashga, ma'lum bir millat madaniyati bilan yaqindan tanishishga imkon yaratadi³².

Frazeologik birliklarni jonli nutqda qo'llashda ularning semantik xususiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki frazeologik iboralar murakkab xususiyatli birliklar bo'lib, ularning semantikasi ko'p parametrlar bilan bevosita bog'liq.

Ko'p tilshunoslar (Arxangelskiy, Kravsov, Kunin) frazeologik iboralarning ikki jihatini farqlaydilar: ifoda materiali hamda mazmun mohiyati.

³² Егорова Т.И. Фразеологизмы со значением качественной оценки действий и манеры поведения человека // Вестник Омского университета. – Омск, 1998. - № 2.-С. 15-19.

Frazeologik iboralarning mazmun mohiyati deganda ularning signifikativ, denotativ va konotativ komponentlari tushuniladi³³.

Frazeologik iboralarning signifikativ komponenti deganda, frazeologik iboralar ifodalab kelayotgan harakat yoki holatning til bilan bog'liq bo'lmagan holatlarda aks ettirilishi tushunilsa, denotativ komponenti ularning atash ma'nosi, konotativ aspekti bo'lsa frazeologik iboralarda aks ettirilgan stilistik, ekspressiv, emotsional bo'yoqdorligi hisoblanadi.

So'zlashuv frazeologizmlarini semantik jihatdan quyidagicha turkumlarga ajratish mumkin:

1. Inson faoliyatining atrofdagi ish harakat bilan aloqadorligini, bog'liqlikni ifodalab keluvchi frazeologik iboralar: get it in the neck- ta'zirini yemoq; a fine day for the ducks-yomg'irli kun; of one's own hat, on one's own hook-o'zicha, o'zbilarmonlik bilan; on the nose- aynan, xuddi o'zi; be above oneself-dimog'i osmonda; be all one to smb-baribir, farqi yo'q; set one's bag for smth-ko'z olaytirmoq; fish or cut bait-bir qarorga kelmoq; have the ball at one's feet-vaziyatni qo'lga olmoq; give smb down the banks-burnini yerga ishqalamoq, qattiq tanbeh bermoq; like a bat out of hell-ko'z ochib yumguncha; beat it-quyonni rasmini chizmoq; get off one's bike- jahli chiqmoq; foot the bill-qilmishi uchun javob bermoq; hit the books-boshi bilan o'qishga sho'ng'imoq; be in smb's boot- biron kimning o'rnida bo'lmoq; fix smb's clock- kimnidir adabini bermoq, yo'ldan olib tashlamoq;

Masalan: For a week in Boston? Ten bucks? On the nose! (J.O'Hara Assembly., First Day In Town, p. 34)

You tell him if he's thinking of laying for me after, you'll fix his clockgood. (S. Bellow "The adventure of Augie March" ch.XII, p. 185)

2. So'zlashuv madaniyatini ko'rsatuvchi frazeologik iboralar: spill the beans-o'tlab ketish ko'p gapirish ma'nosida; talk turkey-yuzingda ko'zing bormi demay

³³ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс+, 2005. – 466с.

gapirish, betgachoparlik; talk big-katta gapirmoq; hot air-safsata, bo'mag'ur gap; talk through the back of one's neck-safsata sotmoq, valdiramoq; a bag of wind-ezma vaysaqi, mahmadona; empty the bag- ochiqchasiga aytmoq, oshkor qilmoq; valdiramoq; speak like a book-balanparvoz nutq so'zlamog; chew the fat- ming'ir ming'ir qilmoq, javramoq, g'iybat qilmoq; shut up like a clam-og'ziga talqon solganday; cut the cackle-valdirashni to'xtatmoq kabi so 'zlashuv frazeologizmlari insonning so'zlashuv madaniyati bilan bevosita bog'liq. Bunday birliklar ko'pincha salbiy uslubiy ottenkaga ega bo'ladi.

Masalan: Rudi talked big... but I always took it with a grain of salt. (A.Christie, "A Murder is announced, ch. IV", p. 89)

If he frightened him too much, Patzer might shut like a clam. (S. Heym, "Hostages", ch. 6, p.289)

3. Insonning aqliy faoliyatini belgilab beruvchi frazeologik iboralar. Bunday birliklar ko'pincha salbiy uslubiy bo'yoqqa ega bo'ladi: go bananas-aqldan ozmoq; to be out of one's box; go out of one's mind-esini yegan; to be soft in the head-miyyasi aynigan; addle brained, addle headed- miyasiz, to'nka; as balmy as bandycoot- tentaksimom, miyasi biroz aynigan; be of the beam-tentaksimon; crazy as bed-bug-ahmoq, esi o'zida emas; crazy as a coot- tentak;

Masalan: You're mad! You have gone out of your mind. I won't listen to you.(A.J.Cronin, "The steers look down", ch.XXI, p. 548.)

You ought to be shout up, Larry. You 're as crazy as a loon.Not at all I'm very sensible and very practical. (W.S.Maugham,"The razor's edge", ch. VI p.86)

4. Giyohvandlik moddalari va uni qabul qilish protssesi bilan bog'liq frazeologik iboralar: cold turkey-narkotik qabul qilish istagida jazvaga tushmoq, crack head, druggie-giyohvand; be of smb's head-kayfi taroq; bad egg-iflos, past odam; knockout drops-giyohvandlik moddalari; a coffin nail-sigareta;

Masalan: He was...What we call a grouch face, a drizzle-puss, a wet blanket, a cold turkey. (E.S. Gardener "Some women won't wait", ch. XVIII, p.596)

5. Spirtli ichimliklar bilan bog'liq ravishda insonni ta'riflab beruvchi frazeologik iboralar: Water of life-obi zamzam; To be out off one's tree-hushi o'zida emas, spirtli ichimlik ta'sirida; drunk as a lord; as drunk as Davy's sow-o'zini bilmas darajada mast; be on a bender- mast bo'lmoq; get a bit on-shirkayf bo'lmoq; push the boat out- yuvmoq, ichib nishonlamoq; bee fond of the bottle, belt the bottle-ichuvchi; black bottle- zahri qotil, crack a bottle-ichishmoq, birga ichmoq; cold without-suv aralashtirilgan spirtli ichimlik; cool one's coppers- boshog'rig'i uchun yana ozgina ichmoq;

Masalan: ...and presently he'll be rollin' in as drunk as Davy's sow. (R.Greenwood, "The true history of a Little Rugamufin", ch.VII p. 108)

6. Pul birliklari va u bilan bog'liq holatlarni ifodalovchi so'zlashuv frazeologik iboralar: pin money-cho'ntak puli, folding money- katta pul summasi; money for jam-osongina topiladigan daromad; throw good money after bad-pulni havoga sovurish; on the beach, not a bean -sariq chaqasiz qolmoq; go to the cleaners- bir tiyinsiz qolmoq; cash the nail-naqd pul ;

Masalan: Burden was against any aid to the British. For one thing they're bankrupt. Even Lord Lothian admits it. And if that's true, we're just throwing good money- after bad..."(G.Vidal, "Washington", D.C., part III, ch.I, p.312)

He sold... it every year for cash on the nail (M. Twain "Life on the Mississippi" ch. XXII, p. 242)

7. Emotsionallikni ifodalovchi frazeologizmlar, asosan undov so'zlar: Great Caesar!-Voy xudoyim!; Dear heart!-qanday ajoyib-a! Go along with you!- Bo'ldi! Yetar! bas! Away with you!-Yo'qol, Daf bo'l! Chin up!- Bo'sh kelma! Come off it-Bo'ldi! Yetar! My conscience!-Buni qarang-a!

Masalan: “Go along with you!” said Mrs Gamp. I blush for you.(CH Dickens, ”Martin Chuzzlewit”, ch. XLIX, p.687)

8. Insonni turli kasbiy holatlari bilan aloqador frazeologik iboralar: to be good for nothing –takasaltang; get crackling-immilamoq; to trifle away the time-vaqtni bekorga sarflamoq; a pretty go-ajoyib ish, qiziq holat; fish in the air-foydasiz, bekorchi ishlar bilan band bo’lmoq; be all out, be all over oneself-har qanaqasiga harakat qilmoq; bring home bacon-ishi o’ngidan kelmoq; get the first base-ilk muvoffaqiyatga erishish; beat hollow-butunlay muvoffaqiyat qozonmoq, soyasida qoldirmoq; do one’s bit- o’z ishi bilan shug’ullanmoq; no a bit- umuman , hech ham; lay the blast- qattiq tanqid qilmoq; shut the book- faoliyatini tugatmoq; come down to cases-asosiy maqsadga ko’chmoq;

Masalan: It’s a pretty go when one comes home and finds a thief has carried away all one’s valuables during one’s absence! (R.L. Stevenson, Treasure Island”, ch VII, p.302)

9. Insonning boshqa ish harakatlari bilan aloqador frazeologik iboralar: go west- u dunyoga ravona bo’lmoq; the name of a game- asosiysi, eng muhimi; stick one’s neck out-tavakkal qilmoq; hate smb’s guts-biron kishini o’lgudek yomon ko’rmoq; be up in the air-portlamoq, g’azablanmoq; arty and crafty-jimjimador, serhasham; bag and baggage-hamma lash-lushlari bilan,butunlay; have a ball-xursandchilik qilmoq; from the bottom of one’s heart-chin dildan; take smth on the chin-umidsizlikka tushmaslik; be on the cloud- yettinchi osmonda uchmoq;

Masalan: They hate my guts. They’d like to kill me, and now they’re doing it. (J.Updike, “The Centaur”, ch. II, p. 59)

We’ve got to take this on the chin. Sit,down, Harris and tell me about it.(E. S. Gardener “ The case of the sleep Walker’s Niece”, ch XIII, p.404)

10. Inson xulq atvorini ko’rsatuvchi frazeologik iboralar: ball of fire-olov, chaqqon; rough as bags-dag’al qo’pol; smart Aleck-surbet, beor, maqtanchoq; with a bang- juda omadli; with the bark on-qo’pol, dag’al, tarbiyasiz; full of

beans- yuragida o'ti bor; an eager beaver- serg'ayrat, tirishqoq; a downy bird- ayyor; a gay bird- xushchaq- chaq, hazilkash; spring chicken-g'or tajribasiz; do the civil- iltifot ko'rsatmoq; hard case- ashaddiy jinoyatchi; a tame cat- lattachaynar, sust; good cheer-hazilkash;

Masalan:...my remotest ancestors are but spring chickens compared with these robed and stately antiques...(M. Twain "Pudd'n head Wilson" p.175)

And remember, I don't want a fortune for this thing-only a good price. There's alot of tame cats who mightn't follow the new men around. (A. J.Cranin, The citadel', book IV, ch.18, p.97)

Frazeologik iboralarning so'zlardan asosiy farqi ular ob'yektiv reallikni, ma'lum voqea hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbatan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi. Tildagi frazeologik iboralarning asosiy qismi ma'no jihatdan insonga qaratilgan: ular kishining biror fizik ruhiy, aqliy-intelektual xususiyatini, hatti harakatini baholaydi. Shu sababli frazeologik iboralarning ma'no tarkibida ko'pincha konnotativ element ishtirok etadi. Bu element frazeologik iboralarning denotative ma'nosiga emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlik yuklaydi.

Frazeologik iboralarning emotsionalligi ularning turli xil his-tuyg'ulari, shaxs-predmetlarga nisbattan sub'yektiv munosabatlarini ifodalash bilan bog'liqdir. Frazeologik iboralarning emotsionalligi bir vaqtning o'zida ikki ma'noning reallashuvi va obrazlilik natijasida yuzaga chiqadi³⁴. Darhaqiqat frazeologik iboralar qo'rquv, shodlik azoblanish, hayrat taajub kabi emotsional xususiyatlarni ifodalash imkoniyatiga ega. Masalan, "wish had never been born", "dog's life", "heart in smb's boots" frazeologik iboralari dardu-alam, xafagarchilik emotsional bo'yog'iga ega bo'lsa, "have a field day", "jump for

³⁴ Башиева С.К. Стилистический компонент фразеологического значения: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Краснодар: КГУ, 1995. – 23 с.

joy”, ”in seventh heaven”kabi frazeologik iboralar quvonch, sevinch emotsional bo‘yog‘iga ega.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ingliz tilida so‘zlashuv frazeologizmlari turli semantik sathlarda ifodalanib kelish bilan birga o‘ziga xos stilistik emotsional semaga ham ega bo‘ladi. Xususan, emotsional –ekspressiv semalar ularning o‘ziga xosligini ta’minlab, nutq momentida to‘g‘ri voqe‘lanishi uchun zamin yaratadi.

Frazeologik iboralarning so‘zlardan asosiy farqi ular ob’yektiv reallikni, ma’lum voqea hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbattan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi. Tildagi frazeologik iboralarning asosiy qismi ma’no jihatdan insonga qaratilgan: ular kishining biror fizik, ruhiy, aqliy-intelektual xususiyatini, hatti harakatini baholaydi. Shu sababli frazeologik iboralarning ma’no tarkibida ko‘pincha konnotativ element ishtirok etadi. Bu element frazeologik iboralarning denotative ma’nosiga emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik yuklaydi. Shu sababli frazeologik iboralarni tahlil qilganda ularning uslubiy tavsifi muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalambor, shuni alohida qayd etib o‘tish lozimki frazeologik iboralarning uslubiy jihatdan farqlash deganda, quyidagi dolzarb masalalar nazarda tutiladi: uslubiy ma’no va uning komponentlari, frazeologik iboralarni uslubiy jihatdan farqlash mezonlari, ingliz frazeologik sistemasining uslubiy qatlamlarini belgilash, ko‘p ma’noli va sinonim frazeologik iboralar hamda ularning uslubiy xususiyatlari, antonim, omonim frazeologik iboralar va ularning o‘ziga xosliklari kabi masalalar ³⁵.

Ma’lumki, til elementlari konotativ ma’no bilan birga uslubiy bo‘yoqdorlikka ham ega. Ular o‘ziga xos „ekspressiv atmosfera” bilan o‘ralgan bo‘ladi³⁶. Bu holat tilshunoslikda hozirga qadar turli xil nomlanib kelinmoqda. Til

³⁵ Батырова Г.З. Функционально-семантический аспект окказиональных преобразований английских и русских глагольных фразеологизмов // Теория поля в современном языкознании. Материалы научно-теоретического семинара. Часть V. – Уфа, 1999. – С. 171-181

³⁶ Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. – Л., 1946. – С.61.

elementlariga ironiya, tantanavorlik, hazil-mutoyiba, ishonmaslik, shubha kabi uslubiy nozikliklarni yuklovchi hodisani nomlaganda „uslubiy bo‘yoq“, „uslubiy tonallik“, „konotatsiya“ kabi atamalardan foydalanmoqdalar³⁷. Birgina „konotatsiya“ atamasining o‘zi ham tilshunoslikda har xil ta’riflanayotir. Masalan, Z.S Aznaurova konnotatsiyani ob’yektiv til hodisasi deb qarashni taklif etadi³⁸. Ammo ushbu uchta tushuncha „konotatsiya“, „uslubiy bo‘yoq“, „uslubiy ma’no“ atamalari bir lingvistik tushunchani anglatib, ularni sinonim atamalar sifatida ishlatish mumkin. Lekin ayrim uslubshunos olimlar bu atamalardagi farqlarni aniqlashga harakat qilmoqdalar.

Frazeologik iboralarni tahlil qilganimizda ularni har qanday uslubda ham, qo‘llanilishining guvohi bo‘ldik. Lekin ma’lum bir uslubga xoslangan frazeologik iboralar ichida, bizning tadqiqot doiramizga kiruvchi so‘zlashuv frazeologizmlari nisbatan keng tarqalgani va yuqori darajadagi bo‘yoqdorligi bilan ajralib turadi.

Uslubiy ma’no inson ongining ekspresiv baholash faoliyati mahsuli bo‘lib so‘z va frazeologik iboralarning tushuncha ifodalash xususiyati bilan uzviy bog‘liqdir.

1. Frazeologik iboralarning uslubiy ma’nosi undagi ikki komponentdan iborat³⁹:
 - a) ekspresiv baho bo‘yog‘i- bunda komponent frazeologik iboralarga baholash nozikliklarini yuklaydi;
 - b) funksional uslub bo‘yog‘i- frazeologik iboralarning u yoki bu funksional uslubga xoslanganligini ko‘rsatadi.

Frazeologik iboralarni ekspresiv-baho bo‘yog‘i tarkibini baholash, emotsionallik va ekspressivlik tashkil etadi. Baholash deganda predmet yoki shaxsga nisbattan salbiy yoki ijobiy tavsif berish tushuniladi. Frazeologik iboralar ma’nosini talqin qilganda baholash xususiyati albatta ishtirok etadi. Agar

³⁷ Йулдошев Б. Функционально-стилистический особенности фразеологических единиц в современном узбекском языке Автореф. дисс.... канд. филол. наук – СамДУ, 2008.- 26 б.

³⁸ Азнаурова Э.С. Очерки по стилистике слова. –Ташкент, 1978.– С. 88

³⁹ <http://www.grammar.ru>.

frazeologik iboralarning semantik strukturasida baholash semasi bo'lsa, o'sha iboraning struktur –grammatik qurilishidan qat'iy nazar frazeologik iboralarga izoh sifat orqali beriladi yoki bu izoh tarkibida “nihoyatda”, ”juda” singari baho semasini ifodalovchi so'zlar qo'llaniladi.

Masalan: cut up nasty-juda achchiqlanmoq; get smb dander up-jahli chiqmoq kabi sinonim birliklarda ekspressivlik turli darajada ifodalangan. Ya'ni har bir frazeologik iboralar o'ziga xos ekspressiv baho bo'yog'iga ega bo'lib, birinchi iborada salbiylikni ifodalovchi sema nisbattan yorqinroq. Bu birliklarni jonli nutqda qo'llanilishi ham fikrimiz isboti bo'la oladi:

He appears to know just how long he can torment me before I get my dander up
(Mark Twain, The Adventures of Tom Sawyer, ch, I. p.12)

Hang it! You cut up quite nasty....(W.Thackeray “Pendennis” ch.XII, p. 218)

Frazeologik iboralarning emotsionalligi ularning turli xil his-tuyg'ulari, shaxs-predmetlarga nisbattan sub'yektiv munosabatlarini ifodalash bilan bog'liqdir. Frazeologik iboralarning emotsionalligi bir vaqtning o'zida ikki ma'noning reallashuvi va obrazlilik natijasida yuzaga chiqadi⁴⁰. Darhaqiqat, frazeologik iboralar qo'rquv, shodlik, azoblanish, hayrat, taajub kabi emotsional xususiyatlarni ifodalash imkoniyatiga ega. Masalan, “miserable as bandicoot”, “over a barrel”, “like a bastard”, “be for the high dive” kabi frazeologik iboralar dardu alam, xafagarchilik emotsional bo'yog'iga ega bo'lsa, “have a ball”, “full of beans”, “a guy bird” frazeologik iboralar quvonch, sevinch emotsional bo'yog'iga ega.

Ekspressiya nutqning ta'sirchanlik xususiyati bo'lib, frazeologik iboralarda bu xususiyat ekspressiv baho bo'yog'i ko'rinishiga ega. Ekspressiv baho bo'yog'ining, xilma xil turlari mavjud, ya'ni ayrim frazeologik iboralar yuqori ko'tarinki bo'yoqqa ega bo'lsa, boshqalari tushkun bo'yoq ifodalaydi.

⁴⁰ Башиева С.К. Стилистический компонент фразеологического значения: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Краснодар: КГУ, 1995. – 23

Ko‘tarinki bo‘yoqqa ega so‘zlashuv frazeologizmlariga quyidagilar misol bo‘la oladi: do the civil—iltifot ko‘rsatmoq, good cheer- hazilkash; have a ball-xursandchilik qilmoq; full of beans-yuragida o‘ti bor, jo‘shqin inson; beat the band-haddan tashqari, o‘ta; with a bang-juda omadli kabilar bo‘lib bu misollar badiiy talqini ham ko‘tarinki emotsional bo‘yoqqa ega ekanligini ko‘rsatib beradi: Masalan:

Aboard ship the square –rigger sailor lived a sedate, vitious life. But when he came to port –whew!-he let go with the bang. (W.Foster, ”Paggers from a Worker’s Life”, ch I, p.311)

Aksincha tushkunlikni ifodalovchi frazemalar ham mavjud bo‘lib, ular ham o‘ziga xos ravishda ifodalanadi: fat chance- imkonsiz, qiyin ish; hard cheese-omadsizlik; get smth of one’s heart- yuragini bo’shatmoq; be up in the air- qattiq g‘azablanmoq; bad egg-iflos, past odam; give smb down the banks-qattiq tanbeh bermoq, ta’zirini bermoq kabilar. Bunday baho bo‘yog‘iga ega frazemalar ham badiiy talqinda o‘z ahamiyatiga ega:

Masalan: Jimmy hung round the pub as miserable as bandicoot. (K.S.Prichard , “Potch and Colour”, p. 215)

Frazeologik iboralarining funksional-uslubiy bo‘yog‘i xilma xil lisoniy va qiyosiy tillar ta’sirida shakllanadi.

Frazeologik iboralar uslubiy jihatdan farqlashning o‘ziga xos mezonlari mavjud bo‘lib, ularni sanab o‘tish frazeologik birliklarni uslubiy xususiyatlarini yanada kengroq ochib berishimizga va ularning semantik o‘ziga xosliklarini yorqinroq ifodalashimizga imkon beradi⁴¹:

1. Etimologik mezon deyilganda frazeologik iboralarining genetik xususiyatlari, ularning kelib chiqishi, dastlabki qo‘llanilish doirasi, adabiy tillar tarkibiga kirib

⁴¹ Йулдошев Б. Функционально-стилистический особенности фразеологических единиц в современном узбекском языке Автореф. дисс.... канд. филол. наук – СамДУ, 2008.- 26 б.

kelish yo'llari, paydo bo'lgan davri kabilar tushuniladi⁴². Masalan, the apple of discord –adovat sababchisi, the golden age-buyuk asr , the thread of Ariadne-kalavanning uchi, a banquet of Lucullus- to'kin-sochin ziyofat; artful Dodger-maqtanchoq, ayyor; kabi frazeologik iboralar qadimgi yunon mifologiyasi namunalari bo'lib, hozirgi kunda so'zlashuv nutqida keng qo'llaniladi. Masalan:

The tomato soup, the mysterious little pieces of of white fish, the boiled mutton, the blackberry and apple tart, were transformed by their histrionic gusto into banquet of Lucullus...(J.B. Priestley, The Good Companions book II, ch I, p.85)

Bugungi kunda so'zlashuv uslubiga xos deb tasnif qilinayotgan ko'pgina frazeologik iboralarning paydo bo'lish manbai so'zlashuv nutqi, xalq og'zaki ijodi asarlari sanaladi. Ko'pincha, bunday frazeologik iboralar hayotiy-so'zlashuv xarakteridagi erkin birikmalarining ustama, ko'chma ma'noga ega bo'lishi, metaforizatsiya natijasida paydo bo'ladi. Adabiy tilga esa nutq orqali kirib kelgan ba'zi frazeologik iboralar hozirgi kunda, ko'pincha, kitobiy uslublarda keng qo'llanilmoqda: kick the bucket- asfalisofiginga jo'namoq, in with shout off-ayuhannos solmoq; hold one's noise-damini ichiga yutmoq, singari o'zlashma frazeologik iboralar bularga misol qilishimiz mumkin.

2. Ichki formaning obrazlilik mezoni. Frazeologik iboralarning ichki formasi deb uning asosida yotgan obraz, frazeologik iboralarning ma'nosiga doir bo'lgan obrazli tassavvur tushuniladi. Masalan, day of doom-qiyomat kuni; when the cows come home- tuyaning dumi yerga tekkanda; chip of the old block-olmaning tagiga olma tushadi; spring chicken- g'o'r, tajribasiz, more dead than alive-juda horg'in charchagan; do or die – g'alaba yoxud o'lim kabi frazeologik iboralarning obrazli tasavvuri ma'lum bir badiiy tasvir vositasi metafora, metonomiya, giperbola kabilarga asoslangan bo'lib, badiiy asarlarda qo'llanilganda ham ulardagi obrazlilik aniq sezilib turadi. Masalan:

⁴² Йулдошев Б. Функционально-стилистический особенности фразеологических единиц в современном узбекском языке Автореф. дисс.... канд. филол. наук – СамДУ, 2008.- 26 б.

We told him something about her life. "I am no spring chicken, Bunny don't imagine it" (W. Sinclair, "Oil" ch. XIV, p.405)

He staggered into the Coach and Horses more dead than alive, and flung his portmanteau down. (H.G. Wells, "The Invisible Man", ch I, p.74)

3. Semantik mezon. Frazeologik iboralarning funksional uslubiy jihatdan xoslanishi uning ma'nosiga ham bog'liq. Frazeologik iboralarni qo'llanilish darajasiga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin:⁴³.

a) arxaik frazeologik iboralar

b) hozirgi tilde mavjud keng iste'molda bo'lgan frazeologik iboralar

c) ijodiy o'zgargan frazeologik iboralar.

Arxaik frazeologik iboralar ingliz mumtoz adabiyotida, ayniqsa Shekspir asarlarida keng qo'llanilgan, hozirgi kunda esa unutilayotgan iboralardir. Masalan, the daughter of eve- nozik hilqat vakili, David and Jonathan-ajralmas do'stlar (biblizm), flutter the dove-cotes-qiy-chuv g'alva ko'tarmoq kabi birliklar buyuk daho Shekspir asarlari namunalari bo'lib, bunday birliklar zamonaviy ingliz tilida shekspirizmlar deb nomlanadi:

Coriolanus...IF you have writ your annals true, 't is there,

That, like an eagle in adove- cote, I

Flutter'd your Volscians in Corioli

Alone I did it(Shakespeare W. Coriolanus. act V, sc.6, p. 594)

Hozirgi vaqtda esa ular kitobiy uslublarga xoslangan arxaik frazeologik iboralar sanaladi. Ayrim frazeologik iboralar inson aqliy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan mavhum tushunchalarni bildiradi. Masalan beneath smb's notice- e'tiborga noloyiq; observed of all observes- buttun omma e'tirofida; become (be

⁴³ Кунин А.В. Внутренняя форма фразеологических единиц // Слово в грамматике и словаре, – М., 1984. – С.183-188

made) one – bir tan-u bir jon bo‘lmoq kabi frazeologik iboralar kitobiy uslubga xoslangandir. The bar of public opinion-ko‘pchilik fikriga binoan; take order from smb- kimningdir buyrug‘iga binoan; in the news-diqqat markazda bo‘lmoq; kabilar esa publisistik uslubga ko‘proq xoslangan. Bunday frazeologik iboralar semantik jihatdan o‘z ma‘no tuzilishiga ko‘ra so‘zlashuv uslubiga to‘g‘ri kelmaydi. Come (badly) unstuck-tuyog‘ini shiqillatmoq; under the counter- imi jimida; come in for it-ta‘zirini yemoq; tap smb’s claret- burnini yerga ishqalamoq kabi salbiy mazmunga ega bo‘lgan frazeologik iboralar esa oddiy so‘zlashuv uslubiga taaluqlidir

4. Ohangdoshlik mezon. Frazeologik iboralar komponentlarining o‘zaro munosabatida alliteratsiya, ritm, qofiya elementlari ham ishtirok etadi. Masalan come high, come low-nima bo‘lsa bo‘lsin; do or die- g‘alaba yoki o‘lim; down and out-kuchsizlangan holsizlangan singari frazeologik iboralar metafora va antitezaga asoslangan, arty-crafty-serhasham, jimjimador; ding–dong battle-teng kuchli qo‘shinlar jangi; by hook or by crook-har qanaqasiga; high and dry-nochor holda tashlab ketmoq singari frazeologik iboralarda esa alliteratsiya, antiteza qofiya elementlarining roli kattadir. Coffe and cakes-kamtarona maosh, snug as a bug in a rug-qulay o‘rnashib olmoq; bag and baggage-hamma lash-lushlari bilan, butunlay; better day better deed-har narsaning o‘z vaqti bor; from door to door-uydan uyga; dribs and drubs- mayda chuydalar singari frazeologik iboralarning shakllanishi esa tovushlar takrori, ritm bilan bog‘liq. Bunday birliklarni badiiy talqinda qo‘llash, nutqni jonlantirib, o‘ziga xoslik bag‘ishlaydi. Masalan:

But the children came close to old Jolyon, knowing that he would save them and gazed into a face which was decidedly “caught out”. Better the day.

Better the deed, mam’zelle. It’s all my doing (J. Galthworthy. “Indian Summer of a Forsyte” ch. III, p. 128)

Don’t tell me I’m all arty crafty- I couldn’t bear it,..I’m a tradesman, that’s all, just a tradesman. (A. Christie, Easy to Kill” ch 5, p. 132)

5. Komponent mezon. Bu mezonni boshqacha qilib frazeologik iboralardagi ayrim komponentlarning funksional uslubiy xoslanishi, deb atash mumkin. Ba'zi frazeologik iboralar komponentlari alohida olinganda ma'lum bir ma'no kasb etmaydi. Ularni ibora tarkibidan sug'urib alohida qo'llash imkoniyatiga ega emasmiz. Bu komponentlar o'sha frazeologik iboralarning kitobiy uslublarga xoslanishini ta'kidlashga xizmat qiladi. Masalan, dribs and drubs- mayda chuydalar; hurrah's nest- aralash-quralash, tartibsiz; omnium-gatherum- aralash-quralash narsalar kolleksiyasi kabi birliklardagi dribs , hurrah, omnium, gatherum kabi so'zlar alohida so'z sifatida ma'lum bir ma'no kasb etmaydi. Ular faqat ibora tarkibida qo'llanilgandagina ma'noga ega bo'ladi. Bunday birliklar ko'pincha boshqa tillardan kirib kelgan va ma'lum til doirasida leksik qiymatini yo'qotgan bo'lishi mumkin. Zero, "omnium-gatherum" iborasi sof lotincha so'z bo'lib XVI asrning boshlaridan boshlab bu ibora ingliz so'zlashuv nutqida qo'llanila boshlangan. Masalan:

...odds and ends, and omnium-gatherums, and this, that and the other, enough to fill nine museums. (Ch. Kingsley, "The Water- Babies", ch. III, p. 34)

Shunday qilib, frazeologik iboralarning ekspressiv baho bo'yog'i uning uslubiy xoslanganligi bilan, har doim ham sabab-oqibat munosabatida bo'lavermaydi, lekin bu ham ma'lum darajada frazeologik iboralarning uslubiy xoslanishiga xizmat qiladi. Frazeologik iboralarning funksional –uslubiy tarmoqlanishini belgilashda yuqorida berilgan barcha mezonlar ob'yektiv ravishda hisobga olingandagina yaxshi natija beradi

Ingliz tilida shunday frazeologik iboralar borki ularning qo'llanilishi hech qanday uslub doirasi bilan cheklanmagan. Masalan good nature (oq ko'ngil inson), once or twice (bir necha marotaba), make a noise (shovqin ko'tarmoq), get on smb's nerves (asabini buzmoq), look after, take care of (g'amxo'rlik qilmoq) singari iboralar so'zlashuv nutqida ham, badiiy va publisistik asarlarda ham bimalol qo'llanilaveradi.

Ko'p ma'noli frazeologik iboralar uslubiy jihatdan yaxlit xarakterga ega bo'ladi. Chunki polisemantik iborada ko'pincha barcha ma'nolar bir ichki obrazga birlashadi. Masalan, near and dear frazeologik birligini olsak, u ikki ma'noli birlik bo'lib, bu ma'nolar o'zaro bog'liq, ya'ni birinchi ma'nosida yaqin (qalin) insonlarni ifodalasa, ikkinchi ma'noda ko'ngilga yaqin biror bir ishni ifodalab kelishi mumkin. Masalan:

He was always a great one for looking after himself and leaving near and dear to him in trouble. (H. G. Wells, "The Food of the Gods" book II, ch. I)

This, then was a piece very near and dear to me, that I had come to New York to produce. (J. B. Priestley, "Midnight on the Desert", ch 2, p. 56)

Ba'zan polisemantik iboraning bir ma'nosi minimal ekspressivlikka, funksional xoslanganlikka ega bo'lsa, keyingi ma'nosi, yuqori ekspressiv bo'yoqqa, kitobiy xususiyatga ham ega bo'lishi mumkin. Masalan: hard as nails- 1) Chidamli, chiniquqan (asosan sportchilarga nisbatan); 2) berahm qahri qattiq. Bu iboralardagi ekspressiv baho bo'yog'i birinchi ma'noda ijobiy xarakterga ega bo'lsa, ikkinchi ma'noda salbiy munosabat bildirilmoqda. Yoki oddiy so'zlashuv uslubida keng qo'llaniladigan "never mind" birikmasi ham turli ma'nolarida turlicha baho semalariga ega bo'lib kelishi mumkin. Masalan never mind- 1) hechqisi yo'q, bezovta bo'lmang 2) ishingiz bo'lmasin, sizga taaluqli emas kabi ma'nolarda qo'llanilishi mumkin:

1) We oughtn't to have come here, mother, said Paul. "Never mind", she said We won't come again. (D. H. Lawrence, "Sons and Lovers", part I, ch V, p. 206)

2) -Do you call yourself a gentleman sir?

- Never mind, sir! (Ch. Dickens, "Pickwick Papers". Ch XXIV.p.65-66)

2.3. Idiomalarning tillararo korrespondensiyasi masalalari

Odatda erkin birikmalarni tarjima qilish muammo tug'dirmaydi. Agar erkin birikmalardagi so'zlardan biri ko'chma ma'noda qo'llansa, uni tarjimada

berish qiyinlashadi. Ingliz tilida iboralarining bir nechta turi mavjud bo'lib, ularning har-birini tarjima qilishda alohida yondashuv talab etiladi. Birinchi turdagi so'z birikmasi *sifat+ ot* turi. Ularning semantik strukturasi bir-biridan katta farq qiladi. Bu birikmada qo'llanilgan otning xususiyatini va sifatini belgilaydi. Agar ingliz tilidagi *free educational institution* birikmasidan *free* so'zi *institution* so'zi bilan aloqasi yo'q, bu degani ba'zi hollarda sifatlar otning xususiyatlari va sifatidan tashqari u bilan bog'liq tushunchalarni ham ifodalashi mumkin. Yana bir misol: ingliz tilidagi *a medical man* birikmasini tarjima qilishda *a stout person* birikmasini tarjima qilishda qo'llangan usuldan foydalanib bo'lmaydi. Ingliz tilidagi *a stout person* o'zbek tiliga *to'ladan kelgan* yoki *semiz odam* deb tarjima qilinadi. Ingliz tilidagi *a medical man* birikmasini o'zbek tiliga tarjima qilishda so'zma-so'z tarjima to'g'ri kelmaydi. Bu yerda ikki so'z bitta ma'noni ifodalaydi va *shifokor* deb o'giriladi. O'zbek tilida ham bunday bitta ma'noni ifodalovchi birikmalarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Masalan: *tog' qo'yi*, *malla sochli*, *devor soati* va *hokazo*. Bir otni bir necha sifat aniqlab kelishi mumkin bo'lgan hollar ham uchraydi. Bunda aniqlanmish bo'lib ot kelishi mumkin. Masalan, *temir xotin*, *ichkari uy kaliti* kabilar.

Ingliz tilida aksariyat hollarda otlarni aniqlab kelgan so'zlarni (bular ot ham, sifat ham bo'lishi mumkin) qaysi biri ekanligini aniqlash mushkul bo'ladi. Masalan, *retail philanthropy business* birikmasi nima ma'no anglatganini bir qarashda anglash oson emas, chunki uni ikki xil tushunish mumkin. O'zbek tilida bunday hollar deyarli uchramaydi.

Ingliz iboralarining yana bir xususiyati otni aniqlab kelgan sifat tushirib qoldirilgan hollar ham uchraydi. Masalan, *dry pruning* iborasini olsak. Bu iboraning so'zma-so'z tarjimasi *quruq butash* bo'ladi. So'z birikmasining ma'nosi *daraxt shoxlari quruq bo'lgan paytda qilingan butashni* ifodalaydi.

Tarjima jarayonida so'z birikmalarining semantik hamda tuzilish xususiyatlarini hisobga olish lozim. Bunda birinchi navbatda otni tarjima qilib olish tavsiya etiladi, chunki qanday aniqlanmish qo'llanmasin hammasi otni

aniqlab keladi va ot gapda eng muhim ma'noni ifodalaydi. Tarjimonning keyingi vazifasi gapdagi ma'no guruhlarini ajratib olish hisoblanadi. Gapning ma'no guruhi ajratib olingach, ot va sifat o'rtasidagi grammatik aloqalar turi aniqlanadi. Otdan oldin kelgan so'z va so'zlar, uni aniqlab keladi, ularni agar gap ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinsa, uni o'zbek tili grammatikasi qoidalariga asosida va aksincha, agar gap o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilinsa, ingliz tili grammatikasi normalariga asoslanib tarjima qilinadi. Aksariyat hollarda ingliz va o'zbek tili erkin birikmalarning tarkibi ikki tilda ham mos kelishi mumkin:

Strategic Arms Limitation Treaty – Strategik qurollarni cheklash shartnomasi.

Bunday tarkibda aniqlovchi bo'lgan iboralarni tarjima qilishning bir necha usuli mavjud:

1. Ingliz tilidagi ot oldidan kelgan aniqlanmish o'zbek tilida ham shu tartibda tarjima qilinadi: *a cheap ticket* – arzon chipta, *an expressive word* – ifodali so'z.
2. Ingliz ot+ot shaklida kelgan ibora ham huddi yuqoridagidek tarjima qilinadi, bunda o'zbek tilidagi iboraga bir nechta ibora to'g'ri kelishi mumkin: *opposition leader* – muxolifat lideri, muxoliflar lideri, oppozitsiya lideri.
3. Otni aniqlab kelgan inglizcha iboralar o'zbek tiliga bog'lovchilar yordamida tarjima qilinadi: *youth unemployment* – yoshlar o'rtasidagi ishsizlik.
4. Ingliz tilidagi aniqlanmish va ot o'zbek tiliga izohlovchi orqali tarjima qilinishi mumkin: *his millionaire friend* – uning millioner do'sti.
5. Ba'zan ingliz iboralaridan bir qismi tasviriy yo'l bilan, ya'ni bir necha so'z yordamida tarjima qilinishi mumkin: *a bargain counter* – narxi tushurilgan mollar do'koni.
6. Ingliz tilining tarkibida aniqlovchi bo'lgan iboralarni tarjima qilishda aksariyat hollarda ibora tarkibidagi muayyan so'zni yoki otni boshqa otga o'zgartirish zarur va tavsiya etiladi. Masalan, *free educational institutions* o'zbek tiliga bepul o'qiladigan oily o'quv yurtlari deb tarjima qilinishi lozim, chunki *free* so'zi *institutions* otini emas, balki *educational* so'ziga aloqasi bor. Huddi shu fikr

Parliamentary Labour Party birikmasiga ham aloqador. Bu iborani o'zbek tiliga Leyboristlar partiysining parlament fraksiyasi deb tarjima qilish o'zbek tili grammatikasining qoidasiga to'liq muvofiq keladi.

Tarjimani to'liq berish maqsadida ba'zi hollarda aniqlovchini ayni shu gapda qo'llangan boshqa ot bilan tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol tariqasida *dismal array of titles* birikmasini ko'rib chiqaylik. Bu iborani o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilish ma'noga putur yetkazadi, shuning uchun uni *dismal* so'zining aniqlovchisi *titles* otini emas, balki *array* otini aniqlab kelganligi uchun birikmani *eng yomon (eshitiladigan yoki quloqqa yoqmaydigan) laqablar yig'indisi* deb tarjima qilishga to'g'ri keladi.

7. Aksariyat hollarda ingliz tilidagi aniqlanmishli iboralar o'zbek tiliga ravishli iboralar bilan tarjima qilinadi:

to be

to have

to give + *A* + *N phrase*

to take

Yuqoridagi namunalarga quyidagi misollarni keltirish mumkin: *to have a good sleep* – yaxshi tiniqib uxlamok, *to take a deep breath* – chuqur nafas olmok, *to give a loud whistle* – qattiq hushtak chalmoq, *to have a good lunch* – yaxshi, mazali taom yeb tushlik qilmoq va shu kabilar.

8. Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda shunday hollar uchraydiki, turli ekstrolingvistik omillar ta'sirida tarkibida fe'lli iboralar mavjud gaplar va ularning tuzilishi butunlay o'zgarib ketadi. Masalan, "*He had "I don't know expression" in his face.*" – Uning yuzi, hech narsa bilmasligini ifodalab turardi.

Bu borada O.V.Petrova shunday deb yozadi: "tarjimaning muayyan usulini tanlash asosan ibora komponentlari o'rtasidagi semantik aloqalar, grammatik norma hamda tarjima tilidagi so'z birikmasini hosil qilish xususiyatlari bilan belgilanadi." (O.V.Petrova. 2006, 18)

Ingliz tilining o'ziga xos aniqlovchi va aniqlanmishdan tashkil topgan iboralari mavjud bo'lib, ular ichki predikatsiyaga ega. Ularning tarjimasida asosan iboralarning stilistik xususiyatlariga bog'liq. Agar bunday aniqlovchilar yoyiq va ko'p qismdan tashkil topgan bo'lsa, ular odatda o'zbek tiliga to'ldiruvchi ergash gaplar yordamida tarjima qilinadi. Aniqlanmishli ibora tarkibidagi ot xususiyatini ifodalovchi so'zlar bo'lgan hollarda esa ular bitta ot orqali tarjima qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi: *a gra-it-and-run ... counter* – yo'l-yo'lakay kirib ketiladigan mayxona yoki gazakxona.

Turg'un birikmalarni tarjima qilish erkin birimlarni tarjima qilishdan farq qiladi. Turg'un birikmalar tarjimasida haqida gapirishdan avval ularning o'z va ko'chma yoki obrazli turlarini farqlab olish lozim. O'z ma'nosida qo'llangan turg'un birikmalarni tarjima qilish yuqorida fikr yuritilgan prinsiplarga asoslanadi. Eng muhim prinsiplardan biri – tarjima til normalarini unutmaslik hisoblanadi.

Ko'chma yoki obrazli turg'un birikmalar tarjimasida alohida e'tiborni talab etadi. Bunday iboralarning asosiy xususiyati ularning komponentlari yig'indisidan anglab olish qiyinligi bilan xarakterlanadi. Turg'un birikmalar ma'nosi alohida olingan so'zlardan emas, balki ularning yig'indisidan kelib chiqadi. Obrazga asoslangan turg'un birikmalar matnini ifodali hamda stilistik jihatdan bo'yoqdor bo'lishini ta'minlaydi. Aslyat matnining bo'yoqdorligi tarjimada ham o'z aksini topishi va ifoda vositalarining to'liq saqlanishini talab etadi. Tarjimon matnning ifodali va bo'yoqdorligini ta'minlash maqsadida tarjima matnida ham adekvat va obrazli turg'un birikmalarining variantini topishi lozim bo'ladi.

Tarjima nazariyasi bo'yicha nashr etilgan adabiyotlarda bunday birikmalarni tarjima qilishning to'rtta usuli borligi haqida ma'lumot beriladi. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) obrazni qanday bo'lsa shundayligicha saqlash;

- 2) obrazni qisman o`zgartirish;
 - 3) obrazni butunlay boshqa obraz bilan almashtirish;
 - 4) tarjimada butunlay obrazni saqlamaslik yoki uni tushirib qoldirish.
1. Odatda universal yoki internatsional obrazlar tarjimada to`liq saqlanadi. Bunday frazeologik birikmalar tarixiy, afsonaviy, diniy, mistik, mifologik va shu kabilarga asoslangan bo`ladi. Masalan, *in the seventh heaven* – yettinchi osmonda. Bunday frazeologik birikmalar asliyatning tarjima tilidagi ekvivalentlari deb ataladi. Tarjimada to`liq ekvivalentga ega frazeologik birikmalar deyarli hech qanday muammo tug`dirmaydi, chunki ular stilistik hamda pragmatik jihatlardan bir xil qiymatga, ma`noga, ifoda usuli va ta`sir kuchiga ega bo`ladi.

Ba`zan asliyatdagi obrazli frazeologik birlikni tarjima tilida muqobili bo`lmasa ham saqlab qolish imkoniyati bo`ladi. Bunga kalkalash yo`li bilan erishish mumkin. Masalan, *nothing comes out of the sack but what was in it* – qopda nima bo`lsa, shu chiqadi yoki qozonda bori cho`michga chiqadi. Bu usul obrazli frazeologik birlikning ma`nosi shaffof bo`lgan taqdirda, ya`ni uni hamma oson tushungan holdagina qo`llash mumkin. Frazeologik birikmalar tarkibidagi so`zlar ko`chma ma`noda qo`llanilgan bo`lsa-da, ularning lug`aviy ma`nosi aniq bo`lsa, uni tarjima qilishda kalkalashdan foydalanish matnni, matndagi informatsiyani hamda matndagi g`oyani tushunishni osonlashtiradi, tarjima muqobilligini ta`minlaydi. Kalkalash aksariyat hollarda obrazli frazeologik birikmalarni oddiy frazeologik, ya`ni, erkin birikmalarga aylantirib qo`yadi. Bu usulning qanchalik to`g`ri tanlanganligini tarjima sifati ko`rsatadi. Aksincha, frazeologik birikma tarkibida qo`llangan so`z ma`nolari shaffof bo`lmasa, kalkalash usulidan foydalanish matnda qo`llangan ko`chma ma`noli so`zlarni qisman, ba`zan esa to`liq tushunmaslikka olib keladi. Masalan, ingliz tilidagi *to send somebody to Coventry* turg`un frazeologik birligini tushunish uchun undagi so`zlar ma`nosi yoki ma`nolar yig`indisi yetarli bo`lmaydi, chunki bu frazeologik birlik na *yubormoq* va na *Koventri* so`zining ma`nosiga bog`liq. Bu iboraning tarjimasi *baykot qilmoq* fe`liga to`g`ri keladi.

2. Aksariyat hollarda asliyat va tarjima tillarida bir xil fikr ifodalanadi, biroq ular obrazlari bilan bir-biridan farq qiladi. Ularning har ikkisi bir xil ko'chma ma'noga ega bo'ladi. Bunday hollarda obrazlar o'rtasida mavjud ozgina farq hisobga olinmasligi lozim. Bunda tarjima qilinayotgan frazeologik birlikdagi obraz tarjimada ba'zi bir, aniqroq aytadigan bo'lsak, qisman o'zgarishga uchraydi. Shunday bo'lsa-da tarjima adekvat hisoblanadi: *a fine suit does not make a gentleman* – kiyim odamni bezamaydi, *a burnt child dreads the fire* – og'zi qaynoq sutda kuygan, qatiqni ham puflab ichadi. Ikkinchi misolda ingliz va o'zbek frazeologik birikmalari o'rtasida muqobillik yo'qdek ko'rinadi. Chunki birlikning birorta so'zi bir-biriga to'g'ri kelmaydi, biroq frazeologik birlikda ifodalangan obraz deyarli bir xil – olovdan va qaynoq narsadan qo'rqish ma'nosi berilgan. Ikkala turg'un birlikda berilgan ma'no umumlashtirilgan. Yana birkita miolni tahlil qilib chiqaylik: *look not a gift horse in the mouth* – berganning betiga qarama, *to lay by a rainy day* – qora kunga saqlamoq/qoldirmoq va hokazo.

3. Har bir xalqning til boyligi, jumladan frazeologik birikmalari uning tarixi, madaniyati, urf-odatlar, turmush tarsi, mentaliteti va xarakterli xususiyatlari aks ettiradi. Hamma uchun bir xil fikrlar turli xalqlar tomonidan turlicha ifodalanadi: o'zbeklar *tuyaning dumi yerga tekkanda, qizil qor yoqqanda, xapshanba kuni* deganda inglizlar *“when pigs fly”* frazeologik birligini qo'llashadi. Ikkala frazeologik birligini qo'llashadi. Ikkala frazeologik iboradagi leksik birliklar bir-biriga, ayniqsa *“tuya, qizil qor hamda xapshanba”* butunlay to'g'ri kelmasada, *hech qachon sodir bo'lmaydigan ish-harakat, voqea* asosiy fikr hisoblanadi. Frazeologik birikmalar tarkibidagi aksariyat so'zlar esa ikkinchi darajali unsur sifatida qo'llangan. Bu yerdagi asosiy vazifa asliyatdagi frazeologik birikmalar tarjima tilida xuddi shu fikrni ifodalagan va xuddi shunday stilistik ma'noga ega bo'lgan turg'un birikma topish.

Misollardan ko'rinib turibdiki, aksariyat hollarda asliyatdagi frazeologik birikmalarning ekvivalentlari yo'q bo'lganda, ayni obraz qo'llanmaganda, obrazni butunlay almashtirish tavsiya etiladi. Tarjima tilida asliyatdagi

frazeologik birlikka ma'no stilistik ifodaliligi oxshash turg'un birlikma topish maqsadga muvofiq bo'ladi.

4. Shunday hollar bo'ladiki, tarjima tilida asliyat tiliga na ekvivalenti va na o'xshash frazeologik birlikma topiladi. Asliyatda ifodalangan fikrni aks ettira oladigan birlikni na ekvivalent na o'xshash bo'lganda, frazeologik birlik shaffof bo'lmasa, kalkalash usulidan foydalanishni iloji bo'lmaganda, turg'un frazeologik birlikmalar tasviriy yo'l bilan tarjima qilinadi. Tasviriy usul erkin ko'chma ma'noga asoslanmagan frazeologik birliklarni qo'llashni talab etadi: "*a skeleton in the cup*"- "oila siri", "*in a whole skin*" – "bekamu-ko'st, soppa-sog', sog'-salomat, beziyon" va shu kabilar.

Ko'chma, ya'ni, obrazli frazeologik birlikmalarni tarjima qilishning asosiy usullari mavjud.

Frazeologik birlikmalarni tarjima qilish jarayonida so'zlarning milliy xususiyatlarini hisobga olish lozim bo'ladi. Milliy xusiyatga ega bo'lgan so'zlar, ya'ni realiy (xos so'zlar) tarjimasi, frazeologik birlikmalar tarjimasi juda murakkab hisoblanadi, tarjimondan katta kuch va ko'p vaqt talab etad. Bir tomondan tarjimada milliy xususiyatlarni saqlash oson bo'lmasa, ikkinchi tomondan tarjimonning erkinlikka yo'l qo'yishi natijasida tarjima tiliga asliyat tilining milliy xususiyatlarini olib kirish xollari uchrab turadi. Ma'no jihatdan "*to carry coals to Newcastle*" iborasi "*Surhandaryoga xurmo olib bormoq*", "*Marg'ilonga atlas tashimoq*", "*Chinozga baliq tashimoq*" deb emas, balki neytral ma'noga ega "*daryoga suv tashimoq*", "*o'rmonga o'tin olib bormoq*" kabi neytral birlikmalar topish, zarur bo'lsa, yangi erkin frazeologik birlikmalar yaratish tavsiya etiladi. Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan frazeologik birlikmalar o'zbekchalashtirilishi lozim, lekin bu bilan tarjimaning o'zini oqlamagan usullardan foydalanish, uni suiiste'mol qilish nafaqat tarjima usuliga, balki mazmuniga ham putur yetkazadi, tarjima sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Belgilar umumiy va maxsus bo'lishi mumkin. Har qanday tilda oq rang soflik, adolat belgisidir. Shuningdek, qora - qayg'u, o'lim; gul - chiroyli, sevgi; bulbul-chiroyli ovoz; bo'ri - hasislik, ochlik; tulki – makkorlik; iymon - donolik va hokazo. Bu belgilar umumiy belgilardir. Har xil geografik iqtisodiy, ijtimoiy, insonlarning siyosiy holatlari bilan bog'liq maxsus belgilar ham mavjud. Shunga ko'ra bir frazeologik birikmalarni tarjimada turli hil so'zlar bilan solishtiramiz. M: *as red as a cherry* - olmaday qizil; *as harmless as a dove* - musichaday beozor.

Har bir tilda o'zining milliy, madaniy xususiyatlariga ega bo'lgan frazeologik birikmalar mavjud. Frazeologik birikmalarning tarjimasi milliy, madaniy hususiyatiga chuqur e'tibor bergan holda qilinishi lozim.

Frazeologik birikmalar har bir tilda tashkil topishi jihatidan ijtimoiy-tarixiy hodisalar, aqliy va ruhiy holatlar, din, milliy an'ana va urf-odatlarni o'z ichiga b'oladi. Turli xil geografik nomlar frazeologik birikmalarning tarkibiy qismi bo'lishi mumkin. M: *Do in Rome as the Romans do.* - Onasini uchqo'rg'ondan ko'rsataman. Frazeologik birikmalar milliy xususiyatga ega bo'lganda, boshqa tilga kalka orqali tarjima qilinadi. M: *Golden wedding* – oltin to'y.

Ingliz tilida inson tana a'zolariga ko'z, qovoq, bosh va xokazolarga asoslangan bir necha iboralar mavjud. Ba'zida notasviriy ifodaviy iboralar bilan tarjima qilish muhim bo'lib qoladi, lekin ba'zida tillarda ishlatilishi mumkin. Tarjimon iboralarni va asliyat tilidagi boshqa idiomalarni yodda saqlab qolishni o'rganishi shart. Haqiqiy qiyinchilik iboralarni badiiy tomondan tarjima qilinayotganda tug'iladi. Tarjimon tarjima tilidagi iboralarni qo'llanilishiga sezgirligini oshirish va ularning jonliligini ta'minlash uchun tabiiy qo'llashi va asliyat tilidagi usulini saqlab qolishi kerak. Asliyat tilida ibora hisoblanmagan, lekin iboralar bilan yaxshi tarjima qilinadigan so'zlar bo'lishi mumkin. M: *Dutch courage* iborasi o'zbek tiliga *kayf, mastlik* so'zlari bilan tarjima qilinadi.

Evfemizm - bir soʻz, iboraning boshqa soʻz yoki ibora oʻrniga qoʻllanilishi.

Lekin efemizm yoki qogʻozga oʻrab gapirish nojoya iboraning, ijtimoiy qabul qilinmagan, yoqimsiz boʻlgan soʻzlardan qochish maqsadida qoʻllaniladi. Hamma tillarda boshqa soʻz oʻrnida qoʻllaniluvchi ayniqsa jinsiy aloqa, oʻlim va gʻayritabiiy holatlar doirasida qoʻllaniladigan evfemizmlar frazeologik birliklari mavjud. Yahudiylar Xudo soʻzi oʻrnida jannat soʻzini qoʻllashgan. Koʻplab tillarda oʻlim soʻzining oʻrniga boshqa soʻzlarni qoʻllash qabul qilingan. Inglizlar *pass away* – (narigi dunyoga ketmoq) va boshqa ifodalarni qoʻllashadi. Jinsiy aloqa koʻp tillarda pardalab gapirish *as to know, to touch, to come together, to sleep with* singari frazeologik birikmalari orqali qoʻllaniladi. Qoʻshma Shtatlarda qari odamlarni katta yoshdagi shaxslar (*senior citizens*) deb atashadi. Evfemizmlar tarjima tiliga mos keladigan evfemizm soʻzlar bilan qoʻllanilishi kerak. Tarjimon uchun eng muhim narsa shuki, asosiy tildagi evfemizmning tabiiyligini eslab qolish va soʻng tarjima tilida qabul qilingan va toʻgʻri keladigan soʻzga tarjima qilish kerak. Misol uchun: *He is sleeping with his father* iborasi: *U qishlogʻiga ketdi* deb tarjima qilish kerak. Biroq baʼzi tillarda *U oʻldi deb tarjima qilinadi*.

Frazeologik mos kelishlarning asosiy turlari quyidagilardir:

1. Toʻliq moslashish. Misol: *to lose one's head* – kallasini yoʻqotmoq.
2. Qisman moslashish, ular obrazlilik jihatidan yaqin, lekin leksik tuzilishi, sintaktik va soʻzlar tartibi jihatidan farqlanadi. Misol: *to get out of bed on the wrong foot* – chap yoni bilan turmoq.
3. Moslashishning boʻlmasligi.

Har xil tillarda koʻp frazeologik birikmalarning frazeologik moshlashuvi mavjud emas. Ular realiyadir.

Realizmlar leksik birlik bo`lib, insonlar hayotidagi milliy urf-odatlar va ularga xos bo`lgan hodisalarni anglatadi.

Bunday frazeologik birikmalarni so`zma-so`z, analogiya yoki tasviriy yo`l bilan tarjima qilish yaxshiroqdir. M: *Cold war* – sovuq urush.

So`zma – so`z tarjima: *The apple of my eye* – ko`zginamning nuri.

Tahlil orqali tarjima: *To pull somebody's leg* – mazax qilmoq; *to enter the House* – parlament a'zosi bo`lmoq .

Shunday qilib, frazeologik birikmalarni tarjima qilishning qiyin muammolaridan biri, bu ularning vazifaviy va semantik tomondan ajralmas birliklar bo`lib hisoblanishidir. Ularning idiomatik ma'nosi bor va ular nutqda tayyor birlik sifatida namoyon bo`ladi. Frazeologik birikmalarning milliy madaniy xususiyatlar mavjud va ular tarjimada muammolar paydo qiladi.

Frazeologik birikmalar bir tildan boshqa tilga to`g`ri yo`l orqali tarjima qilinadi:

1. Grammatik, sematik va uslubiy moslashishlar orqali.
2. Semantik ekvivalentlar orqali.
3. Kalka orqali.
4. Tasviriy (bayon) tarjima orqali.

To`liq frazeologik birikmalarning moslashishi ikkita tilda bir xil bo`lishi mumkin. *Black frost* – qora sovuq; *to lose one's head* – kallasini yo`qotmoq.

Frazeologik birikmalarni tarjima qilish jarayonida ularning tuzilishi va mazmunini solishtirish orqali funksional va semantik mustaqil birliklar tanlab olinadi. Bu prinsiplar til elementlarini o`xshashlik va mos kelishi orqali ifoda qilinadi. Ushbu birliklarning tuzilishi va ma'nosi mos kelishi mumkin yoki moslashishda ayrim kamchiliklar orqali taqdim etiladi.

Frazeologik birikmalarni tuzilishi va mazmuni jihatidan to'liq mos bo'lishi kam kuzatiladi. *Black frost* – qora sovuq.

Frazeologik birikmalarning qisman mos kelishi uchun obrazlilik tomondan bir xil, lekin tuzilish va so'z tartibi jihatidan bir – biridan farq qilad. M: *to dance to smb's pipe* – birovning nog'orasiga oynamoq.

Ko'pgina frazeologik birikmalarning o'zbek tilida ekvivalentlari mavjud emas. Quyidagi turdagi birliklarni tarjima qilayotganda so'zma-so'z tarjima, analogik va tasviriylar tarjima turlarini qo'llash mumkin. M: *cold war* – sovuq urush, *the arm's race* – qurollanish poygasi. Analogiya tomonidan tarjima qilish esa maxsus milliy xususiyat bo'lgan holda mumkin bo'ladi. M: *The apple of my eye* – ko'zginamning nuri. Tasviriylar tarjima frazeologik birikmalarning, bu so'zlar tuzulishining erkin tarjimasidir. M: *to enter the House* – parlament a'zosi bo'lmoq.

Frazeologik birikmalarda komponentlarni almashtirish, tushirib qoldirish va qo'shish mumkin. Shuning uchun biz tarjimada quyidagi holatni ta'kidlashimiz lozim.

Tarjimada ikki tildagi frazeologik birikmalarning asosiy tuzilishining grammatik shaklini saqlab qolish muhimdir. Aks holda uslubiy va pragmatik ma'nolar tarjimada aks ettirilmay qolishi mumkin. M: Devorni ham qulog'i bor – *Walls have ears* – mumkin, lekin *Walls has an ear* mumkin emas. Frazeologik birliklar to'liq moslashishda o'zining tuzilishi va ma'nosi leksik birliklarning soni jihatidan farqlansa ham, lekin semantik jihatdan farqlanmaydi. M: Qanday shamol uchurdi – *what wind blows you here*.

Asliyat tilidagi frazeologik birikmalar ekvivalentini tarjimada topish uchun tarjima tilida mos keladigan variantini tanlanadi. Ushbu frazeologik birikmalar leksik komponentlar jihatidan farqlanadi, lekin ularning asliyat va tarjima tilida mazmuni bir xil bo'ladi. Ular tarjimada bir-birlarining o'rnida qo'llanila oladi, chunki ularning o'rnida qo'llanishga to'siq bo'luvchi milliy

xususiyatga ega emas. M: *to have smth at one's finger ends* - besh qo'lday bilmoq.

Ba'zida na ekvivalent, na mos keladigan ekvivalent yordam bera oladi.

Bunday holda tasviriy tarjima usuli qo'llaniladi. Bu frazeologik birikmalarning erkin ravishda tarjima qilinishdir. M: *It is greek to me* - jumboq.

Dress so'zi *to dress a chicken* va *to dress a child* iboralarida bir xil manoga ega emas. *To dress a chicken* – patini yulish, *To dress a child* esa kiyimlarini kiyish ma'nosida qo'llanilyapti.

Collocation so'zi bir so'z boshqasi o'rnida qo'llanilishini bildiradi. Ba'zi so'zlar tez-tez bir-biri bilan birga keladi va ba'zilari bir-biri bilan birga kelishi kuzatilmaydi. Qaysi so'zlar bir-biri bilan birga kelishini bilish matnni to'g'ri tushunish va to'g'ri tushunish, to'g'ri tarjima qilish imkonini beradi. Ba'zi so'zlar birga kela olmaydi. Ingliz tilida *cat's wings* (mushukning qanotlari) demaymiz, lekin biz *bird's wings* (qushning qanotlari) deb qo'llaymiz. Faqatgina fantastikada *mushukning qanotlari* deb qo'llash o'zini oqlashi mumkin. So'zlarning birikishi turli tillarda farqlanishi mumkin. Misol uchun: ingliz tilidagi *have* so'zi "*dream*" so'zi bilan qo'llaniladi: *I have a dream*. Biroq o'zbek tilida bu birikma qo'llanilmaydi.

Har qanday tilda birikmalar yoki frazeologik birikma aniqdir. Ular hamma vaqt aniq tartibda yoki birgalikda qo'llaniladi va ularning to'g'ri tarjimasini bilish muhim. Ayniqsa ingliz tilidagi *spick and span, hale and hearty, to- for, now and then, neat and tidy* kabi birikmalarni va ularning aniq tarjimasini bilish kerak. Boshqa tillarda turg'un birikmalar hisoblangan umuman turli birikmalar mavjud.

Aniq birikmalar odatda turg'un tartibda birgalikda ishlatiladi. Agar tartibi o'zgartirilsa, shu til so'zlashuvchisiga notabiiy tuyiladi. Ingliz tilidagi *bread and butter, day and night* (boshqa tillarda *night and day* deyiladi), *knife and fork, black and white, black and blue, ladies and gentlemen, rant and rave* kabi birikmalarni tarjimon bilishi lozim. Ingliz tili so'zlovchisiga agar kimdir

gentlemen and ladies deydigani bo'lsa, bu g'alati tuyuladi. Ko'p tillarda *mother and father* deyishadi, lekin hech qachon *father and mother* emas. O'zbek tilida *ota va ona*, lekin *ona va ota* emas. Iboralar maxsus qo'llanishlar bo'lib to'liq ma'noga egadir. Lekin birikmalarning ma'nosi yaxlit so'zlarning ma'nosi bilan bir xil emas. Ular ko'pgina leksik birliklar bilan bir xil ma'nosi bor bo'ladi, lekin aniq moslashish boshqa tilda ifodalanmagan bo'ladi. Misol uchun, ingliz tilida *kick the bucket* o'lim bilan bir xil ma'noga ega, lekin bu qandaydir hurmat ko'rsatish maqsadida ham qo'llaniladi. Quyidagi misolda ingliz va o'zbek tilidagi so'zlarning tarjimasini berilgan, lekin har xil fe'llar qo'llanilgan. Birliklarning har qaysi tildagi shakli tabiiydir, lekin badiiy tomondan tarjima qilinsa, notabiiy tuyulardi.

<i>To keep the law</i>	Qonunga amal qilmoq
<i>Ate wild honey</i>	Asal ichdi
<i>He was given wisdom</i>	Aql o'rgatdi

Shuning uchun iboralarni tarjima qilayotganda bunday hollarda e'tibor qaratish zarur. Tarjimon birinchi navbatda iboraning mazmunini aniq bilishi va iborani to'liq ifoda qilish uchun tabiiy ekvivalentini topishi shart. Ba'zida so'zlarda paydo bo'ladigan umumiy ma'no birikmalariga asoslangan holda qo'llanishlarni tahlil qilish mumkin. Misol uchun, quyidagi gaplarning qo'llanishlari to'g'ridir.

Agar fe'l o'zgartirilganda, natija noto'g'ri ma'noda yoki metafora ma'nosida bo'lib qolar edi. Birinchi ustunda shaxslarsiz ikkinchisida shaxslar bor qilib tarjima qilingan.

<i>I washed the car</i>	<i>I bathed the baby</i>
-------------------------	--------------------------

I <i>rented</i> a typewriter	He <i>hired</i> a secretary
The puppy <i>yelps</i>	The bay <i>screams</i>
He <i>sheared</i> the sheep	He <i>cut</i> the boy's hair

Shunday qilib, frazeologik iboralar o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilinmaydi. Quyida ingliz frazeologik iboralarining o'zbek tilidagi birikmalarga moslashishi va ekvivalenti har xil bo'lishi mumkin bo'lgan misollar berilgan.

1. *It gave me a chance to sleep. I didn't sleep last night.* – Hechqisi yo`q, qaytanga uxlab oldim, kechasi mijja qoqmagan edim.
2. *“Tonight you will tell me everything”* – said Rinaldi. – “Kechqurun menga oqizmay-tomizmay hikoya qilib berasiz”, - dedi Rinaldi.
3. *When he swaggered by twirling his new mustache, everybody stopped to look and admire.* – U endi sabza ura boshlagan mo'ylovini burab, savlat to'kib yurgan chog'ida hamma odamlar unga qarashar edi.
4. *I sacrificed everything for something that never come.* – Ro'yobga chiqmagan ana shu narsani deb butun umrimni hazon qildim.
5. *It was still raining cats and dogs.* – Yomg'ir hamon chelaklab quyayotgan edi.
6. *All right, I wash my hands of the matter. But I warn you all that a time's coming when you're going to feel sick whenever you think of this day.* – Yaxshi! Agar shunday bo'lsa, men qo'limni yuvib qo'ltig'imga uraman. Ammo sizlarga aytadigan bir gapim bor: bir kun keladi bu qilmishingizga pushaymon bo'lasiz va qilgan ishingizni eslashingizning o'zidayoq hushingizdan ketib qolasiz.

Frazeologik birikmalar nutqda tayyor holda uchraydi, ular turg'un birikmlar bo'lib, funksional va semantik jihatdan bo'linmas yoki ajralmas birliklardir.

Ingliz va o'zbek tillaridagi so'z birliklarining ba'zilarining, yangi frazeologizmlarni o'z vaqtida ularni lug'atlardan topa olmaymiz va tarjimon ularni lug'atsiz tarjima qilishga to'g'ri keladi. Biz eski frazeologik birikmalarni «Большой английский – русский словарь» dan va A.V.Kuninning “Ingliz – rus tili frazeologik lug'ati” dan topa olishimiz mumkin. Tarjimon mustaqil holda frazeologiyaning asosiy nazariyasi masalalarini hal qila olish, frazeologik birikmalarni to'g'ri tanlay olish va ularning ifodaviy-uslubiy tarjimadagi vazifalarini belgilab bera olishi kerak.

Frazeologik birikmalar tarjimasining asosiy qiyinchiligi shundaki, lug'atlarning hech biri matnda frazeologik birikmalarni qo'llanishidagi rang-barangliklarni ta'minlay olmaydi. Kuninning “Ingliz – rus tillari frazeologik lug'ti” da frazeologizmlarning ko'pchiligini tarjimasi bor. Masalan: *charity begins at home*. Bu frazeologik birlik har xil lug'atlarda turlicha tarjima qilingan. Myullerning «Англо – русский словарь» kitobida – *savob o'z uyingdan boshlanadi* deb izohlangan. Xornbayning lug'atida shu frazeologik birikma *charity begins at home – a person's first duty is to help members of his own family* deb keltirilgan.

Bu misol shuni ko'rsatadiki, frazeologizmlarning lug'atlarda har xil shakllari berilishi mumkin, tarjimon uni hisobga olishi zarur.

Ingliz va o'zbek tillarida frazeologizmlarning so'zma-so'z to'g'ri keluvchi ko'pgina turlari mavjud. Masalan: *to play with fire* – o't bilan o'ynashmoq.

Frazeologizmlarni tarjima qilish chog'ida shuni yodda saqlash kerakki, har qanday tilning frazeologizmi shaxsning ichki his-hayajonini ifodalash xususiyatiga ega.

Frazeologik birikmalarni obrazli asosda tarjima qilishda, aniq namunalar, qoidalar mavjudki, buning to'rt xil yo'lini ko'rsatish mumkin:

1. Umumiy obrazlilikni saqlash.
2. Obrazlilikni qisman o'zgartirish.

3. Obrazlilikni umuman o`zgartirish.

4. Obrazlilikdan voz kechish.

• *Fingers have light* – qo`li qing`irning – dili qing`ir.

• *Fingers beepers, loses meepers* – topgan gul, topmagan piyoz.

• *Fiddle while Rome is burning* – kimga to`y, kimga aza.

• *First think then speak* – oldin o`yla, keyin so`yla.

Umumiy bir tarzda aytganda, frazeologik birikmalarni tarjima qilish hammavaqt ham oson emas. Frazeologik birikmalarning ko`pchiligi emotsional va ekspressiv ma`no tashiydi va milliy xususiyatga ega bo`ladi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Frazeologik birliklar tilimizni ta'sirchan, mazmunli hamda jonli bo'lishini ta'minlovchi birliklar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday birliklarni nutqda qo'llanilishi so'zlovchining intellektual salohiyatini belgilab bergani bois, ularni nutq momentida, qolaversa badiiy talqinda bajaradigan funksiyalarini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Har qanday iboralar uchun xos bo'lgan muhim funksiyalar mavjud bo'lib, ular nominativlik, kommunikativlik hamda kognitivlik funksiyalaridir. Nominativ funksiya iboralarning moddiy dunyodagi ma'lum bir obyektlar, harakat yoki holatlarni nomlash yoki ifodalab kelishida namoyon bo'ladi. Iboralarning kommunikativlik funksiyasi esa nutq jarayonida ma'lum bir fikr ifodalash, ma'lum bir ma'lumotni tinglovchiga yetkazish uchun foydalaniladi va bu ularning kommunikativ birlik ekanligini tasdiqlaydi.

Nominativ funksiya bilan bevosita bog'liq bo'lgan funksiya bu kognitiv funksiya hisoblanadi. Chunki borliqdagi narsa-predmetlarni jamiyatda tushunganimizdek aks ettiramiz. Ular ongimizda o'z inikosini topadi. Iboralar ham xuddi til kabi ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Chunki iboralar ma'lum bir jamiyatda, ma'lum bir shaxslar tomonidan kashf etiladi va mana shu jamiyatda kommunikativ vosita sifatida foydalaniladi.

Iboralar uchun xos bo'lgan o'zgaruvchan funksiyalarga semantic funksiya, volyuntativ funksiya, deytik funksiya, pragmatik funksiya, stilistik funksiya kabilari kiritiladi.

Stilistik funksiya aksariyat so'zlashuvda qo'llaniladigan iboralari uchun xos bo'lib, ular ma'lum bir voqea-hodisa yoki narsa-predmet haqida xabar yetkazish bilan bir qatorda unga qo'shimcha emotsional –ekspressiv bo'yoq yuklaydi.

Shuningdek, rus tilshunosi Gavrin talqiniga binoan iboralar yana nutq momentida, nutqni ixchamlashtirish, obrazli ifodalash, baholash bir qator muhim funksiyalar bajaradi.

Iboralar nutq momentida ham badiiy matnda qo'llanilganda ham ikki xil uzual va okkazional holatda qo'llanilishi mumkin. Ya'ni iboralarning uzual ma'nosi uning lug'atda aks etgan ma'nosi bo'lsa, okkazional ma'nosi frazemaning ma'lum bir nutq momentida yoki matnda anglatib kelayotgan ma'nosi hisoblanadi. Iboralarni okkazional xususiyatlarini birinchilardan bo'lib, rus tilshunosi A.V.Kunin tadqiq etgan. Uning ta'limotiga binoan iboralar to'rt xil usulda qo'llanilishi mumkin bo'lib, birinchi va ikkinchi darajali uzual ifodalanish iboralarning lug'aviy ma'nosiga asoslansa, birinchi darajali okkazional ifodalanish iboralar ma'nosidagi turli xil o'zgarishlarni taqqozo etadi. Ikkinchi darajali okkazional ifodalanish bo'lsa iboralar tarkibini umuman o'zgartirib yuboradi. Bunday ifodalashni tilshunosi Nachischione "portlash" deb ham atagan. Iboralar tarkibidagi okkazional o'zgarishlarni tahlil qilish zamonaviy ingliz frazeologiyasidagi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki aynan iboralarning okkazional qo'llanilishini tahlil qilish yordamida matndagi ichki ma'no yoritilib, ekspressiv–stilistik xususiyatlari ochib beriladi va pragmatic keng ko'lamda qo'llanilish tadqiqiga yo'l ochiladi.

III BOB

IDIOMALAR TASNIFI HAMDA ULARNI O'QITISHNING ZAMONABIIY TEXNOLOGIYALARI

3.1. Idiomatik sinonimya

Sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo'lib, iboralar orasida ham keng tarqalgan. Buyuk frazeolog tilshunos A.B. Kunin frazeologik sinonimlarga quyidagicha ta'rif bergan: "Frazeologik sinonimlar bu koreferent frazeologizmlar bo'lib, bir grammatik sinfga kiruvchi, umumiy hamda differensial semantik komponent larga ega bo'lgan, stilistik jihatdan o'xshash va noo'xshash bo'lgan birliklardir ⁴⁴.

Ikki iborani sinonim deb atash uchun ular aynan bir ma'noni anglatishi shart. Ammo bu bir ma'nolilikni teng ma'nolilik deb tushunish noto'g'ri. Harbir sinonim, shu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma'no o'zanidan tashqari, o'ziga xos ma'no qirrasiga, uslubiy-funksional xususiyatlariga ham ega bo'ladi⁴⁵.

Sinonimlar odatda bir yoki bir necha jihatdan farqqa ega bo'lishi mumkin bo'lib, shulardan biri ma'no qirrasidagi farqdir. Masalan ingliz tilida so'zlashuv uslubida keng tarqalgan "lower one's credit" va "blot one's copybook" (nomiga dog' tushirmoq) iboralari aynan bir ma'noni anglatishi, bir xil (so'zlashuv) uslubiga xoslanaganiga qaramay, bu sinonimlar ichki ma'no qirradi jihatidan o'ziga xosliklarga ega, ya'ni ikkinchi iboralarda ma'no bir qadar kuchli. Buni uslubiy bo'yoqdorlik bilan izohlash mumkin. Lekin ularning umumiy denotativ ma'nosi bir xil bo'lmasligi uchun sinonim deb atash mumkin.

Sinonim iboralarni bir iboraning variantlaridan ajratish lozim buning uchun iboralarning so'z komponentlariga diqqat qilish lozim. Leksik tarkibida aynan bir so'z qatnashmaydigan iboralarning sinonim ekani shubha

⁴⁴ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс+, 2005. – 466с.

⁴⁵ Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. – М.: Просвещение, 1978.-160с.

tug'dirmaydi⁴⁶. Masalan: like a bat out of hell- go like a bomb-in a crack (bir zumda, tezda) iboralari sinonim ekanligiga hech qanday shubha yo'q. Lekin shuni unutmaslik kerakki sinonim iboralar leksik tarkibida biror komponent ayni bir so'z bilan ifodalangan bo'lishi mumkin. Ammo bunda iboralar tarkibidagi boshqa-boshqa so'z bilan ifodalangan komponentlar o'zaro sinonim bo'lmasligi shart. Aks holda bir iboraning variantlariga teng bo'ladi. Masalan: on one's own-under one's own power of one's own hat (mustaqil ravishda) sinonimik qator tarkibidagi "own" so'zi takrorlanayotganiga qaramay ular variantdosh emas, sinonim birliklar hisoblanadi. Chunki variantlanish alohida hodisa hisoblanib bunda ibora boshqa bir iboraga aylanmaydi, bir iboraga xos obraz birligi lug'aviy ma'no birligi saqlanadi. Variantlanish iboraga xos yaxlitlikning o'z doirasida, shu yaxlitlik yo'l qo'ygan darajada voqe bo'ladi⁴⁷. Masalan, be on smb's back-get on smb's back (kimningdir boshiga chiqib olmoq); bad egg- bad hat (iflos, past odam) birliklari variantdosh iboralardir.

Frazeologik sinonimlar bilan variantlar o'rtasida ko'pgina umumiy tomonlar mavjud. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, frazeologik sinonimiya variantdoshlikka nisbattan ancha keng tushunchadir. Frazeologik sinonimlar va frazeologik variantlar ingliz tilining kuchli tasviriy uslubiy manbalari sanaladi. Shuning uchun lug'atlarda frazeologik sinonimlar ham frazeologik variantlar ham o'z aksini topishi lozim. Variantdosh iboralarni sinonim iboralardan farqlash frazeologik stilistikaning eng muhim masalalaridan biridir. Bu hol ayniqsa sinonim iboralarning uslubiy tarmoqlanishi haqida so'z yuritilayotganda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinonimiya—ma'no va shakl asosida belgilanadigan hodisa. Ayni bir ma'nolilik monosemantik frazeologik birliklarda ibora bilan ibora orasida belgilanadi. Agar sinonimik munosabatga polisemantik ibora qatnashsa iboradan

⁴⁶ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс+, 2005. – 468с.

⁴⁷ Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. – М.: Просвещение, 1978.-160с.

emas, balki konkret frazeologik ma'nodan kelib chiqish lozim⁴⁸. Chunki har bir frazeologik ma'no o'zicha sinonimga ega bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin. Masalan "feel one's oats" polisemantik iborasini olsak, birinchi ma'nosi "o'ynoqi, chopqir bo'lmoq" bo'lib tulporlarga nisbattan qo'llaniladi va hech qanday sinonimga ega emas. Ikkinchi ma'nosi bo'lsa insonlarga nisbattan "sho'x, hazilkash bo'lmoq" bo'lib "make good cheer" iborasi bilan sinonim hisoblanadi.

Sinonimik munosabatga qatnashuvchi (bir sinonimik uyaga birlashuvchi) iboralarning miqdori ham har xil: ko'pchilik uyalar ikki sinonimli, uch sinonimli uyalar ham anchagina, to'rt iborani birlashtiruvchi uyalar ham mavjud.

Masalan ingliz so'zlashuv uslubiga xos sinonim iboralar: rough as bags-bad hat (dag'al, qo'pol) give smb down the blanks- lay the blast (tanbeh bermoq); be up in the air- get off one's bike-hit the ceiling (qattiq g'azablanmoq); cool beggar- cool car customer-smart Aleck (surbet); to be out of one's box-go out of one's mind-to be soft in the head-addle brained-go nuts (aqlidan ozgan, esini yegan).

Frazeologik uyalar tarkibiga turli ko'rinishli hamda turli xususiyatli frazeologik birliklar kiritilishi mumkin⁴⁹:

1) Umumiy komponentlarga ega bo'lgan frazeologik sinonimlar: *have a head on one's shoulders -have one's head screwed on (the) right way* – tushunadigan, aqli raso, zehnli; bunday frazeologik qatorlar analogiya asosida vujudga keladi.

2) Ma'nodosh hamda ma'nodosh bo'lmagan komponentlarga ega bo'lgan frazeologik sinonimlar: *(as) clear as day (day—light)-(as) plain as a pikestaff (as the nose on your face)* –kunday ravshan, ochiq-oydin; *(as) crazy as a fox - (as) mad as a march hare (as a hatter)* esi og'gan, jinni; clear va plain, crazy va mad so'zlari ma'nodosh so'zlar hisoblanadi.

⁴⁸ Кунин А.В. Основные понятия фразеологии как лингвистической дисциплины и создание англо-русского фразеологического словаря: автореф. дис. д-ра филол. наук – М., 1964. –38 с.

⁴⁹ Егорова Т.И. Фразеологизмы со значением качественной оценки действий и манеры поведения человека // Вестник Омского университета. – Омск, 1998. - № 2.-С. 15-19.

3) Umumiy komponentlarga ham, ma'nodosh komponentlarga ham ega bo'lmagan frazeologik sinonimlar: down at heel-out at elbow-bechorahol, isqirt kiyingan; in a crack-like a bat out of hell (bir zumda, ko'z ochib yumguncha); Frazeologik qatordagi sinonim iboralar umumiy bir ma'noni anglatishiga qaramay har doim ham birining o'rniga ikkinchisi qo'llanila olmaydi. Chunki har bir ibora o'ziga xos emotsionallikga, uslubiy semalariga ega bo'ladi. Sinonimlik uchun xos bo'lgan umumiy ma'no semalaridan tashqari o'ziga xos ma'no qirralarini o'zida mujassamlashtiradi. Masalan an eager beaver hamda ball off fire sinonimlari uchun umumiy sema, "tinib tinchimas" lik bo'lsa, birinchi birlik ko'proq tirishqoq, serharakat ishchilarga nisbattan qo'llaniladi. Ikkinchi iboramiz esa olov, uchar, epchil odamlarga nisbattan qo'llaniladi. Shuning uchun ularni uslubiy xoslangan tarzda qo'llash shart.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish mumkinki, antonimlik va sinonimlik hodisalarini o'rganish ingliz tili frazeologizmlarini kengroq tushunishga hamda ularning o'zaro semantik stilistik munosabatlarini kengroq ochib berishga asos bo'lib xizmat qiladi. Antonimik va sinonimik munosabatlar frazeologik iboralar uchun xarakterlidir. Aynan mana shu ma'no munosabatlari tufayli frazeologik birliklarning ma'noviy paradigmalarini tuzish, hamda ularni semantik jihatdan izohlash, uslubiy o'ziga xosliklarini ifodalab ko'rsatishimiz mumkin.

3.2. Idiomatik omonimya

Iboralarda polisemiya muammosi bilan omonimlik muammosi bevosita bog'liq hodisalar sanaladi. Agar ikki frazeologik iboralar ma'nolari orasida umumiy invariant belgi mavjud bo'lmasa, bunday birikmalar o'zaro omonim birliklar hisoblanadi. Idiomatik omonimiya ko'pincha polisematik iboralar ma'nolari orasidagi bog'lanishning uzilib ketishi natijasida paydo bo'ladi. Shuningdek omonimlik frazeologizmlarning turli etimologik tarixga ega bo'lishidan ham paydo bo'lishi mumkin⁵⁰.

⁵⁰ <http://www.grammar.ru>.

Masalan: to keep one's end up:

- 1) taslim bo'laslik, umidsizlikka tushmaslik;
- 2) va'dasining ustidan chiqish;

Bu ikki ma'no orasida hech qanday bog'lanish kuzatilmaydi. Ba'zi shunday frazeologik omonimlar mavjudki ular ma'nolari orasida qarama-qarshilik ham kuzatiladi:

Hard case-1) axloqi buzuvchi kishi, ashaddiy jinoyatchi;

- 2) boqib yuruvchi, aysh –ishrat shaydosi;

Berilgan misollarimizning badiiy asarda ifodalanishi ham fikrimiz dalili bo'la oladi.

- 1) Mrs.March:She's not hard case yet; but she will be.

Johnny: And Why? Because all you matter –of –fact people make up your mind to it.(J. Galsworthy, "Windows ", act II, p.186)

- 2) He was a digger, a humorous and good-hearted "hard case". (H. Lawson, "Joe Wilson's Mates", "A wild Irishman", p.276)

Frazeologik iboralarda omonimiya hodisasi juda kam uchraydigan hodisa hisoblanadi. Shuningdek frazeologizmlar omonimiyasi erkin birikmalar omonimiyasidan bir necha jihatlari bilan ya'ni ma'no, shakl hamda son jihatdan farqlanadi. Frazeologik iboralar komponentlari bir-biridan paradigmatic va sintagmatic munosabatlari bilan o'zaro farqlanishi bilan ajralib turadi. Bunga bir necha omillarni sabab qilib ko'rsatishimiz mumkin:⁵¹

-birinchidan frazeologik ma'no ustama ma'no bo'lgani sababli nisbattan serqirra, murakkabroq tuzilishga ega bo'ladi;

⁵¹ <http://www.grammar.ru>.

-erkin birikmalarda struktur-grammatik imkoniyatlar frazeologik iboralarga qaraganda ko‘proq bo‘ladi;

- frazeologik birliklar omonimligida ma’lum bir ibora tarkibida birdaniga bir necha so‘zlar mos kelishi kerak bo‘ladi;

Umuman frazeologik omonimiya bir necha omillar ta’sirida vujudga kelishi mumkin⁵²:

- 1) polisemantik birliklar ma’nolari orasidagi bog‘lanishning yo‘qolib ketishi;
- 2) turg’un birikmalarning takroran metaforizatsiyaga uchrashi;
- 3) erkin birikmalar ma’nolarining turg‘unlashishi;
- 4) frazeologik birikmalar o‘xshashligining buzilishi;

Idiomatik omonimiya ma’lum bir iboraning ikki ma’noda ishlatilishi, shuningdek ma’lum bir iboraning ikkitadan ko‘p ma’noda ishlatilishi natijasida kuzatilishi mumkin. Masalan, go into orbit frazeologik birikmasini tahlil qiladigan bo‘lsak, birinchi ma’nosida “ulkan muvoffaqiyat qozonmoq” bo‘lsa ikkinchi ma’nosida “g‘azablanmoq”, degan ma’nolarni anglatib keladi. Ana shu jihatlarni hisobga olgan holda frazeologik birliklar omonimligi kam uchraydigan hodisa ekanligiga yana bir bor amin bo‘lamiz

3.3. Idiomatik antonimya

Frazeologiyada antonimlikni biz lingvistik hodisa va sinxronlik planidagi til birliklarining ichki tizimiy munosabatlari ma’no aloqalarini tadqiq etish aspektlaridan biri sifatida qaraymiz.

Frazeologik antonimlar tahlili ma’lum frazeologik iboralarning strukturali ma’no va stilistik xususiyatlarini ochib beradi. Antonimlik va frazeologizmlarni o‘rganish frazeologik iboralar variantlilik va sinonimlik munosabatlar mavjudligi kabi bir qator hodisalarni tushunishga yordam beradi.

⁵² Christen. “State of Matrimony”, Washington, 1543

Antonimlik ma'no aloqa turlaridan biri bo'lib, u yoki bu so'z yoxud so'z birikmalarini ma'no aspektini qarama qarshi qo'yish natijasida yuzaga keladi⁵³.

Masalan, so'zlashuv frazeologizmi –work one's fingers to the bone (ishyoqmaaslik qilmoq, ishsiz o'tirmoq)-twiddle one's thumbs birligiga qarama-qarshi qo'yilsa, ular bir narsani, kishining mehnatga munosabatini bildiradi, faqat bir holda –bu to'la ishchanlik, ikkinchi holatda esa to'liq ishlamaslik holatini ifodalab keladi:

1. "Doesn't he drink every penny he can borrow or steal, and leave me to support the brat in my arms, which, Heaven be praised, is non o'mine, but of the strumpet as consorted with him afore he persuaded me to have him? Don't it work my fingers to the bones for lazy spalpeen? Don't I ... "(J. Greenwood, The True History of a Little Ragamuffin, ch. XX, p. 74).
2. I've got to be busy. I can't sit down and twiddle my thumbs (F.Norris, The Pit, ch. VII, p.506).

Frazeologik antonimiyada frazeologizmlarning semantik qarama qarshiligini aniqlovchi differensiatorlar mavjud bo'ladi. Antonim differensiatori bu frazeologik antonimlarning ma'noni farqlash belgilarining rasmiy ifodalanishidir. Ma'noni farqlash belgilari frazeologizmlarning ma'lum ma'nolarini bir necha leksikografik manbalarga binoan kontekst orqali tekshirish tahlili natijasida ajratiladi. Ular quyidagi belgilarga qarab farqlanadi⁵⁴:

- 1) ma'nosi butunlay tushuniladigan ikki antonim so'z yoki tarkibida frazeologizmlar ma'nosini tushuntiradigan so'z birikmalari bo'lgan antonim so'zlar: an ill hour-in agood hour; a hard nut to crack-child's play;
- 2) ikki so'z birikmasi, bir holda tasdiq ikkinchisida inkor: keep off the grass-(boshqalar ishiga burnini suqmaslik)-poke one's nose into smb's affairs

⁵³ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс+, 2005. – 464с

⁵⁴ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс+, 2005. – 154с

(boshqalar ishiga burun suqish); as clear as mud(qorong‘u, noaniq)- as clear as a day(ochiq, ravshan;)

3) bir-biriga semantik jihatdan qarama qarshi bo‘lgan ikki so‘z birikmasi-frazeologizm yoki so‘z va so‘z birikmasidan biri mumkin bo‘lgan antonimiga sinonim frazeologizm bo‘lishi mumkin, boshqasi erkin so‘z birikmasi yoki mustaqil so‘z bo‘lishi mumkin: to one’s teeth (ochiqchasiga, kimningdir yuziga)-behind one’s back (orqasidan); call a spade (oddiy va tushunarli so‘zlamok)-beat about the bush (mavzuni aylantirmok, aniq so‘zlamaslik);

Bunday ma’no farqlovchi belgilar u yoki bu frazeologik antonimlarning antonimik differensiatori bo‘ladi va ularni bemalol frazeologik antonimlar qatoriga kirita olamiz.

Frazeologik iboralar antonimiyasi leksik antonimiyadan farqlanib, o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, belgini darajalab ko‘rsatish mumkin bo‘lgan holatlarni ifodalayotganda, belgining har ikkala tomoni (musbat-manfiy) orasida oraliq frazeologik iboralarni belgilab ko‘rsatish mumkin.

A.B. Kunin ingliz tilida frazeologik antonimlarning quyidagi semantik turlarini ajratib ko‘rsatgan:

1) „boshlamok-tugatmok“ tipli frazeologik iboralar: put smth on foot (biror nimani boshlamok); get the ball rolling- (ilk qadamni tashlamok)-ring down the curtain- biror nimani tugatmok, nuqta qo‘ymok;

Bu ikki ma’no orasida keep the ball rolling (biror nimani davom ettirmok) ma’nosining mavjudligi ma’nonig darajalab ko‘rsatilayotganidan dalolat beradi.

2) “Harakat va harakatni tugatish” tipidagi antonimlik juftliklar: loosen one’s purse strings (saxiylik qilmoq)- tighten one’s purse strings (ziqnalik qilmoq).

3) ”yaxshi-yomon”, “to‘g‘ri-noto‘g‘ri”, “vijdonan-noinsoflarcha”, kabi ma’nolarni ifodalovchi birliklar: come to the right shop (to‘g‘ri yo‘ldan bormok) - come to the wrong shop (noto‘g‘ri yo‘ldan bormok); earn an honest penny

(o'zining mehnati bilan erishmoq)-live by one's wits (birovning hisobidan ishini o'nglamoq); fair play- (adolatli o'yin, ish)- foul play (g'irrom o'yin, ish);

4) "katta-kichik" tipli frazeologik iboralar: miqdorni anglatuvchi birliklar: as plenty as blackberries (serob, mo'l-ko'l)- as scarce as hen's teeth (anqoning urug'i);

Masofani anglatuvchi birliklar: at close quarters, cheek by jowl, at one's elbow, under one's nose (yaqinida, burnining tagida)- a far cry from (uzoqda, olisda); as heavy as lead (zilday og'ir)- as light as flight (parday yengil);

Abstract belgilarni ifodalovchi birliklar: child's play (yengil, bir zumlik ish)- Herculean task (og'ir, qiyin ish);

5) Turli xil antonimlar, boy-kambag'allikni, chiroyli-ko'rimsizlikni, ifodalovchi shuningdek insonning kayfiyatini ko'rsatuvchi, emotsional-intellektual xususiyatlarini ko'rsatuvchi antonomik iboralarni uchratishimiz mumkin.

Masalan, rough as bags (qo'pol, dag'al)-good cheer (hazilkash); an eager beaver (serg'ayrat, tirishqoq)-tame cat (sust, lattachaynar)

Frazeologik antonimlar tilning leksik tarkibiga mos kelishi yoki mos kelmasligi mumkin.⁵⁵ Har ikkala holatda ham, ularning tarkibiga erkin qo'llanila oladigan antonimlar ishtirok etgan bo'lishi mumkin: fair play – foul play; with a heavy heart – with a light heart, as gentle as a lamb – as hard as nails and so on.

Frazeologik antonimlar xuddi frazeologik sinonimlar kabi bir uslubga xos yoki turli uslublarga xos bo'lishi mumkin⁵⁶. Bir uslubga xos frazeologik antonimlar ekspressiv-emotsional xususiyatlari bilan bir-biridan farq qilmaydi, masalan faqat so'zlashuv uslubiga xos frazeologizmlar antonimligi kuzatsak: good name (yuqori obro'-e'tibor)-bad name (obro'-e'tiborsiz); in commission(ishga yaroqli)-out of commission (ishga yaroqsiz); neytral

⁵⁵ <http://www.grammar.ru>.

⁵⁶ Башиева С.К. Стилистический компонент фразеологического значения: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Краснодар: КГУ, 1995. – 23 с.

frazeologik iboralar antonimligi: bring up to date (zamonaviylashtirmoq)-go out of date (eskirmoq, zamondan qolmoq);

Turli uslublarga xos bo'lgan frazeologik antonimlar bo'lsa turli funksional uslublarda qo'llanila olishi bilan bir-biridan farqlanadi⁵⁷. Masalan loose heart (umidsizlikka tushmoq) umumadabiy birligi bilan, so'zlashuv uslubiga xos, keep one's chin up (tushkunlikka tushmaslik) birligi antonimik munosabatga kirishadi. Yoki come up in the world (dunyoga kelmoq) adabiy birligi bilan, kick the basket (narigi dunyoga ravona bo'lish) so'zlashuv frazeologizmi, good nature (oq ko'ngil) neytral iborasi bilan bad egg (iflos, past odam) so'zlashuv frazeologizmi antonimlik munosabatiga kirishishi mumkin.

Frazeologik antonimlar antonimik uyalar, qatorlar va guruhlar tarkibiga kiradi.

Antonomik uyalar tarkibiga, antonim komponentlarga ham, umumiy komponentlarga ham ega bo'lgan birliklar kiritiladi: *be quick in the uptake* (biror narsani tezda anglamoq, fahm etmoq)- *be slow in the uptake* (tezda tushumaslik, anglamaslik); *come to the right shop* (to'g'ri yo'ldan bormoq) - *come to the wrong shop* (noto'g'ri yo'ldan bormoq); *with a bad grace* (iltifotsizlarcha, dag'al)- *with a good grace* (iltifotli, xushmuomala).

Antonimik qator tarkibiga faqat antonim komponentlarga ega bo'lgan birliklar kiritiladi: *as drunk as a lord* (o'lguday mast)-*sober as a judge* (tetik, hushyor); *to smb. 's face* (ochiqchasiga, yuziga) – *behind smb's back* (orqasidan)

Frazeologik antonomiyada, iboralar ma'lum bir qatorlarni tashkil qilar ekan, bu antonim qatorlar o'z navbatida quyidagi differensial belgilar bilan bir-biridan farqlanadi:

1) antonimik qator bo'laklari tuzilishi;

⁵⁷ Башиева С.К. Стилистический компонент фразеологического значения: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Краснодар: КГУ, 1995. – 23 с.

2) antonimik qator bo‘laklari o‘rtasidagi ichki aloqalar;

3) antonimik qator bo‘laklarining soni;

Tadqiq etiladigan frazeologizmlar tahlilining ko‘rsatishicha, butunlay o‘z leksik tuzilishi bilan farqlanadigan birliklar qarama-qarshi qo‘yiladi: rich as Croesus (badavlat)–poor as church mouse (kambag‘al); common or garden (oddiy, behasham)-arty and crafty (serhasham, jimjimador); cost pretty penny (qimmatbaho)- on the cheap (arzon garov) yoki o‘z tarkibida boshqa turli bo‘laklar ichida bitta umumiy bo‘lak bo‘lgan birikmalar: come up in the world (dunyoga kelmoq)-come down in the world (hayotdan ko‘z yummoq); in commission- out of commission;

Antonimik juftliklardagi frazeologik birliklarning semantik jihatlarini hamda uslubiy xususiyatlariga ko‘ra turlicha ichki munosabatlarni ifodalab kelishi mumkin, ya’ni⁵⁸:

-agar ikkita bir xil ma’noli, semantik teng frazeologizmlar qarama-qarshi qo‘yilsa ichki aloqalar bir xilda bo‘ladi: on the one hand – on the other hand; come to the right shop-come to the wrong shop, a clever dog – a wooden head;

-agar ikkita ko‘p ma’noli stilistik teng bo‘lmagan hamda, qo‘llanilish doirasi bilan bir-biridan farqlanadigan frazeologizmlar, ikki yoki undan ortiq frazeologizmlar qarama qarshi qo‘yilsa, ichki aloqalar ko‘p qirrali bo‘ladi: as cold as stone, keep a calm sough (jim turmoq, kam gapirmoq)-talk nineteen to the dozen (tinimsiz gapirmoq);

-agar bir ma’noli frazeologizmlar ko‘p ma’noliga qarama-qarshi qo‘yilsa, ichki aloqalar bir o‘lchovli va ko‘p o‘lchovli bo‘lishi, shuningdek antonimik qator bo‘laklari ichida stilistik jihatdan teng yoki noteng bo‘lgan, bir xil turlicha qo‘llanilgan bir ma’noli yoki ko‘p ma’noli frazeologizmlar bo‘lishi mumkin: be/put in the cart - be in queer street- bury the hatchet – fall foul of; be at pains –

⁵⁸ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс+, 2005. – 466с.

sit on one's hands; sit on one's hands – give somebody a big hand; give somebody a big hand – give somebody the bird.

Turli tuzilishga ega frazeologik antonimlarning antonim qatorlariga turli his-tuyg'uli va stilistik xususiyatlar xos bo'lgan turli leksik tarkibli frazeologik sinonimlar, frazeologik strukturali sinonimlar kiradi. Frazeologik variantlar yangi antonim hosil qilmaydi, ular berilgan bir juft frazeologik antonimlarning frazeologik variantlari bo'lib hisoblanadi: ride out (yoki weather/the storm – go (yoki run) on the rocks; as scarce as hen's teeth – as thick as hops yoki as blackberries, (amer. huckleberries). Antonimik qatorni tashkil etuvchi frazeologik birliklarning strukturali-semantik xususiyatlariga ko'ra frazeologizmlarning antonimik qarama-qarshi qo'yish usullari belgilanadi.

III.4. Idiomalarning o'qitishning zamonaviy texnologiyalari

Idiomatik biriklar tilning lug'at tarkibidagi boshqa so'zlardan o'zining turg'unligi, nutq jarayonida tayyor birikma sifatida ishlatilishini hisobga olgan holda, ularni o'qitish va o'rganishda bir qancha muammo va qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Idiomatik biriklarni o'rganishning eng samarali va oson usuli ma'lum asar, hikoya, umuman olganda, badiiy asarlarni tarjima qilish orqali o'rganish hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida frazeologik birikmalarni o'qitishda ma'lum matnlarga tayangan holda dars olib borish samarali bo'ladi deb hisoblaymiz. Chunki bu jarayon davomida o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda iboraning mavjud bo'lmagan yoki lug'atlarda keltirilmagan ma'nosini kashf qilishi mumkin. O'rganilgan idiomatik biriklarni har dars davomida yod olib borish ularni uzoq muddat o'quvchi yodida turishiga zamin hozirlaydi. Idiomatik biriklarni yod olishning yana bir usuli o'rganilgan frazeologik birikmalar ishtirokida gaplar, kichik matnlar, dialoglar va hikoyachalar tuzish hisoblanadi. Dars davomida esa ularni mustahkamlash maqsadida ko'plab mashqlar tizimidan foydalaniladi.

Bularning barchasi idiomatik biriklarning leksik, grammatik ma'nolariga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bundan kutilayotgan natija esa o'quvchilarda idiomatik biriklar bo'yicha zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Xorijiy tillarning frazeologik birikmalarni oson va to'g'ri o'rganish uchun o'quvchi o'z tilining idiomatik biriklar idan yaxshi xabardor bo'lishi kerak, aks holda biz ko'zlagan maqsadga yetishimiz qiyin bo'ladi. Idiomalarni esda oson saqlab qolishi uchun inglizcha idiomani o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilish emas, balki uning o'zbekcha muqobillarini izlaymiz. Masalan, "There is safety in numbers" – o'zbekcha muqobillari

A) Kuch birlikda

B) Ko'pchilik biriksa, tog'ni qulatar

Ikkinchi bosqichda bu ibora tarkibidagi so'zlar miqdorining o'zbek tilidagi variantiga solishtiramiz. So'zlar miqdorining ortib ketishi yoki kamayib ketishi holatlarini kuzatamiz.

Uchinchi bosqichda o'quvchilarga idiomalarni tez va oson esda saqlab qolishlari uchun idiomaga mos tarzda situatsiyalar tuzilib, nutqiy kontekstda foydalanib ko'riladi. Idiomalarni yuqorida aytilgandek o'rgatilsa, ularni o'rganish bir qadar osonlashadi.

Bunga qo'shimcha ravishda turg'un birikmalarni har bir dars mavzusiga bog'liq ravishda o'rgatib borish ham mumkin. Misol uchun, mevalarni o'rgatish mobaynida mevalar, ranglarni o'rgatish jarayonida ranglar, hayvonlarni o'rgatish mobaynida hayvonlar bilan bog'liq idiomalarni o'rgatib borish ham ancha samaralidir.

English idiom		Word by word translation	Equivalency form in Uzbek	Interpretation
Idioms on colour	As white as a ghost/ as white as sheet	arvohdek oq	dokaday oq	Very pale because of fear or shock or illness

	Green with envy	Hasaddan ko'karmoq	Hasaddan kuymoq/rashk o'tida yonmoq	To be very jealous / to be full of envy
Idioms on animal	As hungry as a bear	Ayiqdek och	Och bo'riday	Very hungry
	A bull in a china shop	Xitoy do'konidagi buqa	Ataladan chiqqan suyak	A tactless person who upsets others or their friends
Idioms on body	Apple of (someone's) eye	Ko'zining olmasi	Ko'zining oqu qorasi	Someone's favourite person
	Eyes are bigger than one's stomach	Ko'zlar oshqozondan ko'ra kattaroq	O'zi to'ysa ham ko'zi to'ymaydi	One takes more food than one can eat
Idioms on fruits	Hard nut to crack	Kesgani qattiq yong'oq	Tish o'tmaydigan narsa / epga solib uddalab bo'lmaydigan odam	A difficult person or thing to deal with or get to know
	Rotten apple	Chirigan olma	Tirroqi buzoq	A bad person

Iboralarni nutqda qo'llash bu o'sha xalqning o'ziga xosdir. Ikkinchi til sifatida o'rganuvchilar uchun o'sha tilning idiomalarini o'rganmaslik – bu katta muammo emas. Ammo, ingliz tilidagi asarlarni o'qiyotgan paytimizda idiomalarning asl ma'nosini anglab yetmaganligimiz sababli ta'sirchanligini his

qilish imkoniyati yo'qoladi. Iboralarni o'rgatish bilan bog'liq qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun yuqorida aytib o'tganimizdek bosqichma – bosqich va ta'lim muassasasining darajasiga qarab amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda turg'un birikmalarni tarjima qilish dolzarb muammo bo'lib kelmoqda. Inglizcha kitoblarni o'zbek tiliga tarjima qilishdagi iboralar bilan bog'liq nomuvofiqliklarni kuzatish mumkin. Ingliz tilidagi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish yoki aksincha o'zbek tilidagi asarlarni ingliz tiliga tarjima qilish mobaynida idiomalarni mos variantda tarjima qilmaslik o'sha asarning ekspressivligini, hissiy ta'siriy bo'yoqdorligini, badiiyatini yo'qotadi. Shuning uchun ham inglizcha idiomalarni o'rganish o'sha xalqning madaniyatidan xabardor bo'lishga va tarjimalar bilan bog'liq muammolarni yo'qolishiga yordam beradi.

Hozirgi kunda ingliz tilini biluvchilar chet mamlakatlariga tashrif buyurganlarida va o'sha yerlik odamlar bilan muloqotda bo'lganlarida bir qancha iboralardan foydalanish bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqdalar. Boisi, idiomatik ifodalar va iboralarni ingliz tilidan o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilinsa, asl ma'nosi yo'qoladi. Masalan, "Every dog has his day". Agar bu iborani so'zma-so'z tarjima qilsak, "Har bir itning o'z kuni bor" tarzida bo'ladi. Vaholanki, bu iboraning asl ma'nosi o'zbek tilida "Biz tomondan ham quyosh chiqib qolar" tarzidagi muqobiliga mos keladi. Aniqroq ko'rsatish uchun yana bir misol olaylik, "Best mirror is an old friend". Bu ifodaning to'g'ridan-to'g'ri tarjimasi "Eng yaxshi ko'zgu eski do'st" va uning o'zbekcha muqobili quyidagicha "Chin do'st aybingni yuzingga aytadi/ Do'st achitib gapiradi". Ko'rinib turibdiki, idiomalarni so'zma-so'z tarjima qilish, idiomaning ma'nosini o'zgartirib yuborishi va tarjima bilan bog'liq muommolarni yuzaga keltiradi.

Quyida shunga o'xshash mashqlarning bir qanchasini keltirib o'tamiz.

1-mashq. *Frazeologik birikmalarni yozing. Ularni erkin va turg'un birikmalar, frazeologik chatishmalarga tasniflang.*

1) June saw she had played a wrong card and broke down. 2) He took a look at her, she was smiling. 3) She has got some silly bee in her bonnet about Eliza. 4) Ah, there you have hit the nail on the head. 5) Little Jon could see that he played second fiddle to her in his father's heart. 6) I couldn't forget it and I took a revenge. 7) The sooner they stop calling one another names the better. 8) His son, the apple of his eye, fell ill with scarlet fever. 9) Are you very rich? No, living from hand to mouth. 10) He must be in very low water.

2-mashq. *Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling, frazeologik birikmalarni yozing va ma'nosi bir so'zga teng keluvchi frazeologik birikmalarni ajrating. Ajratib yozilgan birikmlarga e'tibor bering.*

1) This was the time **to make the quick dash** south to the Mediterranean. 2) He **caught a glimpse** of a most singular thing. 3) The woman **cast a shy glance** full of a constraint at Ransie. 4) The elder sister, a girl of about twenty-one, **gave me a smile** and **a bright look** from her brown eyes. 5) He **took a swift turn** up and down the room. 6) When she saw me behind him, she **gave a little cry** and stood up radiant. 7) He **took a look** at her, she was smiling. 8) George knew that his papa was about **to take a nap**. 9) I **made him a bow**. 10) Miss Murdstone **gave a horse chuckle**. 11) He **gave her a sidelong look**, and found she was giving him the same. 12) Pettinger **took a drink** and offered the bottle to Jasha. 13) I had my reward in the first **glance** of admiration she ever **gave** me. 14) She **took a step** backwards and put out her hands. 15) Mantin **gave orders** to bring all the sandbags. 16) Soames **stole a glance**. 17) I **took a resolve** and lay down. 18) Miss Sharp **gave a little puff**, and a **little scream**, and a **little giggle**. 19) On the days when he does not come, she **takes a long walk** into London.

3-mashq. *Qiyoslash ma'nosidagi frazeologik birikmalarni yozing va ularni tarjima qiling.*

1) She thinks I am as mild as a kitten and as good-natured and stolid as the family cow. 2) You are as slippery as an eel. 3) The America of George Washington is as

dead as Queen Anne. 4) His hand was as cold as ice. 5) That little affair of your father-in-law and your Aunt Irene, Val – it's old as the hills. 6) He was as drunk as a lord last night. 7) No man knows better than you when to make scenes and when to be as cool as a cucumber. 8) She was as lively as a squirrel. 9) I'm hungry as the devil. 10) He is as mad as a March hare. 11) He wasn't as mute as a poker. 12) We are as cross as two sticks. 13) You are as bold as brass. 14) But can I help people seeing what is as plain as the sun in the heavens? 15) After all, I can hardly expect him to come home merry as a lark when he's been sitting for hours with a bedridden invalid. 16) You gave me books to read. But I couldn't read them: they were as dull as ditch water. 17) "When Sissy got into the school here," he persuaded, "her father was as pleased as Punch." 18) For a week Bicket had seen "the job", slippery as an eel, evasive as a swallow, for ever passing out of reach. 19) I will be silent as the grave, I swear it. 20) I wish I had your health. You look as hard as nails. 21) He is as mad as a hatter, you know, but quite harmless, and extremely clever. I only know the chap is as cool as a cucumber.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Frazeologik birliklar tilda ma'lum bir harakat, holat, belgini nafaqat nomlab keladi, balki uni baholash, undagi emotsional qirralarini, ironiya, tantanavorlik, hazil-mutoyiba, ishonmaslik, shubha kabi uslubiy nozikliklarni ko'rsatish xususiyatiga ham ega. Shu sababli iboralarning semantik talqinida, ularning stilistik xususiyatlarini alohida tavsiflab o'tish joiz. Ingliz tilida so'zlashuv iboralarini ma'noviy paradigmalariga ajratib tadqiq qilishimiz yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- iboralarning emotsionalligi bir vaqtning o'zida ikki ma'noning reallashuvi va obrazlilik natijasida yuzaga keladi;
- iboralarning uslubiy ma'nosi undagi ikki komponentdan, ekspressiv baho bo'yog'i hamda funksional uslub bo'yog'idan iborat;

- iboralarni uslubiy jihatdan farqlashda etimologik, obrazlilik, semantik, ohangdoshlik kabi bir qator mezonlar mavjud bo'lib, ularning har biri FB larni uslubiy- semantik jihatlarini yoritishga xizmat qiladi;

- iboralar o'ziga xos ifoda va mazmun planiga ega birliklar sifatida til tizimida turli ma'no munosabatlariga kirishadi, ya'ni leksik birliklar singari iboralarda ham ko'p ma'nolilik, omonimlik, sinonimlik, zid ma'nolilik va variantdoshlik kabi ma'no munosabatlari kuzatiladi;

-Frazeologik polisemiya kam uchraydigan hodisa hisoblanib, leksik birliklardan farqli ravishda iboralarda bosh ma'no ham keyingi ma'nolar ham obrazli (ustama) ma'no hisoblanadi;

-Frazeologik birliklarda ko'p ma'nolilik ma'noning kengayishi, birlik tarkibidagi metaforik o'zgarishlar, konkret ma'nodan umumiylik tomon (a lone wolf), yoki aksincha umumiylikdan konkretlik tomon (on the hole) o'zgarishlar natijasida yuzaga keladi;

-Frazeologik omonimiya polisemantik iboralar tarkibidagi umumiy invariant bog'lanishning yo'qolib ketishi natijasida yuzaga keladi.

-Frazeologik antonomiyada frazeologizmlarning semantik qarama qarshiligini aniqlovchi differensiatorlar mavjud bo'ladi. Antonim differensiatori bu frazeologik antonimlarning ma'noni farqlash belgilarining rasmiy ifodalanishidir;

-Frazeologik antonimlar xuddi frazeologik sinonimlar kabi bir uslubga xos yoki turli uslublarga xos bo'lishi mumkin. Bir uslubga xos frazeologik antonimlar ekspressiv-emotsional xususiyatlari bilan bir-biridan farq qilmaydi;

-Frazeologik sinonimlar frazeologik qator uchun umumiy ma'nodan tashqari o'ziga xos ma'no qirralariga, uslubiy xususiyatlariga ega bo'ladi;

Xulosa

Frazeologiya til va madaniyatning o'zaro aloqalarini yaqqol tushuntiruvchi tilshunoslik bilimlarining eng yuqori cho'qqisidir. Frazeologiyaning alohida fan sifatida tan olinishi bir necha bosqichlarni bosib o'tgan bo'lsada, hozirda frazeologiya o'zining ichki tuzilishi-yu, tadqiqot masalalariga ega bo'lgan alohida tilshunoslik bo'limi sifatida shakllanib bo'ldi. Undagi ko'plab muammolar hali o'z yechimini kutayotgan bo'lsada, hozirgi zamon tilshunosligida dolzarb frazeologik masalalar birin-ketin yoritilmoqda. Bizning tadqiqot doiramizga kiruvchi frazeologik iboralar kundalik aloqada bevosita suhbatdoshning fikriga ta'sir o'tkazish uchun imperativ ekspressiyadan foydalaniladi.

Iboralar o'zlarining semantik, funksional, uslubiy va sintaktik xususiyatlariga ko'ra so'z birikmalari, sodda va qo'shma gaplardan ajralib alohida bir turni tashkil etadi, ya'ni iboralarda so'z, so'z birikmalari va gapning struktur belgilari neytrallashib, yaxlitlik kasb etadi. Iboralar xalq og'zaki ijodida, kundalik muloqotda keng qo'llanilib, umuman uy-rozg'or buyumlari, kiyim-kechak nomlari, oziq –ovqat nomlari, pul birliklari, kundalik ish-harakatlarni, shuningdek insonning emotsional-ruhiy holatlarini ifodalab keladi.

Shuningdek, iboralarning tarkibiy qismida ko'pincha konotativ element yetakchilik qiladi. Chunki iboralar ob'yektiv reallikni, ma'lum voqea hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbattan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi. Iboralar larning asosiy qismi ma'no jihatdan insonga qaratilgan: ular kishining biror fizik, ruhiy, aqliy-intelektual xususiyatini, hatti harakatini baholaydi. Iboralarning denotativ ma'nosiga emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlik yuklaydi. Shu sabali iboralarni tahlil qilganda ularning uslubiy tavsifi muhim ahamiyat kasb etadi. Iboralarning uslubiy jihatdan farqlash deganda, quyidagi dolzarb masalalar nazarda tutiladi: uslubiy ma'no va uning komponentlari, iboralarni uslubiy jihatdan farqlash mezonlari, ingliz frazeologik sistemasining uslubiy qatlamlarini belgilash, ko'p ma'noli va sinonim iboralar

hamda ularning uslubiy xususiyatlari, antonim, omonim iboralar va ularning o'ziga xosliklari kabi masalalar.

Frazeologik polisemiya kam uchraydigan hodisa bo'lsa ham ingliz frazeologik qatlamida kuzatiladi. Akademik A.V Kunin tadqiqotiga binoan, faqat 3% iboralargina ko'p ma'noli hisoblanadi. Leksik birliklardan farqli ravishda iboralarda bosh ma'no ham keyingi ma'nolar ham obrazli (ustama) ma'no hisoblanadi.

Frazeologik omonimiya esa, polisemantik iboralar tarkibidagi umumiy invariant bog'lanishning yo'qolib ketishi natijasida yuzaga keladi. Frazeologik antonimiyada frazeologizmlarning semantik qarama qarshiligini aniqlovchi differensiatorlar mavjud bo'ladi. Antonim differensiatori bu frazeologik antonimlarning ma'noni farqlash belgilarining rasmiy ifodalanishidir. Barcha tur iboralar bir uslubga xos yoki turli uslublarga xos bo'lishi mumkin. Bir uslubga xos frazeologizmlar ekspressiv-emotsional xususiyatlari bilan bir-biridan farq qilmaydi.

Iboralar ni tahlil qilishda ularning funksional xususiyatlariga alohida to'xtalib o'tish joiz. Har qanday iboralar uchun xos bo'lgan muqim funksiyalar bilan bir qatorda, frazeologizmlarning o'zgaruvcham funksiyalari ham misollar yordamida ushbu tadqiqot ishimizda yoritilib berildi.

Iboralar nutq momentida ham badiiy talqinda qo'llanilganda ham ikki xil uzual va okkazional holatda qo'llanilishi mumkin. Ya'ni iboralarning uzual ma'nosi uning lug'atda aks etgan ma'nosi bo'lsa, okkazional ma'nosi frazemaning ma'lum bir nutq momentida yoki matnda anglatib kelayotgan ma'nosi hisoblanadi. Iboralarni okkazional xususiyatlarini birinchilardan bo'lib, rus tilshunosi A.V.Kunin tadqiq etgan. Kunin ta'limotiga binoan iboralar to'rt xil usulda qo'llanilishi mumkin bo'lib, birinchi va ikkinchi darajali uzual ifodalanish iboralarning lug'aviy ma'nosiga asoslansa, birinchi darajali okkazional ifodalanish iboralar ma'nosidagi turli xil o'zgarishlarni taqozo etadi. Ikkinchi

darajali okkazional ifodalanish bo'lsa iboralar tarkibini umuman o'zgartirib yuboradi.

Ingliz, o'zbek va rus tillaridagi idiomalarning semantik-grammatik va stilistik tahlil qilish quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Uchala tilda ham frazeologik birliklar semantik xususiyatlari va ma'no turlariga ko'ra guruhlariga ajratilishi ma'lum bo'ldi.
2. O'zbek tilidagi frazeologik birliklar ma'no xususiyatlarga ko'ra ikki turga: frazeologik butunlik va frazeologik chatishma kabi turlariga ajratilsa, ingliz va rus tillarida esa uch turga: frazeologik butunlik (phraseological unity), frazeologik chatishma (phraseological fusions), frazeologik qo'shilmalar (phraseological combinations or collocations) kabi turlarga ajratilgan.
3. Frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari o'rganish orqali ularda frazeologik sinonimiya, frazeologik antonimiya, frazeologik omonimiya, frazeologik paronimiya va frazeologik polisemiya hodisalari borligi aniqlandi.
4. Ma'no turlari jihatidan frazeologik birliklar asosan ikki xil: nomlovchi va ifodalovchi frazeologik birliklar borligi va har uchala tilda ham tahlil qilinganligi, va ular asosan belgi va harakat ifodalagani uchun grammatik jihatdan belgi yoki harakat bildiruvchi so'z turkumiga mansubligi aniqlandi.
5. Frazeologik birliklarda polisemiya hodisasining kuzatilishi uchala tilda ham o'rganilib ingliz, rus va o'zbek tillarida qiyosiy –tipologik tahlili amalga oshirildi.

Xulosa qilib aytganda, har bir tilda frazeologik birliklar o'ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega. Ammo barcha tillarda frazeologik birliklar til boyligi bo'lib xizmat qiladi. Kelajakda ushbu izlanish til o'rganuvchilarga mavzuni o'rganishda amaliy yordam beradi deb umid qilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyayev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz' " T "O`zbekiston" 2017 B 17
2. Karimov I.A. 1875-son qarori,—Xalq so'zi gazetasi,11.12.2012y., 240 (5660) son.
3. Karimov I.A. ning Vazirlar Mahkamasida oliy ta`lim muassasalariga bag`ishlangan yig`ilishda so`zlagan nutqidan. “Turkiston” gazetasi, 1993-yil 20-iyun
4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. —Toshkent: “Sharq”, 1997. — 34 b
5. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. — Л.: ЛГУ, 1963. — 208 с.
6. Азнаурова Э.С. Очерки по стилистике слова. —Ташкент, 1978.— С. 88
7. Арнольд И.В. Семантика. Стилистика. Интертекстуальность. — СПб.: Изд-во С.Петербург ун-та, 1999. — 444 с.
8. Арнольд И. В. Лексикология современного английского языка. — М.: Издательство литературы на иностранных языках, 1959. — 351 с.
9. Бакиева Г.Х. Семантика: содержание и выражение // Филология масалалари. — Ташкент: УзГУМЯ, 2003.- №2. — С. 5
10. Батырова Г.З. Функционально-семантический аспект окказиональных преобразований английских и русских глагольных фразеологизмов // Теория поля в современном языкознании. Материалы научно-теоретического семинара. Часть V. — Уфа, 1999. — С. 171-181
11. Башиева С.К. Стилистический компонент фразеологического значения: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. — Краснодар: КГУ, 1995. — 23 с.
12. Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. I қисм.- Тошкент: Наврўз, 1997.- 93 б.
13. Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. (Адабий

норманинг типлари). II қисм. – Тошкент: Наврўз, 1998.-133 б.

14. Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. (Адабий норманинг шаклланиш ва яшаш қонуниятлари). III қисм. Тошкент, 1999.-140 б.

15. Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. – Л.,1946. - С.61.

16. Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. – М.: Просвещение, 1978.-160с.

17. Йулдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда таракқиёти.- Самарқанд: СамДУ, 2007.- 108 б.

18. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс+, 2005. – 466с.

19. Кунин А.В. Основные понятия фразеологии как лингвистической дисциплины и создание англо-русского фразеологического словаря: автореф. дис. д-ра филол. наук – М., 1964. –38 с.

20. Кунин А.В. Внутренняя форма фразеологических единиц // Слово в грамматике и словаре, – М., 1984. – С,183-188

21. Кунин А.В. Английская фразеология (теоретический курс). – М.: Издательство «Высшая школа», 1970. – 344 с

22. Ларин Б.А. Очерки по фразеологии // Очерки по лексикологии, фразеологии и стилистике: Уч. зап. /ЛГУ. — Л., 1956. — № 198. – 201-202 стр

23. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М.: ИИЛ, 1956. – 260 с.

24. Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка.– М.: ИИЛ, 1957. ИИЛ, – стр 53

25. Смит, Л. П. Фразеология английского языка. – М.: Дрофа, 1998. – 158 с

26. Телия В.Н. О типах и способах фразеобразования (в его коммуникативно-функциональном аспекте описания) // Проблемы русского

фразеолообразования. – Тула, 1973. – С. 25-43

27. Черная А.И., Некоторые особенности формирования семантических фразеологических единиц – сб. науч.тр. – Воронеж, изд-во Воронежского гос. университета, 1983г. – С. 185-190

28. Bally, Ch. *Precis de stylistique*. - Geneve, 1905.-320 p.

29. Fedulenkova T. *Communicational approach to stylistic differentiation of English idioms* // Лингводидактика и филология: Материалы международной науч.-практ. конф. – Архангельск: Поморский гос. ун-т, 2000. – С. 84-85

30. Taylor T.T. *Linguistic theory and structural stylistics* -2 ed. – Oxford: Pergamon press [Lang.a. communication libr.; Vol. 3], 2000. – 199 p.

31. Nurmonov A, Sobirov A, Yusupova Sh. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. - Toshkent: Ilm ziyo, 2010.- B.83.

Lugʻatlar

1. Кунин А.В. *Англо-русский фразеологический словарь*. – Изд. 4-е, переработанное и дополненное. - М.: Русский язык, 1984. – 942 с. (АРФС)

2. *A supplement to the Oxford English Dictionary* / Ed. by R.W. Burchfield. – Vol.3. – Oxford: Clarendon Press, 1992. – 1579 p.

3. *A supplement to the Oxford English Dictionary* / Ed. by R.W. Burchfield. – Vol.4. – Oxford: Clarendon press, 1996. – 1410 p.

4. Brewer E.C. *Dictionary of Phrase and Fable*. – Philadelphia; London: James Brodie, 2003. – 1440 p.

5. E.Cobham Breher. *A Dictionary of Phrase and Fable*. – London: Cassel and Co, LTD, 1997. – 1232 p.

6. Collins V.H. *A Book of English Idioms. With Explanations*. – London: Longman, 1998. – XI.- 258 p.

7. Cowie A., Mackin R. *The Oxford Dictionary of Current Idiomatic English*. London: Oxford Univ. Press, 1985. – Vol. 1. – 576 p.

8. Hornby A.S. Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English– London: Oxford University Press, 1995. – 1055 p.(ALD)
9. Longman Dictionary of English Idioms. – London: Longman, 1989. –387 p. (LDEI)
10. Roget's Thesaurus of English word and phrases. – New York: Penguin books, 1966. – 712 p.
11. U Rahimov, A.Rahimov “Idiomalar lug’ati” – Toshkent, 2011
12. Seifring J. Oxford dictionary of idioms. Oxford University Press. – 2004.
13. Wood F. Dictionary of English Colloquial Idioms. – London: Macmillan, 1979. – 658 p.

Badiiy adabiyotlar ro‘yxati

1. Bellow S. The adventure of Augie March.ch. XII–USA: Penguin books,1999. –254p
2. Cronin A.J. The stars look down. ch.XXI–Victor Gollancz, London, 1937. – 608 p
3. Christie A. A Murder is announced, ch. IV–London: Penguin Books, 1959. – 240p.
4. Christie A. Easy to Kill. ch. 5— London: Pan Books, 1976. – 280 p.
5. Cronin A.J. The citadel, book IV, ch.18–Little Brown and Company– 1983,368 p.
6. Dickens Ch. Martin Chuzzlewit.–London:Import, 1994.–843p.
7. Galsworthy J. Indian Summer of a Forsyte,ch III.: Book Jungle, 2007-312p
8. Greenwood J. The true history of a Little Ragamuffin, ch. VII-New York: Harper and Brothers, Publishers-2006140p (25)
9. O’Hara J. Assembly. First Day In Town- New York, Random House,1961-452p
10. Maugham W.S. The Razors Edge. – London,1978. – 225 p.
11. Stevenson R.L. Treasure Island. ch VII –London. copyright @ 2013. – 548p

12. Twain M. Life on the Mississippi. ch.XXII –BookRix.2014. –526p.
13. Twain M.Pudd'n head Wilson , A Whisper to the Reader-Duke University Press, 1990.–262 p.
14. Twain M. The Adventures of Tom Sawyer. ch, I – Duke University Press,1998.–362 p.

Veb-saytlar ro'yxati:

1. www.dialog-21.ru/achive-article.asp?param=6255
2. [http:// www.1september.ru/ru/rus/2004/05/1/htm](http://www.1september.ru/ru/rus/2004/05/1/htm)
3. [http: // kogni.narod.ru/ concept.htm](http://kogni.narod.ru/concept.htm)
4. [http: // www.rusnauka.com/Article // Filology/ 7-10/59.html](http://www.rusnauka.com/Article//Filology/7-10/59.html)
5. [http: //gazeta.ksu.ru / f10/publications/ 2004/rsf_conf_8.php](http://gazeta.ksu.ru/f10/publications/2004/rsf_conf_8.php)
6. [http: // www. vspu.ru / ~axiology/ vik/ vikart 2 htm](http://www.vspu.ru/~axiology/vik/vikart2.htm)
7. [http: // www.grammar.ru.](http://www.grammar.ru)
8. [http: // www. philology. ru](http://www.philology.ru)